ISSN 2181-9335



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

THE UNIVERSITY OF PUBLIC SAFETY
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JAMOAT XAVFSIZLIGI

ilmiy-amaliy jurnali

Scientific-practical journal of

PUBLIC SAFETY



2022, №1

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori.

MUNDARIJA
CONTENTS

I. KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK
I. CONSTITUTION, HUMAN RIGHTS AND NATIONAL LEGISLATION

PULATOV Y.S., USMONOV M.B.
Huquqiy mafkuraning huquqiy ongning kasbiy va nazariy darajasiga ta’siri haqida..... **5**

АХРАРОВ Б.Д., АЛИРИЗАЕВ Ш.Х.
Квалификация преступлений совершенных с косвенным умыслом вины..... **10**

ZULFIQAROV SH.X., TOSHMUXAMMATOV A.Y.
Mamlakatimizda siyosiy partiyalar hamda partiya fraksiyalari faoliyatini konstitutsiyaviy - huquqiy jihatdan takomillashtirish masalalari..... **16**

ЧИНИЕВ Д.А.
О некоторых аспектах проявлений коррупции при осуществлении права собственности..... **24**

QO‘SHAYEV N.M., SADULLAYEV T.SH.
Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini huquqiy jihatdan takomillashtirishning ayrim jihatlari..... **28**

ТУРСУНОВА М.У.
Координация сотрудничества государств в сфере образования в рамках системы ООН **33**

KUCHKAROV X.Z.
Jinoyat ishlarini yuqori instansiya sudlarida qayta ko‘rishning ijtimoiy-huquqiy ahamiyati..... **39**

ДЖАВАКОВА К.В.
Соблюдение прав человека – основа прогресса Нового Узбекистана..... **44**

MAVLONOV A.Y.

Korrupsiyaga qarshi kurashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-huquqiy zaruriyati **50**

RAXIMOV SH.J.

Prokuratura organlarining suvga doir munosabatlarini tartibga solish sohasidagi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish **64**

MIRZAYEV J.U.

Talonchilik jinoyatini ochishning ayrim usullari **71**

ИСХАКОВ Б.Т.

Понятие и особенности административной ответственности несовершеннолетних **80**

IBROHIMOV J.A.

Ayrim terrorchilik xususiyatidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining genezisi **86**

IBRAGIMOV S.M., KENJAYEV U.J.

O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchiligida qonuniylik talablarini ta’minlashni takomillashtirishning ayrim masalalari **92**

II. JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI
II. PUBLIC ORDER AND PUBLIC SAFETY

KADIROV M.B., MAQSUDOV Q.A.

Milliy gvardiya tizimida jamoat xavfsizligini ta’minlashning nazariy metodologik tahlili **97**

TURSUNOV B.S.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda psixologik tayyorgarlikning o‘rni va ahamiyati **102**

ATASHAYXOV A.A.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining jamoat xavfsizligini ta’minlashda jismoniy kuch ishlatish xususiyatlari **106**

XALMUXAMEDOV D.G.

Jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning mohiyati **113**

ELOV A.A.

Ekstremizm tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili **121**

MITANOV Z.N.

Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish **126**

III. HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR
III. REFORMS IN THE MILITARY SPHERE

XOLBOYEV SH.R., ALIMOV M.I.

Harbiy xizmatchilarga qarshi qaratilgan jinoyatni malakalashdagi muammo va yechimlar..... **130**

AKRAMOV J.M.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlarining jismoniy tayyorgarligini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari **135**

IV. IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI
IV. CURRENT SCIENTIFIC AND THEORETICAL ISSUES OF SOCIAL DEVELOPMENT

ERALIYEV A.B.

Ichki ishlar organlarida axborot-tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish masalalari..... **141**

USMANOV A.T.

Destruktiv g'oyalarning yoshlar ongiga ta'sir etishini oldini olishda xorij tajribasi..... **146**

PAYZIYEV A.M.

Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar va kuchli ta'sir qiluvchi dorilarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishning muammolari va yechimlari..... **151**

AZIMOV A.A.

Nodavlat notijorat tashkilotlari va davlat organlari o'zaro hamkorligining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish..... **154**

V. TA'LIM-TARBIYA JARAYONI
V. EDUCATION, EDUCATIONAL PROCESS

MAXMUDOV R.M., ERNAZAROV A.A.

Kasbning inson ruhiy holati va faoliyatiga ta'siri..... **160**

ШАКИРОВ Ш.Т.

Об особенностях структуры и содержании идеологического иммунитета военнослужащих **163**

VI. IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT
VI. ECONOMICS: THEORY AND PRACTICE

MAMATOV A.A., IKRAMOV A.A.

Dehqon, tomorqa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishning iqtisodiy - huquqiy asoslari va o'ziga xos jihatlari..... **168**

BOZOROV A.A.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibi va ularni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish..... **175**

VII. TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI
VII. TECHNICAL AND TECHNOLOGICAL DEVELOPMENT

ABDURAIMOV B.X., ALIBOYEV B.A., AXMEDOV D.A.

Xorij tajribasi misolida bolalar va yoshlar bilan bog'liq yo'l harakati xavfsizligi profilaktikasining asosiy yo'nalishlarini tadqiq etish..... **185**

VIII. XORIJIY TAJRIBA
VIII. FOREIGN EXPERIENCE

СТЕФАНЕНКО А.П.

Особенности взаимодействия следователей и органов, осуществляющих оперативно-розыскную деятельность..... **191**

GAFUROVA S.A.

Chet davlatlardagi mehnat migrantlari bilan ishlashning hozirgi holati, amaliy ahamiyati hamda pirovard vazifalari..... **198**

Mirzayev Jahongir Umirzoqovich,
Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti
Tashkiliy boshqarma boshlig'i,
O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

TALONCHILIK JINOYATINI OCHISHNING AYRIM USULLARI

Xodim voqea joyida ham, guvohlar yoki jabrlanuvchi bilan suhbatlashganida ham mayda tafsilotlarigacha e'tibor berishi kerak. Hatto jinoyatni kim sodir etgani aniq bo'lsa ham, jinoyat ishi sudda dalillar bilan tasdiqlanishi uchun mayda detallarigacha e'tibor berish va shu orqali ashyoviy dalillarni to'plab, haqiqatni aniqlash kerak.

Har bir xodim o'z uslubiga ega bo'lishi, uni ishlab chiqishga harakat qilishi lozim. Xodim birov bilan suhbatlashganida u qayerda yolg'on so'zlaganini aniqlashni mashq qilishi kerak; chunki u yolg'onni ajrata olsagina, shu orqali yashirilgan haqiqatni anglashi mumkin.

Jinoyatni ochishda eng muhimi to'g'ri tusmol tuzish: agar tusmol to'g'ri bo'lsa, har qanday jinoyat ochiladi.

Shu o'rinda to'g'ri tusmol tuzish bo'yicha elektron misollar va videorolikli qo'llanma ishlab chiqish, xodimlarga ta'lim berish va ularni qayta tayyorlash davrida ko'proq to'g'ri tusmol tuzish ko'nikmasini shakllantirish va oshirib borishni taklif etamiz.

Bundan tashqari, bugungi kunda tezkor xodimlar tomonidan suhbat va so'rov o'tkazish jinoyatni fosh etishning asosiy yo'llaridan biri hisoblanadi.

Savolga tutilayotgan shaxs kuchli emotsional ruhiy holatda bo'lgan yoki so'rov o'tkazish jarayoni juda cho'zilib, ko'p gaplashib yuborilgan ayrim vaqtlarda unga aytmagan gapini ham "Hali shunaqa degan edingiz, shuni batafsil gapirib bering" deb aytilsa, o'zi bilmagan holda to'g'risini aytib qo'yishi mumkin. Shuningdek, jinoyatchining bir oyog'ini stul ostiga tiqib ichkariga tortib o'tirishi u nimanidir yashirayotganligini anglatadi. Eng muhimi, xodim jinoyatchining ongiga kirib borishi zarur. Shuningdek, jinoyatchi to'g'ri ko'rsatma berishi o'zi uchun foydali ekanligini anglashi kerak. So'rov o'tkazish paytida unga dalillarning hammasini birdan emas, balki tan olgunicha ma'lum bir ketma-ketlikda, birma-bir aytish kerak. To'g'ri ko'rsatma berish olijanoblik va insoniylik belgisi ekanligini, odamlar to'g'risini aytganlarni doimo kechirishini gumondorga anglatish, shuningdek uning yodidan chiqib ketgan narsalarni esga tushirishida yordamlashish kerak [1].

Gumon qilinuvchini so'roq qilishda ahamiyat berish kerak bo'lgan holatlar: so'roq nizoli vaziyatda bo'lishiga tayyor bo'lish, birinchi navbatda, uning psixikasi, madaniyati, ma'lumot darajasi, ijtimoiy va hayotiy kechinmalaridan xabardor bo'lish, u bilan muloqotga kirishish yo'llarini bilish,dangal savollar bermaslik, to'g'ri ko'rsatuv berish o'zi uchun foydali ekanligini, to'g'ri ko'rsatma berishdan boshqa yo'li yo'qligini anglatish, nazorat savollari berish, chalg'ituvchi savollar bermaslik kerak.

Savollar gumon qilinuvchiga tushunarli bo'lishi, uning shaxsidan kelib chiqishi lozim. Buning uchun esa uning psixologiyasini bilish, dalillar ko'pligini anglatish, so'roq qilishda dalillarga asoslanib savol berish, shuningdek holatni detallarga ajratib so'roq qilish, gumon qilinuvchining yaxshi tomonlarini aytib, unga yaxshi odamdek munosabatda bo'lish zarur. Ya'ni bu savol-javoblar uni jazolash uchun emas, balki mavjud holatni qayd etish uchun amalga oshirilayotganini tushuntirish darkor.

So'roq qilishda muqaddam sudlanganlarga boshqacha, birinchi marta jinoyat sodir etganlarga boshqacha usullarni qo'llash kerak.

Xodim ba'zan gumon qilinuvchida to'g'risini aytishdan boshqa chora qolmasligi uchun guruh o'rtasida barmoq izlari unikiga mos kelayotganligi yoki gumon qilinuvchini

qilmishlarini kuzatib yurgan guvoh bordek, shuningdek o'zini uning harakatlaridan xabardordek tutishi foydali bo'ladi.

Yana bir yo'li. So'roq qiluvchi gumon qilinuvchining yolg'on gapir ishiga sharoit yaratib beradi, ya'ni o'zini hech narsadan xabari yo'qdek tutadi. So'roq yakunida esa unga barcha dalillarni ko'rsatib, haqiqatni aniqlaydi. Shuningdek, tintuv vaqtida ham, masalan, yolg'ondan biror bir dalil dalil "topildi" deb aytib, gumon qilinuvchining reaksiyasiga e'tibor berish kerak.

Qishloq joylarida bo'ladimi, shaharda bo'ladimi, bundan qat'i nazar, jinoyat qurolini topish uchun atrof to'liq o'rganib chiqilishi kerak. Shu orqali jinoyatchi jabrlanuvchini kuzatib turgan joyni, tashlab ketilgan sigareta va boshqa narsalar qoldiqlarini ham topish mumkin.

Ziddiyatli vaziyatlarda gumon qilinuvchi bilan suhbat o'tkazishdan oldin u bilan psixologik aloqa o'rnatish muhim ahamiyatga ega, buning uchun dastlab ushbu o'tkaziladigan suhbatga puxta tayyorgarlik ko'rish talab etiladi. Jinoyatga aloqadorligini rad etgan ayblanuvchini so'roq qilishda jinoyatchiga yanada ta'sir etuvchi dalillarni ko'rsatib borish tavsiya qilinadi.

O'ta xavfli retsidivist deb topilgan ayblanuvchilar boshqa jinoyatlarni ham sodir etgan bo'lishi mumkinligini yodda saqlash kerak. Ularga "savol-javob" taktikasini qo'llash lozim. Bu vaqtda ularning javoblarini batafsil qayd etib borish, kerak bo'lsa videotasvirini olish, keyin qayta so'roq qilish zarur. Bu ko'rsatmalardagi nomuvofiqliklarni aniqlashga imkon beradi[2].

Gumon qiluvchining yolg'onini fosh qilish taktikalari tizimi uch guruhga bo'linadi: hissiy (emotsional), mantiqiy ta'sir etish va taktik kombinatsiyalar.

Quyidagilar hissiy (emotsional) ta'sir etish taktikasining samarali usullari deb hisoblanadi: 1) jinoiy sheriklar o'rtasidagi bog'lanmagan yoki dushmanlik munosabatlarini qo'llash (33,4 %); 2) gumon qilinuvchi shaxsining ijobiy xislatlariga murojaat qilish (53,5 %); 3) unga aybini tan olishi va tergov bilan hamkorlik qilishi javobgarligini yengillashtiradigan holat ekanligini tushuntirish (75,6 %).

Mantiqiy ta'sir etish usullari gumon qilinuvchini yolg'on ishlatish foydasiz ekanligiga ishontirishga qaratilgan bo'lib, quyidagilardan iborat: 1) gumon qilinuvchiga ko'rsatmasini detallashtirishga majburlovchi tahlillarni taqdim etish (39,5 %); 2) gumon qilinuvchining yolg'onini qo'zg'atuvchi dalillarni taqdim etish: a) jabrlanuvchining ko'rsatuvlarini e'lon qilish (84,2 %); b) guvohning ko'rsatmalarini e'lon qilish (68,9 %); v) sheriklarining ko'rsatuvlarini e'lon qilish (66,7 %); 3) ekspertiza tadqiqotlari va so'rov ma'lumotlarining imkoniyatlarini namoyish qilish (42,2 %); 4) boshqa tergov harakatlari (tintuv, yuzlashtirish, identifikatsiya ekspertizalari) orqali dalillar olishning obyektiv imkoniyatlarini namoyish qilish (40 %); 5) so'roq qilish jarayonida sheriklarining audio va vi-deoyozuvlarini namoyish qilish (26,7 %); 6) gumon qilinuvchi hamda sheriklarining ko'rsatmalaridagi ziddiyatni tahlil qilish (37,1 %).

Taktik usullarning (V.Yu.Shepitko tomonidan ifodalangan) eng samarali qo'llaniladiganlari quyidagilar: 1) to'satdan qo'llash (savol berish, dalillarni taqdim etish) — 46,7 %; 2) afsonaga yo'l qo'yish — 22,3 %, afsonani bartaraf qilish — 41,2 %; 3) dalillarni taqdim qilish ketma-ketligi: og'iridan boshlab og'irrog'igacha — 35,6 %; og'irrog'idan yengilrog'iga qarab — 6,7 %; eng asosiy dalillarni taqdim etish — 11,2 %; dalillarni jamlangan holda taqdim etish — 37,8 %; 4) so'roq qilish suratini jadallashtirish — 46,7 %; 5) kuchlanish hosil qilish, uni kamaytirish — 31,5 %; 6) bilvosita (to'g'ridan-to'g'ri emas) so'roq qilish (chalg'itish) — 29,4 %. Gumon qilinuvchini so'roq qilishda uning jinoiy tajribasini, tergov va surishtiruv taktikalaridan xabardorligini bilish muhim ahamiyatga ega[3].

Gumon qilinuvchi so'roq paytida voqea haqida uning guvohi bo'lmagan boshqa birov bilishi mumkin bo'lmagan gapni aytib yuborib, o'zini sezdirib qo'yishi mumkin. Shuning uchun suhbat vaqtida uning gaplarini videokameraga yozib olish va keyinroq diqqat bilan eshitish kerak.

Talonchilik jinoyatlarini ochish borasida ikki kishi birgalikda suhbat o‘tkazishi (so‘roq qilishi)ni eng maqbul usul deb hisoblaymiz. Bunda xodimlardan biri shaxsga savollar beradi, boshqasi esa uning tanasi va harakatlaridagi o‘zgarishlarni kuzatib, rost yoki yolg‘on gapirayotganini o‘rganib boradi.

So‘roq shunday amalga oshirilishi kerakki, shaxsga rost so‘zlash yolg‘on gapirishdan osonroq tuyulsin.

Tergov yoki surishtiruvga chaqirtirilgan og‘ir jinoyatni sodir etgan bo‘lsa ilgari o‘zi sodir etgan yengil jinoyatlarni oson va tez tan oladi. Shundan keyin xodim unga og‘ir jinoyatni sodir etganligi bo‘yicha ham savollar bera boshlashi va shu jinoyat ishi bo‘yicha ham chaqirtirilganligini aytish kerak.

Shuni unutmaslik kerakki, shaxsning birdaniga jinoyatni bo‘yniga olishi shubhali bo‘lib, qo‘shimcha tekshirishni talab qiladi.

Gumon qilinuvchini so‘roq qilishda xonaga jinoyat joyidan olingan qurol yoki ashyolarni qo‘yib qo‘yish va uni ko‘rgan gumon qilinuvchining reaksiyasiga e’tibor berish zarur. Shuningdek, voqea haqida unga ma’lumot bermasdan, balki undan ma’lumot olish uchun bo‘lgan voqeani aytib berishini so‘rash kerak.

Shaxs jinoyat sodir etganini yashirmoqchi bo‘lib, noto‘g‘ri ma’lumot berganida voqealar tabiiylikdan yiroqlashadi va sun’iyligi sezilib turadi. Ba’zida shaxs jinoyatni sodir etganidan keyin o‘zgarib qoladi, topgan pullarini sarflab, spirtli ichimliklar icha boshlaydi, aynan ushbu holatlarga ham e’tibor qaratish o‘zining ijobiy samarasini beradi.

Gumon qilinuvchini so‘roq qilayotganda mabodo qamalib ketsa, xotini, farzandi yoki boshqa qadrli insonlari og‘ir ahvolda qolishini tushuntirib, unda rahm-shafqat hissini uyg‘otish kerak. O‘z navbatida, gumon qilinuvchining yaqinlari bilan ham suhbatlashib, uning qamalib ketishi unga qanday noxush oqibatlar keltirishini tushuntirish va ularning ham rahmini keltirish kerak. Bu to‘g‘ri ma’lumot olishda yordam beradi.

Shaxs bilan suhbatlashganda uning har bir so‘ziga, so‘zlarining kelishigi, gaplarining zamoni va egasiga e’tibor berish kerak; o‘sha gaplar asosli bo‘lishi ham mumkin.

Ba’zi hollarda jinoyat sodir etgan shaxslar jabrlanuvchilarga psixologik bosim o‘tkazishlari mumkin. Bu, albatta, haqiqatni aniqlashda xalal beradi. Shuning uchun ular bilan suhbat vaqtida ularning ovozini yashirincha yozib olish va kelgusida isbotlash jarayonida undan foydalanish mumkin [4].

Guvoh va jabrlanuvchilar bilan suhbatlashganda yolg‘on xotira effektiga e’tibor qaratish kerak. Bu bir zumga paydo bo‘lib, keyin yo‘q bo‘lgan narsani noto‘g‘ri eslab qolish, ya’ni qora kiyimdagi shaxsni oq kiyimda edi, deb xotirlashi mumkin. Bu tabiiy holat bo‘lib, uni inobatga olish lozim.

Shuni unutmaslik kerakki, jinoyat sodir etgan shaxs o‘ziga alibi yaratish yoki qilmishini yashirish uchun ko‘pincha o‘zini noodatiy tutadi, ya’ni jinoyatini yoki o‘zining holatini yashirish uchun dalillar tashkil qilishni istaydi. Atrofidagilarga esa bu holat g‘alati tuyuladi va ularning shu g‘ayrioddiy qiliqlari ularning yodida qoladi.

Jinoyatni ochishning yuzlab usullarini ishlab chiqish mumkin, bu xodimning o‘zigagina bog‘liq. Usullarning barchasi voqea joyi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak.

Shuni unutmaslik kerakki, jinoyatchini jinoyat joyiga faqat izlar bog‘lab qo‘yadi. Shuning uchun o‘sha izlarni topish va jinoyatchini voqea joyiga olib kelish kerak.

Voqea joyiga nisbatan palapartish munosabat, albatta, izlarning yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Shunday ekan, tartib bo‘lishi kerak. Voqea joyiga “U menga nima haqida so‘zlab berarkin?” degan intilish bilan borish va dalillarni axtarish, voqea joyidagi jarayonning ahamiyatini kuchaytirish kerak.

Voqea joyini o‘rganishdan so‘ng, jinoyat sodir etilgan haftaning kuni va aniq soatida o‘sha joyga borib, kimlar bu vaqtda o‘sha joydan o‘tishi yoki bo‘lishi mumkinligini o‘rganish uchun kuzatish kerak.

Talonchilik jinoyatlarini ochishda jinoyat sodir etilgan uy ro‘parasidagi do‘konlar, ushbu hudud yo‘llarida yuradigan daydilar, ishga o‘tadigan odamlar haqida ma’lumot olib, ulardan gumon qilinuvchilar

haqida so‘rab-surishtirish mumkin. Shuningdek, gumon qilinuvchi yuradigan yo‘nalishni tuzish orqali uning jinoyatga aloqador yoki aloqador emasligini aniqlasa bo‘ladi.

Shuni unutmaslik kerakki, jinoyat sodir etishni rejalashtirib, bir necha kun uyni kuzatib yurgan shaxslarni tongda yugurishga chiqadigan shaxslardan birortasi ko‘rgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ushbu fuqarolar bilan so‘rov o‘tkazish kerak. Bundan tashqari, jinoyat joyini qayta o‘rganish izlarni topishda yordam beradi. Jinoyatchi bu yerda o‘z qurolini yashirib qo‘ygan bo‘lishi, biror belgi qo‘ygan bo‘lishi mumkin va h.k.

Voqea holatlarini ortga qaytarish, ya’ni voqeani xotirada qayta tiklab, dalil topish mumkin. Ushbu usuldan foydalanish ham o‘z ahamiyatiga ega.

Dalillarni chala olish va ularni saqlashga beparvo bo‘lish jinoyatni isbotlashda o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Talonchining fotorobotini chizadigan maxsus rassomlar ro‘yxatini shakllantirib, ularni ish bo‘yicha rag‘batlantirishni yo‘lga qo‘yish kerak. Chunki bitta mutaxassis yoki rassom shu ish bilan muntazam shug‘ullansa, malakasi osha borib, jinoyatchini aniqlashda katta yordami tegadi.

Shuningdek, shaxsning surati yoki fotorobotini televideniye yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatib, qidirilayotganini ma’lum qilish guvohlarni topishda ko‘maklashadi. Bu borada har bir hudud o‘z televideniyesi va internet kanallarida jinoyat va jazoga oid ko‘rsatuvlar va ruknlar tashkil qilishi kerak.

Talonchilik jinoyatni fosh etishda kuzatuv katta natija beradi, shu orqali gumon qilinuvchining aybini isbotlash mumkin. Jinoyatchi ko‘pincha qo‘lga tushmasligiga ishonadi. Ba’zi jinoyatchilar dalillarni o‘z uyida saqlashni xavfsiz deb hisoblashadi. Ularning mana shu kamchiligidan foydalanib qolish lozim.

Talonchilik jinoyatlarida jabrlanuvchi yoki guvohlar tan jarohati olishlari ham mumkin. Bunday vaqtlarda olingan tan jarohatlarining belgilarini o‘rganish jinoyatni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, insonning tanasida jarohatlari borligiga e’tibor qaratish kerak. Velosipeddan, devordan yoki daraxtdan yiqilgan odam boshini urishdan avval qo‘lini tirab qoladi. Shunga e’tibor qaratish orqali jinoyatchini aniqlash yengillashadi.

Odamning badani, ayniqsa boshida jarohat yetkazilgan jismning, poyafzalning izi qoladi. Inson badanidan terisining parchalari mayda chang holatida ajralib, yerga tushadi yoki biror buyumga o‘tiradi. Shu bois ushbu mikrozarralar orqali ham jinoyatni topish mumkin.

Jinoiy guruhlar, albatta, puldor shaxslarni tunashni avvaldan rejalashtiradi. Ayrim vaqtlarda jabrlanuvchilarning qarindoshlari yoki tanishlari jinoiy guruh a’zosiga aylanishi mumkin. Shuning uchun, jabrlanuvchiga joni kuymayotgan, ichi achimayotgan qarindoshlaridan ham gumon qilsa bo‘ladi.

Aksariyat odamlar ko‘p narsalarni bilmaydi, bilmaganlar bilmay yuraveradi, bilganlar esa bundan foydalanib qoladi. Ayrim voqealarni tekshirganda shunga ham e’tibor berish kerak. Ko‘pincha jinoyatchining o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rish orqali uning izini tezroq topish mumkin bo‘ladi.

Har bir tezkor xodim jinoyatni ochish yo‘lini belgilab olib, ana shu yo‘ldan borishi kerak, agar yo‘l davomida dalillar boshqacharoq yo‘nalishni anglatsa, shu dalillarga qarab yo‘lini qayta belgilab izlanishda davom etishi lozim.

Jinoyatchini topish uchun xodim o‘sha sohadan xabardor bo‘lishi, ya’ni tegishli soha bo‘yicha bilimi, tushunchasi bo‘lishi kerak.

Bir-biriga yaqin munosabatdagi odamlar har doim o‘sha yaqin odami haqidagi salbiy ma’lumotlarni va kamchiliklarini yashirishga harakat qilishadi. Shuning uchun ba’zida ularga xodimni alday olmasliklarini aytib turish kerak bo‘ladi.

Ayrimlar aybi bo‘lsa, o‘zini tajovuzkor tutadi yoki surbetlarcha hammadan zo‘rdek tutishga harakat qiladi yoxud hech narsa aytmaydi. Natijada ulardan biror ma’lumot olib bo‘lmaydi. Bunday toifadagi shaxslarga boshqa bir aybini aytib, buning uchun javobgarlikka tortilishini, masalan, tergovga

to‘sqinlik qilgani uchun ma’muriy qamoq jazosi berilishini tushuntirib, o‘zining ruhiy qarshiligida chiqarishga harakat qilish kerak.

Gumon qilinuvchi bilan suhbatdan keyin dalillarni to‘plab, yana suhbat o‘tkazish kerak.Chunki u bergan ko‘rsatmalarida chalkashib, to‘qigan yolg‘oni esidan chiqib, yana boshqacha yolg‘on to‘qishga harakat qiladi: “So‘roq qilayotgan xodim yolg‘onimni unutgan, e’tibor bermagan, avval ham aldagan edim, yana aldayman, buni sezmaydi”, deb o‘ylaydi.

Ochilmagan talonchilik jinoyati bo‘yicha agar gumon qilinuvchining ovozi yozib olingan bo‘lsa, ushbu ovozni telefon kompaniyalari orqali aholiga tarqatib, shu ovoz egasi kimligini aytgan odamga mukofot berilishini e’lon qilish mumkin.

Ichki ishlar organi idorasiga kelaman degan shaxsning arzimas bahona bilan kelmay qolishi ham yolg‘onchiligining belgisi hisoblanadi. Jinoyat qilgan shaxs o‘zini hammadan aqlli deb o‘ylaydi. Uning yolg‘onlarini ovoz yozish vositasi bilan yozib olib, keyin o‘ziga qo‘yib berish ham so‘rov o‘tkazishda natija beradi. Shuningdek, xodimni aldagan gumon qilinuvchining barcha ko‘rsatmalarini tekshirib, yolg‘onligini isbotlab berish kerak.

Telefon orqali eshitib turish jarayonida gumon qilinuvchilar mavzu bo‘yicha gaplashishmasa, ularni mavzuga yo‘naltirishga qaratilgan kombinatsiyalarni amalga oshirish lozim. Masalan, xodim birining uyiga borib, ertasiga ichki ishlar bo‘limiga borishi shartligi haqida chaqiruv qog‘ozi berishi mumkin.

Ma’lumotlarni aynan suhbat orqali olish va to‘g‘ri baholashning ahamiyati juda katta. Bu jinoyatni ochishning eng muhim yo‘lidir. Shu bois bu borada aniq usul ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Shu o‘rinda bizning taklifimiz: talonchilik jinoyati noma’lum shaxs tomonidan sodir etilganida gumon qilinuvchilar so‘roq qilganidan keyin ularning harakatlari bo‘yicha axborot beradigan guruh tashkil qilish kerak. Bu o‘z navbatida jinoyatga oid dalillarni to‘plashga imkon beradi.

Quyidagi fikrlarni e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Jumladan:

Jinoyatchi aksar hollarda kutilmagan odam bo‘lib chiqadi. Shuni unutmaslik kerakki, jinoyatchining do‘sti ham jinoyatchi bo‘ladi. Bunday ayol va erkaklar bir-birini topishadi.

Jinoyat qilgan odam ancha muddat o‘tganidan keyin ham o‘zini tutishidan bilinadi. Talonchilik jinoyatlarida ba’zi guvohlar bir qancha vaqt, hatto bir-ikki yil o‘tganidan keyin ham ko‘rsatma berishi mumkin. Shuning uchun ochilmagan jinoyatlar bo‘yicha guvohlar bilan ma’lum bir vaqt o‘tgandan keyin ham bog‘lanib, aloqa qilib turish kerak.

Talonchilik jinoyatlarini ochish taktikasini belgilashda uning sodir etilishidagi ayrim o‘ziga xosliklarni inobatga olish zarur. Misol uchun, ba’zida jabrlanuvchining tanishlari yoki dushmanlari talonchilik qilishi mumkin. Talonchi jinoyatni oldindan rejalashtirib, uyga kirib, pul borligini ko‘rib ketib, keyin sodir etishi mumkin. Ayrim vaqtlarda jinoyatchilar o‘zlari qilib yurgan, eshitgan yoki ko‘rgan narsasiga qarab talonchilikni sodir etadi va talon-toroj qilingan narsasini yashiradi.

Shuningdek, talonchilik kunduz kuni binoda sodir etilganida uyni tark etayotgan jinoyatchi ko‘chaga chiqishidan oldin bino eshigi oldida o‘z ko‘rinishini to‘g‘rilab oladi (olgan narsalarini joylashtiradi, qurollarini yashiradi va h.k.).

Shuni doimo yodda tutish lozimki, ba’zi shaxslar pul uchun har narsaga tayyor bo‘ladi, u xoh boy, xoh kambag‘al bo‘lsin, muhtojlikda jinoyatdan qaytmaydi.

Talonchilik jinoyatini ochish taktikalaridan biri bo‘yicha dalillar borligi haqida gumon qilinuvchiga “Sen qilganing ma’lum bo‘lyapti” deb aytish qonunga xilof emas. Bunda ayblanuvchining yuz-ko‘ziga, mimikasiga qarash kerak. Shuningdek, g‘ayriqonuniy bo‘lmagan yolg‘on yordamida so‘roq qilib, ma’lumot olish mumkin. Albatta, ma’lumot olinganidan so‘ng ishlatilgan yolg‘on haqida gumondorga ma’lum qilinishi kerak.

Agarda jinoyat qilgan odam o‘zini guvoh sifatida ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, buni sezish mumkin. Uning voqea holatini tas-

virlashda guvoh ko‘zi bilan ko‘rib bo‘lmaydigan joyini ham aytib yuborishi uning gumon qilinuvchiligini anglatadi. Shuningdek, ba’zan jinoyatni sodir etgan shaxslar boshqalar oldida bu bilan maqtanib qo‘yadi. Shu bois keyinroq o‘sha shaxslardan ma’lumot olish jinoyatni ochishda qo‘l keladi.

Talonchilik jinoyatini ilgari yoki boshqa hududlarda sodir etgan, sodir etish usuli o‘xshash bo‘lgan, shuningdek bunday jinoyatlarni sodir etish yo‘liga kirgan shaxslarning rasmini ko‘rsatib qidirish orqali ham ushbu jinoyatlarni ochish mumkin.

Jinoyat sodir etgan shaxs o‘sha hududga yaqin joylardagi do‘konlarda o‘sha kuni yoki ikki-uch kun oldin turli narsalar, jumladan jinoyat qurolini sotib olgan bo‘lishi mumkin va h.k. Jinoyat sodir etilgan hududga boshqa joylardan shaxslar kelib, uni amalga oshirgan bo‘lishi mumkinligini inobatga olib, temir yo‘l va taksilarda gumondorning rasmlarini ko‘rsatib, so‘rov o‘tkazish kerak. Jinoyat sodir etilgan joydan to‘lov cheklarini topish ham ahamiyatga ega.

Barlar, tungi ko‘ngilochar maskanlarning qo‘riqchilari, ofitsiantlari ham o‘zgarib qolgan mijozlari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari mumkin. Shu bois ulardan ana shunday o‘zgarib qolgan mijozlar haqida xabar berish so‘ralishi kerak.

Qo‘shnilardan so‘rab-surishtirish yoki boshqa jinoyat sodir bo‘lgan hududda so‘rov suhbatlari o‘tkazish ham yaxshi natija beradi. Masalan, jinoyatchi o‘zi tushunmagan yoki sotmoqchi bo‘lgan narsasi haqida ma’lumot olish uchun yoxud o‘zidagi narsalarni hujjatlashtirish maqsadida savol bergan bo‘lishi mumkin.

Jinoyatlarni ochishning ilg‘or tajribalaridan yana biri ma’lumot beruvchi agentlar va ko‘maklashuvchi shaxslarning sifatli va ko‘p bo‘lishidir.

Qadim zamonlardan beri agentura usuli tezkor-qidiruv, razvedka va kontrrazvedka faoliyatiga yaqin bo‘lgan [5].

Qadimgi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy (mil. avv.VI asr) bilan bir vaqtda yashagan va o‘zining “Urush san’ati” risolasi bilan mashhur bo‘lgan xitoylik harbiy nazariyotchi Sun-Szi razvedka faoliyatiga alohida ahamiyat bergan. Uning ta'kidlashicha, agentlar bilan ishlash qat’iy maxfiylikni talab qiladi va nafaqat ular mavjud bo‘lishi, balki ulardan mohirona foydalanish ham zarur. U harbiy rahbar va ma’murlarning yashirin usulni qo‘llashdan bosh tortishini “o‘taketgan nodonlik” deb hisoblagan, “chunki chinakam rahbar imkon qadar kam qurbonlar berib kurashishi kerak” [6].

Ma’lumot olishning samarali usullaridan biri fuqaroning tan berishi — sodiqligidan foydalanishdir.

Talonchilik jinoyatlari bilan bog‘liq holatlar haqida ko‘pincha turli kasb egalari (fohishalar, qo‘shmachilar, tungi bar va ko‘ngilochar joylarda ishlovchilar, eski-tuski narsalarni sotib oluvchilar, tilla taqinchoqlarni olib-sotuvchilar, boshqa joylardan 1-2 kunga kelib ketuvchilarga vaqtincha yashash joyi berib turuvchilar, taksichilar, choyxona va oshxonalarda ishlovchilar) ma’lumot berishi mumkin. Shu bois bu sohadagilar bilan yaqin aloqalar o‘rnatish tezkor xodimning jinoyatlar haqida ma’lumot olish imkonini yanada oshiradi.

Talonchilik jinoyatlariga qarshi kurashda turli xizmatlarning o‘zaro hamkorligi ham muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jazoni ijro etish muassasalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish jazoni o‘tab chiqayotgan mahkumlarning qaysilari kelgusida jinoyat sodir etishi mumkinligi haqida ma’lumot olishda ahamiyatlidir.

Sodir etilgan jinoyat haqida ma’lumotlar qanchalik ko‘p bo‘lsa, turli chalg‘ituvchi tusmollar tuzish ehtimoli shunchalik kamayadi, biroq ayni vaqtda bir qancha shaxslar bilan so‘rov o‘tkazish, tekshirish va tahlil qilishlari ko‘payadi.

Jinoyatni ochishda muvaffaqiyatga erishish xodimning aql-zakovatiga, jinoyat va uni ochish usullari haqidagi bilimlariga bog‘liq. Jinoyatlarni ochish amaliyotini o‘rganish orqali uning turli usullarini ishlab chiqish mumkin.

Jinoyat haqida xabar olingan vaqtning o‘zida u inssenirovka bo‘lishi ham mumkinligini tekshirib boraverish kerak. Shu bilan birga, jabrlanuvchining qarindoshlari, u bilan yaqin aloqada bo‘lganlar, uning uyiga

kelib ketuvchilar ham tekshirilishi lozim. Tusmol tuzishda jinoyat jabrlanuvchining qarindoshlari tomonidan yoki ularning yo‘nalish berishi bilan, shuningdek jabrlanuvchining do‘stlari, tanishlari, qo‘shnilari yoki dushmanlari hamda shu kabi jinoyatlarni sodir etgan shaxslar tomonidan sodir etilgani kabi holatlar birma-bir tahlil qilinishi va eng maqbuli tanlab olinishi zarur.

Talonchilik jinoyatini ochishning samarali usullaridan yana biri — talonchilik sodir etilayotgan yoki sodir etilish ehtimoli katta bo‘lgan hududda xodimlarning “o‘lja” sifatida yurishini tashkil qilish. Shu orqali talonchini jinoyat ustida qo‘lga olish mumkin. Bu borada, avvalo, chuqur va batafsil tahlillar o‘tkazish orqali jinoyatchi keyingi jinoyatini sodir etishi mumkin bo‘lgan joyni aniqlash imkonini beradi.

Ko‘pincha talonchilik jinoyati guruh tomonidan sodir etilganda, guruhning bir a’zosi (do‘konlar yoki bank shoxobchalari yaqinida) kuzatib turadi va ikkinchisiga pul bilan ketayotgan shaxs haqida xabar beradi. Talonchilikni ikkinchisi sodir etadi. Ushbu jinoyatni jabrlanuvchi pulni aynan qayerda olgani yoki ishlatganidan boshlab shubhali tuyulgan shaxslarni so‘rab-surishtirish orqali aniqlash mumkin.

Ma’lumki, talonchilik jinoyatini noma’lum shaxs sodir etganida jinoyatni tekshirishdan uni sodir etgan shaxsni aniqlash tomon harakat qilinadi. Tezkor xodim tomonidan tadbirlar olib borishda esa ishlovdagi shaxsdan u sodir etgan jinoyatga qarab boriladi[7].

Ko‘pgina jinoyatlar ochilmay qolishining asosiy sabablaridan biri o‘z vaqtida yetarli tadbirlar olib borilmasligidir.

Jabrlanuvchi yoki gumon qilinuvchining tanishlari va qarindoshlari doirasidagi muhitga, agar jinoyat guruh bo‘lib sodir etilgan bo‘lsa — guruhdagi ruhiy vaziyat va muhitga, surishtiruv va tergov harakatlari vaqtida ularning o‘zini tutishiga, jinoyatning ochilishiga bo‘lgan qiziqishiga e’tibor qaratish kerak. Jinoyatni ochishda tezkor xodim va tergovchining yaqin hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Masalan, tezkor xodim va tergovchi tomonidan tuzilgan tusmol va rejalarning muhokama qilib olinishi o‘zaro maslahatlashuv va ma’lumot almashinuviga hamda jinoyatning ochilishiga ijobiy ta’sir etadi.

O‘tkazilgan so‘rov jarayonida tezkor xodimlarning 60,7 % tergovchining topshirig‘ini bajarish bilan bog‘liq holda tezkor ma’lumotlar olganliklarini aytishgan.

Buning uchun shaxs haqida ko‘proq ma’lumotga ega bo‘lish lozim. Bu borada ilmiy tadqiqotchi G.A.Dimovning xodim ayniqsa bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatda gumon qilinuvchilarni so‘roq qilishdan oldin har birining shaxsi bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lishi maqsadga muvofiq [8], degan fikriga qo‘shilamiz.

Ko‘pincha jinoiy guruhdagilar tezkor xodimlarni chalg‘itish uchun atayin ular bilan bog‘lanishga harakat qilishadi. Jinoiy guruh o‘zining ayrim a’zolarini taslim bo‘lishga undashi ularning taktik maqsadlaridan biri bo‘lishi mumkin. Bunday holatda zudlik bilan jinoiy to‘daning boshqa a’zolarini, jumladan jinoyatga ko‘maklashgan shaxslar yoki guruhning ikkinchi darajali a’zolarini hamkorlikka jalb qilish va ularning holatini tekshirish kerak.

Ayrim vaqtlarda jinoyat sodir etish usulini jinoyatchining farzandlari va boshqa yaqinlari ham o‘rganib, ustoz-shogird bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, fuqarolarning faolligi, biror shubhali narsani topib olganida yoki ko‘rganida telefon qilib aytishi ham katta ahamiyatga ega.

Talonchilik jinoyatlarini ochish taktikasini tanlashda tusmollarni to‘g‘ri tuzish muhim ahamiyatga ega. Shuni unutmaslik kerakki, ko‘pincha qaysi tusmol kinoga o‘xshab ketsa yoki vahimaliroq bo‘lsa — noto‘g‘ri, qaysi biri eng oddiy va sodda bo‘lsa, to‘g‘ri bo‘ladi.

Tezkor-qidiruv tusmoli tezkor xodimning jinoiy hodisa, gumon qilinuvchilar, guvohlar, jabrlanuvchining turgan joyi, ularning aloqalari, talon-toroj qilingan buyumlari, jinoyat quroli, dalillar, isbotlash kerak bo‘lgan holatlar,tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari, jinoyat ishi materiallari, jinoyatni

ochish va tergov qilish bilan bog'liq [9].

Talonchilik jinoyatlarini ochishda tergovchi va tezkor xodimlarning o'zaro hamkorligi, bir guruhda jips bo'lib harakat qilishi, jinoyatni ochishda o'z samarasini beradi. Shuning uchun, har bir sodir etilgan talonchilik jinoyati bo'yicha zudlik bilan tezkor va tergov xizmat xodimlaridan iborat guruh tuzish va ularning birgalikda ishlashiga sharoit yaratib berish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aleksandr Ringer. Как стать сыщиком. Как раскрыть преступления. (Aleksandr Ringer. How to become a detective. How to solve crimes.) URL:https://youtu.be/21rRFk9x8PI

2. Драпкин Л.Я. Криминалистическая характеристика грабежей и разбойных нападений (Drapkin L.Ya. Forensic characteristics of robberies and robberies) https://studme.org/111211037508/pravo/rassledovanie_grabezhey_razboev

3. Чечелян Г.С. Первоначальный этап расследования грабежей и разбоев, совершенных с незаконным проникновением в жилище: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. — Ростов-на-Дону, 2006. (Chechelyan G.S. The initial stage of the investigation of robberies and robberies committed with illegal entry into a home: Author's abstract. dis. ... Cand. jurid. sciences. - Rostov-on-Don, 2006.) URL: http://lawtheses.com/pervonachalnyy-etap-rassledovaniya-grabezhey-i-razboev-sovershennyh-s-nezakonnym-proniknoveniem-v-zhilische

4. Дымов Г.А. Организация и тактика оперативно-розыскного обеспечения раскрытия и расследования грабежей и разбоев, совершенных несовершеннолетними // Бизнес в законе. — 2005. — № 1. — С. 93. (Dymov G.A. Organization and tactics of operational-search support for the disclosure and investigation of robberies and robberies committed by minors // Business in law. - 2005. - No. 1. - P. 93.)

5. Оперативно-розыскная деятельность: Учебник / Под ред. К. К. Горяинова и др. — 2-е изд., доп. и перераб. — М.: Инфра-М, 2004. — С. 4. ( )

6. Оперативно-розыскная деятельность: Учебник / Под ред. К. К. Горяинова и др. — 2-е изд., доп. и перераб. — М.: Инфра-М, 2004. — С. 5. (Operational-search activity: Textbook / Ed. K. K. Goryainova and others - 2nd ed., Add. and revised - M .: Infra-M, 2004 .-- S. 5.)

7. Кирилов О.П. Опретивно-розыскное производство по оперативным делам / О. П. Кирилов, А. Н. Огрохин. — М., 2004. — С. 7, 12. (Kirilov O.P. Detective-search production for operational affairs / OP Kirilov, A. N. Ogrokhin. - M., 2004 .-- S. 7, 12.)

8. Дымов Г.А. Организация и тактика оперативно-розыскного обеспечения раскрытия и расследования грабежей и разбоев, совершенных несовершеннолетними // Бизнес в законе. — 2005. — № 1. — С. 93. (Dymov G.A. Organization and tactics of operational-search support for the disclosure and investigation of robberies and robberies committed by minors // Business in law. - 2005. - No. 1. - P. 93.)

9. Брылев В.И. Оперативно-розыскное сопровождение раскрытия и расследования преступлений: Монография / В. И. Брылев, Н. С. Шевелев, Е. В. Кулькова. (Brylev V.I. Operational-search support for the disclosure and investigation of crimes: Monograph / V.I.Brylev, N.S.Shevelev, E.V.Kulkova.) URL:https://www.monographies.ru/ru/book/section?id=9240

Mirzayev J.U. Talonchilik jinoyatini ochishning ayrim usullari

Maqolada talonchilik jinoyatini ochishning ayrim usullari, jumladan so'rov va suhbat o'tkazishda e'tibor qaratilishi muhim bo'lgan jihatlar, tergovchi va tezkor xodimlarni talonchilik jinoyatini ochishdagi hamkorligining muhimligi, gumon qilinuvchini so'roq qilishda qo'llash mumkin bo'lgan va natija beruvchi usullar, voqea joylarida amalga oshiri-

ladigan ishlar, shaxsning yolg‘on ishlatayotganligini tezkorlik bilan aniqlash va guruh tomonidan sodir etilgan jinoyatni ochish usuli, sodir etilgan jinoyat bo‘yicha to‘g‘ri tusmol tuzishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: talonchilikni ochish, so‘rov o‘tkazish, yolg‘onni aniqlash, mantiqiy ta’sir, tusmol, voqea joyi, detallashtirish, sheriklar, ko‘rsatmalar.

Мирзаев Ж.У. Некоторые способы раскрыть грабежей

В статье рассматриваются некоторые способы раскрытия преступления грабежа, в том числе аспекты, на которые важно обращать внимание при опросе и собеседовании, важность сотрудничества между следователями и оперативниками в раскрытии преступления грабежа, методы, которые могут быть использованы для допроса подозреваемого, работа проводимая на месте происшествия, метод быстрого обнаружения использования человеком лжи и метод раскрытия преступления, совершенного группой, важность правильного предположения о совершенном преступлении.

Ключевые слова: раскрытие грабежа, дознание, обнаружение лжи, логическое влияние, гипотеза, места происшествия, детализация, партнеры, показания.

Mirzayev J.U. Some ways to reveal the robbery

The article highlights some of the ways in which robbery can be solved, including the importance of co-operation in the investigation of robberies, the ability to interrogate and interrogate suspects, and the ability to interrogate suspects. The method of detection and detection of a crime committed by a group, the importance of drawing up a correct picture of the crime committed.

Key words: robbery detection, interrogation, lie detection, logical influence, hypothesis, scene, detail, partners, instructions.

Исхаков Бахтиёр Тахиржанович,
слушатель Магистратуры Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Вопрос привлечения несовершеннолетних к ответственности за совершенные правонарушения является актуальной и значимой в настоящее время, т.к. система предупреждения, учета и воспитания несовершеннолетних остается приоритетной в Республике Узбекистан и требует своего регулярного совершенствования.

Важно помнить, что правонарушения среди несовершеннолетних создают предпосылки для роста общей преступности и представляют собой резерв для взрослой преступности.

Отмечая важность значения вопроса подрастающего поколения Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев в своём докладе на VIII съезде Движения предпринимателей и деловых людей либерально-демократической партии Узбекистана отметил: «Одной из наших важнейших и актуальных задач является воспитание самостоятельно мыслящей, обладающей современными знаниями и профессиями молодёжи в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

Мы не должны забывать, что каждый из нас несёт ответственность за образование и воспитание детей, чтобы уберечь их от различных угроз и опасностей, таких как наркомания, религиозный экстремизм, миссионерство, а также пагубного влияния «массовой культуры» [1].

В нашей стране обеспечение законных прав и интересов детей и молодежи является приоритетом государственной политики и всегда находится в центре внимания: только в последние два года приняты ряд законов, десятки указов, постановлений Президента и решений правительства, касающихся данной сферы. Учреждены Государственная премия «Мард ўғлон» и медаль «Келажак бунёдкори». Приняты Концепция развития государственной молодежной политики в Узбекистане до 2025 года и «Дорожная карта» по ее реализации. На этой основе проделана большая работа. Начали, в частности, действовать Агентство по делам молодежи и межведомственные советы по вопросам молодежи под председательством Премьер-министра. В Законодательной палате Олий Мажлиса создана Комиссия по вопросам молодежи, сформированы Молодежные парламенты при палатах Олий Мажлиса. Учрежден День молодежи, проводятся форумы и фестивали, которые в короткий срок заняли прочное место в жизни нашего общества.

По данным Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике на состояние 1 октября 2021 года численность населения страны в возрасте от нуля до 18 лет составляет более одиннадцати миллионов людей, что приравнивается почти к одной третьей общей численности постоянного населения страны [2]. Но какое количество и сколько процентов не составляло бы численность детей в Узбекистане, они есть все 100 процентов будущего нашего государства. Всё это ещё раз подтверждает актуальность значения роли подрастающего поколения, необходимости обеспечения защиты прав и законных интересов детей, создания им благоприятных условий для нормальной жизни и развития.

После принятия Конституции Республики Узбекистан продолжением укрепления нормативно-правовой базы в области обеспечения прав и свобод детей явилось присоединение Республики Узбекистан в 1992 году к «Конвенции о правах ребёнка».

Условия и обязанности в области

соблюдения прав и свобод ребёнка, приведённые в Конвенции о правах ребенка в полной мере реализованы в административном и уголовном законодательстве Республики Узбекистан.

Исследуемая тема данной работы как мера административной ответственности, применяемая к несовершеннолетним лицам, представляет собой форму государственного реагирования на административные правонарушения, совершенные лицами, не достигшими совершеннолетия, выраженную в применении к ним конкретных административных мер взыскания, предусмотренных санкциями нарушенных норм органами (должностными лицами), уполномоченными рассматривать дела об административных правонарушениях. При этом, правоприминительная практика показывает, что меры административного взыскания, применяемые к несовершеннолетним лицам, совершившим правонарушения оказывают воспитательное воздействие только тогда, когда они соответствуют требованиям действующего законодательства, отвечают принципам разумности, справедливости и не нарушают прав и законных интересов несовершеннолетних.

Необходимо отметить, что несовершеннолетние как субъекты ответственности обладают особыми признаками в силу своего возраста. Административные правонарушения совершаемые несовершеннолетним обусловлены особенностями его личности, возраста, ценностными ориентациями, установками и целями. В подростковом возрасте в процессе нравственного формирования личности происходит накопление опыта, как положительного, так и отрицательного. Об этом свидетельствует тот факт, что значительная часть правонарушений совершается несовершеннолетними в соучастии со взрослыми. Это оказывает неблагоприятное воздействие на состояние правопорядка в целом, обусловливает необходимость применения мероприятий общего и специального предупреждения.

Отмечая особенности национального законодательства в области административной ответственности несовершеннолетних можно выделить следующие отличительные черты:

а) судебные органы (судьи), а также районные (городские) межведомственные комиссии по делам несовершеннолетних являясь уполномоченными органами по рассмотрению дел об административных правонарушениях несовершеннолетних имеют первостепенной целью обеспечение защиты прав, свобод и законных интересов несовершеннолетних, их социально-педагогическую реабилитацию;

б) административная ответственность в отношении несовершеннолетних носят в большей части воспитательный характер, так как к несовершеннолетним правонарушителям как правило применяются меры воздействия, которые не являются административными наказаниями;

в) целью административной ответственности в отношении несовершеннолетних правонарушителей является применение меньшего объема и степени лишения или ограничения прав и свобод по сравнению со взрослыми правонарушителями;

г) в отношении несовершеннолетних не может применяться мера наказания как административный арест;

д) за совершение административных правонарушений к ответственности помимо несовершеннолетних могут быть привлечены и их родители.

Ещё одной важной особенностью ответственности несовершеннолетних лиц, устанавливаемой Кодексом об административной ответственности (КоАО) Республики Узбекистан, является то, что совершение административного правонарушения несовершеннолетним признается смягчающим вину обстоятельством, а вовлечение такого лица в совершение административного правонарушения – отягчающим вину обстоятельством.

Следует отметить, что меры государственного принуждения в отношении

несовершеннолетних в большей степени, чем административная ответственность взрослых правонарушителей, имеют морально-воспитательные цели, поэтому перевоспитание и исправление правонарушителей возможны и без применения мер административной ответственности.

Говоря об административной ответственности, считаем целесообразным разобраться, что оно в целом представляет собой, так как среди всех, установленных государством видов юридической ответственности, административная ответственность является самым распространенным видом. В отличие от определения административного наказания, административная ответственность представляет собою более широкое понятие, включающее в себя административное наказание как центральный элемент.

Следует обратить внимание на то, что в действующем законодательстве не дается общего определения административной ответственности, несмотря на то, что в статье 10 (Понятие административного правонарушения) КоАО Республики Узбекистан указано, что за совершение административного правонарушения предусмотрена административная ответственность.

В связи с отсутствием законодательного определения понятия административной ответственности возникают споры и дискуссии по данному поводу, относительно его сущности и содержания.

В научной литературе предлагаются ряд определений о понятии административной ответственности. При этом административная ответственность рассматривается как одна из форм юридической ответственности в виде ответственности граждан, должностных и юридических лиц за совершение ими административного правонарушения [3].

Национальные учёные-административисты как И.А.Хамедов, Л.Б.Хван и И.М.Цай исходя из норм КоАО Республики Узбекистан, отмечают, что административная ответственность – это вид юридической ответственности, которую несёт лицо, совершившее правонарушение, что определяет уполномоченный орган либо должностное лицо, причём правонарушение должно быть доказано в установленном законом порядке [4].

В трудах зарубежного учёного-правоведа Л.Л.Попова административная ответственность рассматривается как деятельность, связанная с применением административных наказаний, как специфическая форма негативного реагирования, как разновидность правоотношений [5].

По мнению зарубежного специалиста в области государственного и административного права Д.Н.Бахраха «административная ответственность выражается в ответственности граждан и должностных лиц перед органом государственного управления, а в случаях, предусмотренных законодателем, – перед судом (судьями), общественными организациями за виновное нарушение общественных административно-правовых норм, реализуемой в применении к нарушителям установленных санкций» [6].

Как отметил зарубежный ученый А.Б.Агапов «административная ответственность – это мера публичного воздействия, применяемые к лицу, виновному в совершении административного правонарушения, ограничивающие имущественные (неимущественные) права нарушителя либо устанавливающие его дополнительные обязанности» [7].

Исходя из вышесказанного, можно сделать вывод, что одни учёные рассматривают административную ответственность прежде всего, как меру государственного принуждения, основанную на осуждении правонарушителя, другие – как общественное отношение между государством, в лице его уполномоченных органов, и правонарушителем, а третьи – как применение к лицам, совершившим правонарушения мер принуждения в установленном процессуальном порядке.

Резюмируя мнения национальных и зарубежных учёных, полагаем определить понятие «административной ответ-

ственности» в качестве итогового как вид юридической ответственности, которая выражается в применении государственными органами, должностными лицами и представителями власти установленных мер воздействия принудительного характера, предусмотренного санкциями правовых норм административного законодательства, охраняющих определенные виды общественных отношений в отношении субъекта, подлежащего административной ответственности за совершение противоправного деяния в виде действия или бездействия.

Помимо КоАО Республики Узбекистан к основным нормативным актам, регулирующим административную ответственность несовершеннолетних также относятся Закон Республики Узбекистан от 29 сентября 2010 года «О профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних» и Положение о межведомственных комиссиях по делам несовершеннолетних, утвержденного постановлением Президента Республики Узбекистан от 14 марта 2017 года № ПП-2833 и ряд других нормативных актов.

В целях повышения значимости и систематизации нормативного закрепления административной ответственности несовершеннолетних, а также его дальнейшего совершенствования считаем целесообразным в КоАО Республики Узбекистан включить отдельную главу «Административная ответственность несовершеннолетних», которая раскрывала и включала бы в себя:

- понятие и цели административной ответственности несовершеннолетних;
- функции государственных органов и правомочных субъектов административной юрисдикции в области привлечения к ответственности несовершеннолетних;
- обстоятельства, смягчающие и отягчающие административную ответственность несовершеннолетних;
- порядок освобождения несовершеннолетних от административной ответственности;
- возможность назначения мер воспитательного воздействия, таких как разъяснение закона, возложение обязанности загладить причиненный вред или ограничение досуга и установление особых требований к поведению несовершеннолетнего;
- условия жизни и воспитания, особенности психологического и возрастного развития несовершеннолетнего при назначении административного наказания.

Проанализировав законодательную политику Республики Казахстан в области установления административной ответственности вообще, и в части административной ответственности несовершеннолетних было установлено, что отличительной особенностью данной области является регламентация отдельной главы (глава 9) в **Кодексе** Республики Казахстан **об административных правонарушениях**, посвященной исключительно регулированию административной ответственности несовершеннолетних. Данная глава включает в себя восемь статей, которые в совокупности фиксируют вопросы применения административных наказаний к рассматриваемой категории лиц, а также отражают условия освобождения от административной ответственности.

Вместе с тем, следует подчеркнуть, что законодатель Республики Казахстан идет по пути гуманизации правовых положений, затрагивающих смягчение не только наказаний, но также и общеправовых последствий, а именно: несовершеннолетний считается подвергнутым административному наказанию в течение шести месяцев, что является вполовину сокращенным, устанавливаемым по общему правилу.

Административная ответственность несовершеннолетних согласно Кодексу Республики Беларусь об административных правонарушениях также регламентируется отдельной главой (глава 9) и включает в себя шесть статей. В ней

также можно наблюдать более гуманный, по сравнению со взрослыми, режим ответственности.

Так, согласно статье 9.2. настоящего Кодекса при наложении административного взыскания на лицо, совершившее административное правонарушение, в возрасте от четырнадцати до восемнадцати лет кроме смягчающих и отягчающих ответственность обстоятельств, предусмотренных соответствующими статьями, учитываются:

1) условия его жизни и воспитания;

2) уровень его интеллектуального, волевого и психического развития, иные особенности личности несовершеннолетнего;

3) влияние на его поведение родителей или лиц, их заменяющих, а также близких родственников, членов семьи и иных старших по возрасту лиц;

4) характеристика по месту его учебы и (или) работы (при ее наличии).

Ещё одна особенность административного законодательства Белоруссии в отношении несовершеннолетних это применение в целях воспитания мер воспитательного воздействия, таких как:

1) разъяснение законодательства;

2) возложение обязанности принести извинения потерпевшему;

3) возложение обязанности загладить причиненный вред;

4) ограничение досуга.

Развивая вопрос административной ответственности несовершеннолетних, отметим, что в статье 14 (Ответственность несовершеннолетних за административные правонарушения) КоАО Республики Узбекистан указаны нормы, за нарушения которых несовершеннолетний привлекается к административной ответственности на общих основаниях. Также статья предусматривает, что с учетом характера совершенного правонарушения и личности правонарушителя дела в отношении указанных лиц (за исключением лиц, совершивших правонарушения, предусмотренные статьями 194 и 194[1] настоящего Кодекса) могут быть переданы на рассмотрение районных (городских) межведомственных комиссий по делам несовершеннолетних.

Так, согласно требованиям норм КоАО Республики Узбекистан, а также Положению о межведомственных комиссиях по делам несовершеннолетних, утвержденного постановлением Президента Республики Узбекистан от 14 марта 2017 года № ПП-2833 районные (городские) межведомственные комиссии по делам несовершеннолетних наделены полномочиями административно-юрисдикционного производства.

Однако, по нашему мнению, перечень норм в КоАО, предусматривающие ответственность несовершеннолетних нуждается в пересмотре с целью точного указания подведомственности рассмотрения тех или иных правонарушений, в не зависимости от характера совершенного правонарушения и личности правонарушителя. Данный подход позволил бы пресечь случаи волокиты при определении органа (должностного лица), уполномоченного рассматривать дела об административных правонарушения в отношении несовершеннолетних.

Таким образом, проведенные исследования показали, что административная ответственность несовершеннолетних характеризуется рядом особенностей, которые обусловливают необходимость их учета в правоприменительной практике.

Так, учёт данных предложений при внесении изменений в законодательство Узбекистана в будущем, позволил бы решить ряд теоретических и практических проблем привлечения к административной ответственности несовершеннолетних, повысить уровень защиты прав несовершеннолетних и создать предпосылки для профилактики правонарушений в целом.

Использованная литература

1. Мирзиёев, Ш.М. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе / Ш.М. Мирзиёев. - Т.: Узбекистан, 2018. – 73 с.
2. Численность постоянного населения по возрастным группам [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demography. – Дата обращения: 06.12.2021.
3. Барихин, А.Б. Большая юридическая энциклопедия. (Серия «Профессиональные справочники и энциклопедии») / А.Б. Барихин. - М.: Книжный мир, 2010. – 15 с.
4. Хамедов, И.А. Административное право Республики Узбекистан. Общая часть. / И.А. Хамедов, Л.Б. Хван, И.М. Цай. - Т.: Konsauditinform-Nashr, 2021. – 355 с.
5. Попов, Л.Л. Административное право Российской Федерации. / Л.Л. Попов. - М.: 2011. – 10 с.
6. Бахрах, Д.Н. Административное право России. / Д.Н. Бахрах. - М.: Эксмо, 2010. – 700 с.
7. Агапов, А.Б. Административная ответственность: учебник для магистров. 5-е изд., пер. и доп. / А.Б.Агапов. - М.: Юрайт, 2015. – 494 с.

Исхаков Б.Т. Понятие и особенности административной ответственности несовершеннолетних

Статья посвящена проблемным аспектам административной ответственности и особенности административно-правового статуса несовершеннолетних. На основе проведенного исследования приводится итоговое подходящее по мнению автора определение понятия административная ответственность, а также обосновывается необходимость внесения некоторых изменений в отдельные части административного законодательства, регламентирующие административную ответственность несовершеннолетних.

Ключевые слова: несовершеннолетние лица, административная ответственность, административное правонарушение, межведомственные комиссии по делам несовершеннолетних.

Isxakov B.T. Voyaga yetmaganlar ma'muriy javobgarligining tushunchasi va xususiyatlari

Ushbu maqola voyaga yetmagan shaxslarning ma'muriy-huquqiy maqomining xususiyatlari va ma'muriy javobgarligining muammoli jihatlariga bag'ishlangan. Olib borilgan izlanishlar asosida muallif ma'muriy javobgarlik tushunchasiga o'rinli bo'lgan umumiy ta'rifni keltirgan hamda voyaga yetmaganlarning ma'muriy javobgarligini belgilovchi ma'muriy qonunchilikning ayrim qismlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha takliflarini asoslab bergan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmagan shaxslar, ma'muriy javobgarlik, ma'muriy huquqbuzarlik, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar.

Isxakov B.T. Concept and features of administrative responsibility of minors

The article deals with the problematic aspects of the administrative responsibility and features of the administrative and legal status of minors. On the basis of the research a general definition of the concept of administrative responsibility suitable in the opinion of the author is given and also substantiates the need to make some changes to certain parts of the administrative legislation governing the administrative responsibility of minors.

Key words: minor, administrative responsibility, administrative offense, the interdepartmental commissions on affairs of minors.

Ibrohimov Jamshid Abdug'ofur o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi (DSc),
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

AYRIM TERRORCHILIK XUSUSIYATIDAGI JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK BELGILANGAN JINOYAT QONUNI NORMALARINING GENEZISI

Terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonunlarning rivojlanish tarixi terrorizm tarixi bilan chambarchas bog'liq. Dunyo tarixida dastlab "terrorchi" degan so'z paydo bo'lgan. Buyuk fransuz inqilobi davrida (XVIII asr oxiri) undan foydalanishgan. Fransuzcha lug'atga ko'ra, yakobinlar bu tushunchani ko'pincha og'zaki va yozma ravishda o'zlariga nisbatan, har doim ijobiy ma'noda ishlatganlar. Biroq, Buyuk Fransuz inqilobi davomida, Qayta tiklash davrida va keyinchalik "terrorchi" so'zi barqaror salbiy ma'noga ega bo'ldi, haqoratli bo'lib, "jinoyatchi"ning sinonimiga aylandi [1].

Ushbu atamalar mazkur davrda kengroq yoyildi hamda "qo'rquvga asoslangan boshqaruv tizimi" [2] ni anglata boshladi. Adabiyotlarda ta'kidlanganidek, "terror" atamasini birinchi bor Arastu qadimgi yunon teatrlaridagi tragediyalarda tomoshabinlarning his-tuyg'ulariga ta'sir etish maqsadida "qo'rqinch" [3] ma'nosida qo'llaydi.

Boshqa manbalarga ko'ra, "terror" tushunchasi ilk marotaba Qadimgi Rimda paydo bo'lgan [4]. Yana bir guruh tadqiqotchilar terrorizm o'tgan asrning oxirida paydo bo'lgan mutlaqo yangi hodisa [5], deb yozadilar. Boshqa bir nazariyaga ko'ra, birinchi terrorchilar o'tgan asrning 60-yillarida Falastinda faoliyat yuritgan "Shilot Sikari" uyushgan sektasining a'zolari bo'lgan. Sikariylar kun davomida shahar gavjum paytda, aksariyat hollarda bayramlarni nishonlash vaqtida Quddusga hujum qilishgan. Sikariylar foydalanadigan qurol "sika" deb ataluvchi xanjar (kalta qilich) bo'lgan. Ular olomon ichida kimning hujum qilayotganligini ko'rish qiyinligini bilishgan va qotil ko'p hollarda noma'lum bo'lib qolavergan. Sikariylar rimliklar va ular bilan hamkorlik qilgan yahudiy zodagonlariga qarshi kurashgan. Sikariylar o'z rahnamolari tomonidan ishlab chiqilgan "to'rtinchi falsafa" ta'limotiga qat'iy amal qilganlar [6].

A.K.Zakurlayev yozishicha esa, "terrorizm" so'zi birinchi marta 1793-1794 yillarda Fransiya inqilobi davrida amaliyotga kiritilgan. O'sha paytda ushbu atama ko'proq hozirgi ma'nodan farq qiluvchi ijobiy ma'noni anglatib, terror tizimi yoki rejimi respublikaning islohotlar o'tkazish bo'yicha ta'sirchan vositasi sifatida inqilobga qarshi kuchlarni dahshatga solishga qaratilgan sa'y-harakatlarning majmui sifatida tushunilgan [7].

Terrorchilik xususiyatiga ega yana bir jinoyat – garov sifatida tutqunlikka olish jinoyati ham o'ziga xos rivojlanish tarixiga ega. Xususan, qadim zamonlarda, harbiy harakatlar paytida asirlarni qo'lga olish qonuniy hisoblangan. Tinchlik davrida garovga olganlik uchun javobgarlik shariat me'yorlari bilan tartibga solingan, islom qabul qilinishidan oldin esa "Avesto"da bunday harakatlarga nisbatan taqiq nazarda tutilgan. Avesto va zardushtiylik ta'limotida insonning shaxsiy erkinligini himoya qiluvchi normalar alohida o'rin tutadi. Xususan, "Avesto"da asir olish taqiqlanadi hamda ayollar va bolalarning garovga tushishi yer yuzidagi baxtsizlik deb baholanadi [8]. "Avesto" erkin kishining qulga aylantirilishini to'g'ridan-to'g'ri taqiqlamaydi, lekin ozod va erkin shaxsni insonparvarlik bo'lmagan holda qulga aylantirishni man etadi. Shu bilan birga, "Avesto" asir olingan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va ularga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni nazarda tutadi.

Sobiq Ittifoq davrida 1917 yilgi inqilobdan so'ng sovet tuzumiga qarshi bo'lgan ko'plab jinoiy guruhlar vujudga kelib, ularning asosiy maqsadi mamlakat rahbariyati hayotiga tajovuz qilishdan iborat bo'lgan. Bunday jinoiy guruhlar faoliyati davomida ko'plab davlat va jamoat arboblari hayotiga

zomin bo'lgan [9].

Sobiq SSSR tashkil topganidan so'ng, 1922 yil dekabrda inqilobga qarshi jinoyatlar bilan kurashishga qaratilgan umumittifoq jinoyat-huquqiy hujjatini qabul qilish zarurati tug'ildi. Shu munosabat bilan 1924 yil 31 oktabrda "SSSR va ittifoqchi respublikalar jinoyat qonunchiligi asoslari" qabul qilindi.

1958 yil 25 dekabrga kelib, SSSR Oliy Soveti tomonidan "Davlatga qarshi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilingunga qadar davlatga qarshi o'ta xavfli jinoyatlar tushunchasi o'rniga inqilobga qarshi jinoyatlar tushunchasi qo'llanilgan.

Ta'kidlash zarurki, mazkur davrda amal qilgan jinoyat qonuni normalarida muayyan bo'shliqlar mavjud bo'lgan. Ushbu bo'shliqlar yuqorida ko'rsatilgan 1958 yilgi qonun qabul qilinishi bilan o'z yechimini topgan. Ushbu Qonunda ilk marotaba terrorizm jinoyatining obyektiv tomoni batafsil tahlili bilan mustahkamlangan.

Terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik O'zbekiston SSRning 1958 yil 21 mayda qabul qilingan Jinoyat kodeksida ham belgilangan [10]. Xususan, ushbu Kodeksning 56-moddasida "Terroristik akt", ya'ni, sovet hokimiyatiga zarba berish yoki uni zaiflashtirish maqsadida davlat yoki jamoat arbobini yoki hokimiyat vakilini uning davlat yoki jamoat faoliyati munosabati bilan o'ldirish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. O'z davrida professor G'.A.Abdumajidov ushbu moddani sharhlar ekan, terroristik akt Sovet hokimiyatiga qarshi qaratilgan alohida xavfli jinoyat bo'lib, davlat va jamoat arboblarini yovuzlarcha o'ldirish, ularning badaniga og'ir shikast yetkazish tarzida sodir etilishiga e'tibor qaratadi [11].

Ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda jahon miqyosida terrorizm xavfining tobora kuchayib borayotganligi, milliy xavfsizligimizni mustahkamlash borasida uning yangidan-yangi ko'rinishlariga qarshi kurashish bo'yicha jinoyat-huquqiy normalarni takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bu borada M.Yu.Dvoredskiy ta'kidlaganidek, yaxshi tashkillashtirilgan va xalqaro ko'rinishga ega bo'lgan faol terroristik faoliyat sharoitida u bilan kurashni maqbullashtirish uchun butun huquqiy vositalardan foydalanish muhimdir [12]. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan holda A.S.Mayakova va S.A.Shelepovalar terroristik yo'nalishdagi jinoyatlarga qarshi kurash sohasida yangi ijtimoiy xavfli qilmishlarni kriminalizatsiya qilish jarayoni faollashayotganligini qayd etadi. Xususan, muallifning yozishicha, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat qonuniga 2013-2016 yillar davomida 5 ta terrorizm bilan bog'liq jinoyatlar, shu jumladan, xalqaro terroristik faoliyatni amalga oshirish hamda terroristik yo'nalishdagi jinoyatlar haqida xabar bermaslik uchun javobgarlik belgilandi [13].

S.Fayziyev va A.Isadjanovlar yozishicha, dunyoda hozirgi kunda 500 dan ortiq terrorchilik tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda [14], bu esa, ularga qarshi izchil kurash olib borishni, shu jumladan, jinoyat qonunchiligini uzluksiz takomillashtirib borishni taqozo etadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida terrorizm sohasidagi jinoyatlar tizimi ham izchil takomillashib bormoqda. Bu avvalo, ushbu sohadagi jinoiy qilmishlar doirasi va turi tobora kengayib, murakkablashib borayotganligi bilan izohlanadi. Masalan, 1994 yilda Jinoyat kodeksi (keyingi o'rinlarda – JK) qabul qilingan vaqtda unda terrorizmga oid 155-modda bo'lgan bo'lsa, so'nggi yillarga kelib mazkur sohadagi jinoyatlar tarkibi quyidagilar qo'shilishi evaziga sezilarli darajada kengaydi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 82-II-son Qonuniga asosan Jinoyat kodeksi bakteriologik, kimyoviy va boshqa xil yalpi qirg'in qurollari turlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, to'plash, olish, birovga o'tkazish, saqlash, qonunga xilof ravishda egallash va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi 255^1-modda bilan to'ldirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 20 yanvardagi O'RQ-365-sonli "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni asosida

O‘zR JK 155^1 va 155^2-moddalar bilan to‘ldirilganligi terrorizm jinoyatlariga qarshi kurashish borasidagi huquqiy asoslar yanada takomillashtirildi:

Birinchidan, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik uchun javobgarlik O‘zR 2014 yil 20 yanvardagi O‘RQ-365-son Qonuniga muvofiq 155^1-modda sifatida kiritilgan.

JK 155^1-moddasi **tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik** uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi. Ushbu moddaga o‘tgan yillar davomida ikki marotaba – 2015 yil 10 avgustdagi O‘RQ-389-sonli Qonun bilan ozodlikni cheklash tariqasidagi jazo kiritilganligi munosabati bilan uning sanksiya qismiga ham tegishli tuzatishlar kiritildi. Shuningdek, 2016 yil 25 apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonun bilan JK 155^3-modda (“Terrorizmni moliyalashtirish”) bilan to‘ldirilganligi munosabati bilan 155^1-modda dispozitsiya ham ushbu jinoyat to‘g‘risida xabar bermaganlik jinoyat deb e’tirof etildi.

JK 155^1-moddasida taqiqlangan tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik jinoyati JK 155, 155^2, 155^3, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255^1 va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan, dastlabki tergov hamda sud muhokamasi materiallari bilan isbotlangan, aniq ma’lum bo‘lgan tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat to‘g‘risida xabar qilmaslik orqali amalga oshiriladi.

Qayd etish lozimki, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik jinoyati (JK 155^1-moddasi) esa, JK 31-moddasida belgilangan jinoyatga daxldorlik instituti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bunda shaxs aniq turdagi jinoyatlarga (JK 155, 155^2, 1553, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255^1 va 264-moddalari) tayyorgarlik ko‘rilayotganligi, jinoyat sodir etilayotganligi yoki jinoyat sodir etilganligi haqida aniq bila turib, oldindan va’da bermagan holda, hokimiyat organlariga xabar qilmaslikni ko‘zda tutadi. JK 241-moddasida belgilangan jinoyat haqida xabar bermaslik yoki uni yashirish jinoyati hamda JK 155^2-moddasida belgilangan tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar va faktlarni xabar qilmaslik jinoyatlari turdosh tarkibli jinoyatlar bo‘lib, qilmishni JK 155^2-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uni qo‘shimcha ravishda JK 241-moddasi bilan ham kvalifikatsiya qilishni istisno qiladi. Bunda 155^1-moddaning kiritilishi terrorchilik xususiyatiga ega bo‘lgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi hamda ularni alohida jinoyat sifatida belgilash zaruriyati vujudga kelishi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish O‘R 2014 yil 20 yanvardagi O‘RQ-365-son Qonuniga muvofiq 155^2-modda sifatida kiritilgan. Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘zda tutilgan harakat uncha og‘ir bo‘lmagan va ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmish og‘ir jinoyatlar toifasiga kiradi.

Terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydigan JK 155^2-moddasiga binoan, shaxsning terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud JK 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255^1 va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o‘tkazilayotganligi o‘zi uchun ayon bo‘lgan o‘quvdan o‘tishi, shu jumladan mazkur jinoyatlarni sodir etish bilimini, amaliy mahoratini va ko‘nikmalarini egallashi, o‘quv chog‘ida qurol-yarog‘, portlatish qurilmalari, portlovchi, zaharlovchi, atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o‘rganishi jinoiy javobgarlikni qo‘llash uchun asos bo‘ladi.

Ushbu moddaga O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 25 apreldagi O‘RQ-405-sonli Qonuni bilan qo‘shimcha kiritilgan. Unga qadar terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish jinoyat bo‘lgan bo‘lsa, endilikda shu maqsadda, chi-

qish yoki harakatlanish ham jinoyat deb tan olindi. Tegishincha, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish jinoyat deb e’tirof etildi.

Shuningdek, ushbu modda yangi ikkinchi qism bilan to‘ldirilib, unda terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o‘quvdan o‘tish yoki terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish maqsadida shaxslarni yollash – sakkiz yildan o‘n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi belgilandi.

Ushbu qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikning belgilanishi hozirgi vaqtda butun jahon miqyosida tobora xavfli tus olib borayotgan terrorizm bilan bog‘liq xavfli jinoiy qilmishlarni o‘z vaqtida aniqlash, oldini olish, ularga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy vositalarini takomillashtirishga va pirovardida mamlakatimizda xavfsizlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 155^2-moddasida jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o‘quvdan o‘tish, chiqish yoki harakatlanish jinoyati quyidagi usullarda amalga oshiriladi: shaxsning terrorchilik faoliyatini amalga oshirish yoxud JK 155, 158, 159, 161, 242, 245, 254, 255^1 va (yoki) 264-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlardan birini sodir etish maqsadida o‘tkazilayotganligi o‘zi uchun ayon bo‘lgan o‘quvdan o‘tishi, shu jumladan mazkur jinoyatlarni sodir etish bilimini, amaliy mahoratini va ko‘nikmalarini egallashi, o‘quv chog‘ida qurol-yarog‘, portlatish qurilmalari, portlovchi, zaharlovchi, atrofdagilar uchun xavf tug‘diradigan boshqa moddalar va buyumlar bilan muomala qilish usullarini o‘rganishi, shuningdek terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishi yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishi; terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun o‘quvdan o‘tish yoki terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketish yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanish maqsadida shaxslarni yollash.

Uchinchidan, terrorizmni moliyalashtirish uchun jinoiy javobgarlik O‘zR 2016 yil 25 apreldagi O‘RQ-405-son Qonuniga muvofiq 155^3-modda sifatida kiritilgan. Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘zda tutilgan harakat og‘ir va ikkinchi qismida nazarda tutilgan qilmish o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiradi.

JK 155^3-moddasiga muvofiq, terrorizmni moliyalashtirish quyidagi usullarda amalga oshiriladi: terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, faoliyat ko‘rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta’minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat.

Ayni damda O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabrdagi 167-II-son “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuniga binoan, terrorizmni moliyalashtirish – terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, faoliyat ko‘rsatishini, moliyalashtirilishini, terrorchilik faoliyatida ishtirok etish uchun xorijga chiqib ketishni yoki O‘zbekiston Respublikasi hududi orqali harakatlanishni ta’minlashga, terrorchilik harakatini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘-vositalarni, resurslarni berishga yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi.

Ta’kidlash lozimki, 2016 yil 25 apreldagi O‘RQ-405-son Qonun bilan JK 155^3-modda bilan to‘ldirilishi munosabati bilan terrorizm tushunchasi ham o‘zgardi. Endilikda terrorizm tushunchasidan “terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishini, moliyalashtirilishini ta’minlash”, “ter-

rorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yoxud terrorchilik faoliyatiga ko'maklashayotgan yoki bunday faoliyatda ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag'-vositalar va resurslar berish yoki yig'ish, boshqa xizmatlar ko'rsatish" bo'yicha faoliyatlar chiqarildi hamda hozirda ular bilan bog'liq bo'lgan barcha harakatlar JK 155^3-moddasi ("Terrorizmni moliyalashtirish") bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Shu o'rinda terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurash samaradorligini yanada oshirish, bu borada yagona huquqni qo'llash amaliyotini shakllantirish, shuningdek ayrim terrorchilik xususiyatidagi jinoyatlarni bajarishda uning turdosh jinoyatlardan farqli jihatlarni ajratish maqsadida terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarga oid sud amaliyotiga bag'ishlangan Oliy sud Plenumining alohida qarorini qabul qilish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Помазан С.В. Уголовно-правовые и криминологические аспекты противодействия терроризму: Дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2001. – С.13.

2. Мирзоахмедов Ф.А. Уголовная ответственность за терроризм по законодательству Республики Таджикистан и Российской Федерации (сравнительно-правовое исследование): Дисс. ... канд. юрид. наук. – М.: Академия Генеральной прокуратуры РФ, 2016. – С.15.

3. Ғарб фалсафаси / Қ.Назаров таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2004. –Б.166.; Метелев С.Е. Современный терроризм и методы антитеррористической деятельности: Монография. – Омск, 2008. – С.7.

4. Terrorism: theory and practice. – New York, 1999; International terrorism in the contemporary world. – London, 1998. – P.1.

5. Политов С.И. Современный международный терроризм как угроза национальной безопасности России: Дисс. ... канд. полит. наук. – М., 2007. – С.19.

6. Laqueur W. Terrorism. – London: Weidenfeld and Nicolson, 2007. – P.5.

7. Закурлаев А.К. Терроризмга қарши курашнинг криминалистик жиҳатлари: Юрид. фан. докт. (DSc) ... дисс. – Тошкент: Ҳарбий-техник институт, 2018. – Б.18-19.

8. Халиков А.Г. Правовая система зороастризма (древнее право). Душанбе, 2005г.- С. 336.

9. Абдурахманов С.Т. Уголовная ответственность за терроризм по законодательству Республики Казахстан: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Бишкек, 2005. – С.18.

10. Уголовный кодекс Узбекской ССР: Принят II сессией Верховного Совета УзССР пятого созыва, 21 мая 1959 года / Сост. Г. Абдумажидов. – Ташкент: Узбекистан, 1988. – 207 с.

11. Ўзбекистон ССР Жиноят кодексига шарҳлар. Масъул муҳаррир: проф. Ғ.А.Абдумажидов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1988. – Б.157.

12. Дворедцкий М.Ю. Ответственность за преступления террористической направленности: вопросы теории и правоприменительной практики // Вестник ТГУ. – Тамбов, 2010. – №12 (92). – С.305.

13. Маякова А.С., Шелепова С.А. Борьба с терроризмом: новое в российском уголовном законодательстве // Социально-политические науки. – Москва, 2017. – №5. – С. 148.

14. Файзиев С., Исаджанов А. Проблемы борьбы с международным терроризмом в условиях глобализации // Фалсафа ва ҳуқуқ. 2006. №3.–С.76.

Ibrohimov J.A. Ayrim terrorchilik xususiyatidagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining genezisi

Maqolada terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarining genezisi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar to'g'risida O'zbekiston hududida amal qilgan tarixiy huquqiy hujjatlar o'rganilgan. Maqolada amalga oshirilgan tahlillar natijasi bo'yicha terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar uchun javobgarlik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: terrorizm, terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar, jinoiy javobgarlik, jinoyat qonuni genezisi, tinchlik va insoniyat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi.

Иброхимов Ж.А. Генезис уголовно-правовых норм определяющих ответственность за отдельные террористические преступления

В статье анализируется научно и теоретически генезис нормы уголовного права, определяющей ответственность за преступления террористического характера. Изучены исторические правовые документы на территории Узбекистана по террористическим преступлениям. В результате проведенного в статье анализа были выработаны предложения по совершенствованию механизма ответственности за преступления террористического характера.

Ключевые слова: терроризм, преступления террористического характера, уголовная ответственность, генезис уголовного права, безопасность мира и человека, общественная безопасность.

Ibrokhimov J.A. The genesis of criminal law norms determining responsibility for certain terrorist crimes

The article analyzes scientifically and theoretically the genesis of the norm of criminal law, which determines responsibility for crimes of a terrorist nature. The historical legal documents on the territory of Uzbekistan on terrorist crimes have been studied. As a result of the analysis carried out in the article, proposals were developed to improve the mechanism of responsibility for crimes of a terrorist nature.

Key words: terrorism, crimes of a terrorist nature, criminal liability, the genesis of criminal law, security of the world and man, public security.

Ibragimov Suxrob Muxiddinovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura fakulteti tinglovchisi;
Kenjayev Umid Jo'raboyevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura fakulteti tinglovchisi

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIGIDA QONUNIYLIK TALABLARINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida huquqiy tus beruvchi, davlat va huquqning o'zaro bog'liqligida ifodalanadigan huquqiy hodisa sifatida ijtimoiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy normalar qoida-talablari, ko'rsatmalarini aniq va og'ishmay bajarishlarini, ularga amal qilishlarini nazarda tutadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 14-moddasida «Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi» deb mustahkamlangan bo'lsa, uning 15-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar» [1] deya belgilangan.

O'zbekiston davlat boshqaruvining muhim sohalari hisoblangan madaniy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot tarzining isloh qilish, jamiyatda huquq tartibotni ta'minlash, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish va huquqiy madaniyatini shakllantirish bilan bir qatorda, aholining turli xil tahdidlardan, nohaqliklardan va zo'ravonliklardan himoya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida «Dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlar yaqin-uzoq mintaqalarda kuzatilayotgan ziddiyat va to'qnashuvlar sharoitida biz yurtimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada jadallashtirishimiz lozim.

Shuningdek, jamoat xavfsizligini ta'minlash, har bir mahallada xavfsiz muhit yaratish bo'yicha yangicha yondashuvlar joriy etiladi. Huquq-tartibot idoralarini aholi osoyishtaligi va fuqarolar manfaatlarining chinakam himoyachisiga aylantirishga qaratilgan islohotlarimiz izchil davom ettiriladi»[2] deb ta'kidlab o'tilgan edi.

Albatta, huquq-tartibot idoralarining faoliyati inson va jamiyat farovonligi yo'lida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlash, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarning o'z vaqtida va obyektiv ko'rib chiqish, shuningdek bunday huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalash kabi qonunchilikda belgilangan vazifalarni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligida belgilangan talablarning bajarilishini ta'minlash davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashdagi, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilishdagi eng muhim va ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashda mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va Ichki ishlar organlarining bevosita faoliyatiga bog'liq bo'lib, ushbu organlar harbiy xizmatchilari va xodimlarining o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasining Kon-

stitutsiyasi va qonunchilik hujjatlari talablariga og‘ishmay rioya etishlari hamda ularni bajarishlarini talab etadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktabrdagi O‘RQ-575-son «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi [3] qonuniga asosan O‘zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 941-modda. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablarini bajarmaslik» hamda 95^1-modda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) o‘z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko‘rsatish» mazmundagi moddalar bilan to‘ldirilib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) huquqbuzarliklarni to‘xtatish, hujjatlarni tekshirish uchun taqdim etish, ko‘rsatilgan muddatda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga (huquqni muhofaza qiluvchi organlarga) borish yoki O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarida (huquqni muhofaza qiluvchi organlarda) hozir bo‘lish to‘g‘risidagi qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik, transport vositasini to‘xtatish, jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatish haqidagi qonuniy talablarini bajarmaslik yoxud O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablariga boshqacha tarzda bo‘ysunmaslik uchun hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) o‘z xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq qonuniy talablarini bajarmaslikka omma oldida har qanday shaklda da’vatlar qilish, xuddi shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilariga (xodimlariga) ommaviy ravishda bo‘ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida bila turib soxta uydirmalarni tarqatishga oid huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik belgilandi.

O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablari deganda nimani tushunish lozim degan o‘rinli savol tug‘iladi. Ta’kidlash lozimki, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikda mustahkamlangan «qonuniy talablar» O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida belgilangan «qonuniylik» kabi asosiy prinsip qoida va talablaridan kelib chiqib, qonunchilikda belgilangan umummajburiy davlat ko‘rsatmalariga aniq rioya etish va ularning talablarini bajarish shartligida ifodalanadi.

Xususan Milliy gvardiya organlari tomonidan jamoat joylarida huquqiy tartibotni ta’minlashda, huquqbuzarlar tomonidan mayda bezorilik kabi huquqbuzarliklar sodir etish holatlari kuzatilmoqda, tabiiyki u yerda xizmat o‘tayotgan Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi yoki xodimi, mazkur huquqbuzarlikni bartaraf etish bo‘yicha huquqbuzarlikni to‘xtatish, cheklash va huquqbuzarga nisbatan chora ko‘rish kabi harakatlarini bajarish davomida, huquqbuzarlar tomonidan Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi yoki xodimining qonuniy talablarini bajarmasligi, hamda ko‘p hollarda faol qarshilik ko‘rsatishi kabi holatlari sodir etilmoqda, Qonunchiligimizda Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi yoki xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik kabi, huquqbuzarliklar asosan MJtKning 183 va 187 moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklar bilan bevosita bog‘liq holda sodir etiladi, ushbu holatda huquqbuzarga nisbatan MJtKning 194^1 moddasi bilan birga, 183 va 187 moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarlik uchun ham ma’muriy bayonnoma tuzulib sudga yuborilishi kerak, biroq MJtKning 248^1moddasiga asosan Milliy gvardiya organlariga MJtKning 183 va 187 moddalarida ko‘rsatilgan huquqbuzarlik uchun bayonnoma tuzish vakolati berilmaganligi sababli amaliyotda ayrim muammolar kelib chiqmoqda.

O‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, “mayda bezorilik” va “jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste’mol qilish” kabi huquqbuzarliklar aksariyat hollarda jamiyatda o‘rnatilgan tartib qoidalarni namoyishko-

rona mensimaslik alomatlarida sodir etilmoqda, qonunchilikda ichki ishlar organlari xodimlari va Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi va xodimining jamoat tartibini ta'minlash kabi xizmat vazifasini bajarishi davomida, "mayda bezorilik" va "jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish" kabi huquqbuzarliklarni aniqlaganda huquqbuzarlar tomonidan, huquq tartibotni ta'minlash organlarining qonuniy talablarini bajarmasligi, yoxud qarshilik ko'rsatishi sodir etilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, amaliyotda Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi yoki xodimining qonuniy talablarini bajarmaganligi uchun, MJtKning 1941 moddasi bilan kvalifikatsiya qilishda, huquqbuzarning harakatlarida "mayda bezorilik" hamda "jamoat joylarida alkogol mahsulotini iste'mol qilish" kabi huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, MJtKning 194[1] moddasiga qo'shimcha ravishda, MJtKning 183 va 187-moddalari bilan ham malakalanishi kerak, lekin bu huquqbuzarliklar uchun Milliy gvardiya organlarida vakolat yo'qligi sababli huquqbuzarlar majburiy tarzda ichki ishlar organlariga chora ko'rishlik uchun olib borilmoqda, bu esa o'z-o'zidan fuqarolarni sarson bo'lishiga, organlar o'rtasida sansalarlikka yo'l qo'yilishiga, muddatlar buzilishiga, aniqlagan yoki barham berilgan huquqbuzarlik bo'yicha Milliy gvardiya mehnat samaradorligi hisobotlarida natijalarning ko'rinmaslik kabi holatlar kuzatilmoqda.

Shu bilan birga amaliyotda huquqbuzar jamoat tartibini buzish bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi MJtKning 194–moddasi bilan javobgarlikka tortilib, huquqbuzar, mazkur harakatini bir yil davomida Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining qonuniy talablarini bajarmaganlik yoki qarshilik ko'rsatganligi kabi huquqbuzarlikni sodir etilganda, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 194[1]-moddasi ikkinchi qismi bilan emas, balki birinchi qismi bilan malakalashni nazarda tutmoqda, biroq ushbu huquqbuzarlikni kvalifikatsiya qilish masalasiga mantiqan yondashilganda, ushbu huquqbuzarlik takroran sodir etilganlik deb topilib ikkinchi qismi bilan malakalanishi kerak. Chunki ushbu huquqbuzarlik ichki ishlar organi xodimi yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ga qarshilik ko'rsatish emas, balki jamoat xavfsizligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan shaxsning qonuniy talabini bajarmaslikda namoyon bo'lmoqda.

Buning uchun MJtKning 194 –moddasi bilan MJtKning 1941 moddasi talablari yagona bir normada ifodalanib, ichki ishlar organlari xodimining qonuniy talablarini bajarmaganlik uchun jazo chorasi qo'llanilgandan kiyin, bir yil davomida Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning qonuniy talablarini bajarmagan huquqbuzarning harakati, takroran sodir etilganlik deb topilib, ushbu moddaning ikkinchi qismi bilan kvalifikatsiyasi qilish orqali, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan shaxsni qonuniy jihatdan himoyalanganligini va huquqni to'g'ri qo'llashga erishiladi.

Bizning fikrimizcha O'zbekiston Respublikasi MJtKning 194 va 1941 moddalarini va 195-moddasiga esa 1951 moddasi talablarini yagona bir normada ifodalab, quyidagi tahrirda bayon etilsa yuridik jihatdan to'g'ri qo'llangan bo'lar edi. Ya'ni, MJtKning **194-moddasini "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organi xodimi yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning qonuniy talablarini bajarmaslik"**[4] deb nomlab, unda "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimi yoki Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisining (xodimining) huquqbuzarliklarni to'xtatish, hujjatlarni tekshirish uchun taqdim etish, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari yoki Milliy gvardiyasi organlariga (huquqni muhofaza qiluvchi organlarga) borish yoki ko'rsatilgan muddatda ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarida (huquqni muhofaza qiluvchi organlarda) bo'lish to'g'risidagi qonuniy talablarini uzrli sabablarsiz bajarmaslik, transport vositasini to'xtatish, jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish haqidagi qonuniy talablariga boshqacha tarzda bo'ysunmaslik xuddi shuningdek jamoat tartibini saqlash hamda fuqarolarning huquqlari

va erkinliklarini ta'minlash vazifalarini amalga oshirayotgan boshqa shaxslarning qonuniy talablarini bajarmaslik" degan mazmunda ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, ushbu moddada xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, ikkinchi qismi bilan javobgarlik normalarini belgilash lozim bo'ladi. Hamda MJtKning **195-moddasini "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlarining yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish" deb nomlanib** "Ichki ishlar organlari xodimining yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liq qonuniy talablarini bajarmaslikka omma oldida har qanday shaklda da'vatlar qilish, xuddi shuningdek ichki ishlar organlari xodimlariga yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)lariga ommaviy ravishda bo'ysunmaslikni keltirib chiqarish maqsadida bila turib soxta uydirmalarni tarqatish" degan mazmunda ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Hozirda amaldagi qonunchilikda ushbu moddalarning dispozitsiya va sanksiya qismlarida keltirilgan normalar ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisi (xodimi)ning vazifalari bir xilda talqin etilib kelinmoqda.

Muxtasar qilib aytganda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini saqlashda huquq tartibotni ta'minlash, inson qadr-qimmatini qaror topishi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish, fuqarolarning ongida davlatga va huquq tartibot organlariga nisbatan ishonch hissini uyg'otish hamda qonun normalarini ikki xil talqin etmaslik va qonunni qo'llash amaliyotida yagona yondashuv bo'lishi kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 194 va 194[1]-moddalari talablarini yagona normada ifodalab, **194-moddani "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organi xodimi yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning qonuniy talablarini bajarmaslik"** degan mazmunda ifodalash;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi MJtKning 195, 1951-moddalari talablarini yagona normada ifodalab, **195-moddani "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari xodimlarining yoki Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi (xodimi)ning o'z xizmat burchlarini bajarishlariga qarshilik ko'rsatish"** degan mazmunda ifodalash;

uchunchidan, MJtKning 248[1]-moddasidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining vakolatlariga MJtKning 183 va 187-moddalari bo'yicha ma'muriy bayonnoma tuzish vakolatini ham kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясининг 14,15-моддалари.

2.Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси //29.12.2020.https://president.uz/uz/lists/view/4057.

3. Ўзбекистон Республикасининг 2019 йил 29 октябрдаги ЎРҚ-575-сон қонуни.

4.Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 194, 194-1,195,195-1,183,187,248-1-моддалари.

Ibragimov S.M., Kenjayev U.J. O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligida qonuniylik talablarini ta'minlashni takomillashtirishning ayrim masalalari

Mazkur maqola fuqarolarning huquq va erkinliklarini, mulkni, davlat va jamoat tartibini, tabiiy muhitni muhofaza qilishni, ijtimoiy adolat va qonuniylikni ta'minlashda mas'ul davlat organlari xodimlarining qonuniy talablari bilan bog'liq masalalar o'rganilib, tahlil

etilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchiligida belgilangan qonuniylik talablarini ta’minlash bo‘yicha ayrim masalalarni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, ma’muriy javobgarlik, huquqbuzarlik, qonun, xulq-atvor, huquq normalari, jamoat joylari, jazo choralari.

Ибрагимов С.М., Кенжаев У.Ж. Некоторые вопросы совершенствования законности в законадательстве Республики Узбекистан об административной ответственности

В данной статье изучены и проанализированы вопросы, связанные с законодательными требованиями работников государственных органов, ответственных за обеспечение прав и свобод граждан, имущества, государственного и общественного порядка, охраны окружающей природной среды, социальной справедливости и законности, а также выдвинуты предложения по совершенствованию отдельных вопросов по обеспечению требований законности, установленных законодательством Республики Узбекистан об административной ответственности.

Ключевые слова: общественная безопасность, общественный порядок, административная ответственность, правонарушения, закон, поведение, нормы права, общественные места, наказание.

Ibragimov S.M., Kenjaev U.J. Some issues of improving the rule of law in the legislation of the Republic of Uzbekistan on administrative responsibility

This article examines and analyzes issues related to the legislative requirements of employees of state bodies responsible for ensuring the rights and freedoms of citizens, property, state and public order, environmental protection, social justice and legality, as well as put forward proposals to improve certain issues to ensure the requirements of legality established by the legislation of the Republic of Uzbekistan on administrative responsibility.

Key words: public safety, public order, administrative responsibility, offenses, law, behavior, legal norms, public places, punishment

Kadirov Mirsulton Batirovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi professori,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Maqsudov Quyoshbek Akbarali o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
"Umumiy taktika va operativ san'at" kafedrasi katta o'qituvchisi

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA JAMOAT XAVFSIZLIGI TAMINLASHNING NAZARIY METODOLOGIK TAHLILI

Mamlakatimizda olib borilayotgan harbiy islohotlar tufayli O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimi uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan ofitser kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Ayni vaqtda, aytish joizki, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to'liq javob bermaydi. Harbiy o'quv yurtlarida zamonaviy shart-sharoitlarni xo'jako'rsinga yaratganimiz yo'q. ...Aksincha, kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta'lim sohasida eng ilg'or, innovatsion bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Mana, bizning asosiy maqsadimiz» [1].

O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizligini ta'minlashning ajralmas qismi sifatida, ijtimoiy boshqaruv tamoyillari va davlat boshqaruvining huquqni muhofaza qilish sohasini tashkil etish tamoyillariga asoslanadi. Uning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: boshqaruv obyekti (O'zbekiston Respublikasining jamoat xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish jarayonida rivojlanayotgan huquqiy munosabatlar majmui) va boshqaruv subyekti (O'zbekiston Respublikasida vakolatlarni amalga oshiradigan vakolatli davlat organlari tizimi).

"Xavfsizlik" tushunchasi xavfsizlikning umumiy ilmiy nazariyasi tuzilmasida davlat, axborot va boshqa turdagi xavfsizlikni ta'minlash muammolarini o'rganishda uslubiy asos bo'lib xizmat qiluvchi asosiy konseptual kategoriya sifatida belgilanadi. Xavfsizlik mutlaq kategoriya emas, balki uning mantiqiy mohiyati aniq obyektlar yoki inson faoliyati doirasida bo'ladigan muloqotda aks etadi [2]. Shuning uchun ham xavfsizlikka berilgan ta'riflarda o'ziga xos yondashuvlar mavjud. Professor A.Qodirovning ta'kidlashicha, "milliy xavfsizlikni asosiy vazifalaridan biri – bu mamlakatda siyosiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir. Xavfsizlikni "milliy" atamasi bilan birga qo'llanilishining ijtimoiy-siyosiy ma'nosi uning titul millat yoki etnik guruh manfaatlarini emas, balki umumdavlat manfaatlarini ifoda etuvchi fuqarolik vakolati bilan bog'liqdir" [3].

Jamoat xavfsizligi masalalari dunyoning aksariyat davlatlari tomonidan eng ustuvor masala sifatida qaraladi va har doim ochiq yoki bilvosita kun tartibida turadi. Zamonaviy dunyoda urushning yangi shakllari (axborot, gibrid urush) paydo bo'lishi munosabati bilan bu muammoning ahamiyati har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqida F.Fukuyama [7], S.Xantington [8], Z.Bjezinskiy [9], S.Xoffman [10] va ko'plab siyosatshunos olimlarning "Sovuq urush tugaganidan keyin xalqaro munosabatlarning yangi tizimini shakllantirish jarayoni uzoq davom etadigan va asosan nazorat qilib bo'lmaydigan xususiyatga ega bo'ldi" degan xulosalarini tasdiqlaydi. Zero, pandemiya sababli katta inqiroz potensialiga ega bo'lgan va shu bilan birga global xavfsizlik muammolarining oldini olish va jamoaviy asosda hal qilish uchun murakkab vaziyat yuzaga keldi. Bunday sharoitda davlat va jamiyatning harbiy xavfsizligini ta'minlashga e'tiborni kuchayishi tabiiy holga aylanib bormoqda. Bu jarayonda ko'plab davlat

institutlari ishtirok etmoqda, biroq ular orasida "kuch bloki"ga kiruvchi va ichki va tashqi tahdidlarga bevosita qarshi turish funksiyalarini o'z ichiga olgan tuzilmalar alohida rol o'ynaydi. Bunday tuzilmalarni isloh qilish, ularning vakolatlarini qayta taqsimlash jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasida yangi kuch tuzilmasi - Milliy gvardiyaning yaratilishi munosabati bilan bugungi kunda ushbu sohada sodir bo'layotgan o'zgarishlarni ko'rib chiqish zarur ko'rinadi.

Ma'lumki, shu paytgacha jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalari Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari bo'linmalariga yuklangan edi. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimiga jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq asosiy vazifalarni hal qilish ham yuklangan: O'zbekiston Respublikasining hududiy mudofaasida ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati chegara organlariga davlat chegarasini himoya qilishda yordam ko'rsatish va boshqalar shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi vakolatlariga harbiy holat va favqulodda holatni ta'minlashda, urush davridagi tadbirlarni o'tkazishda, urush sharoitida fuqarolik mudofaasida qatnashish, shuningdek, Qurolli Kuchlar, harbiy tuzilmalar va harbiy qismlar bilan birgalikdagi harakatlarda qatnashish kiradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday tuzilmaning vazifalari uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini, vakolatlari esa vazifalarni amalga oshirish imkoniyatlarini belgilaydi. Keling, ba'zi fikrlarni batafsil ko'rib chiqaylik. Jamoat xavfsizligi deganda biz davlatlar (yoki ularning koalitsiyalari) o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa omillarning kombinatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan urush (jang) boshlanishi ehtimolini istisno qiladigan alohida holatni tushunamiz. Bu yerda jamoat xavfsizligi - bu ish holati ekanligini tushunish muhimdir. Va bu "urush boshlamaslik holati" ni saqlab qolish uchun alohida va birgalikda ishlatiladigan bir qator maxsus tizimlar yordamida amalga oshirish mumkin. BMT Nizomining muqaddimasida "urushga bar-ham berish; asosiy inson huquqlarini ishonchli mustahkamlash; ijtimoiy taraq-qiyotga yordam berish va erkin hayot shart-sharoitlarini yaxshilash; yaxshi qo'shnichilik munosabatlarida tinch-totuv yashash; xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun kuchlarni birlashtirish" [4] deb ta'kidlangan.

Ushbu muammo O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak. Bunday muammolar sirasiga quyidagilar kiradi:

- harbiy holat - O'zbekiston Respublikasi hududiga tajovuz sodir etilganda yoki zudlik bilan bosqinchilik tahdidi yuzaga kelganda;

- favqulodda holat - qurolli qo'zg'olon, noqonuniy qurolli guruhlar faoliyati sodir bo'lgan taqdirda fuqarolar xavfsizligini ta'minlashning vaqtinchalik chorasi sifatida;

- urush vaqti - urush holati e'lon qilingan yoki harbiy harakatlar amalda boshlangan paytdan boshlanadi;

- fuqaro mudofaasi - aholini harbiy mojarolar natijasida yuzaga keladigan xavflardan himoya qilish chora-tadbirlari tizimi sifatida;

- hududiy mudofaa - harbiy, muhim davlat va maxsus obyektlarni himoya qilish, noqonuniy qurolli guruhlarga qarshi kurash jarayoni shular jumlasidandir.

Hozirgi vaqtda huquqiy nuqtai nazardan, Milliy gvardiya qo'shinlari bilan bog'liq ko'plab savollar ochiq qolayotganligi sababli, bir qator tegishli qonunlar kuchga kirgunga qadar, yangi davlat xizmatning faoliyati muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Demak, Milliy gvardiyani tashkil etishdan asosiy maqsad davlat va jamiyat xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Biroq, amaldagi qonunchilikda "davlat va jamoat xavfsizligi" tushunchasining aniq ta'rifi mavjud emas. Masalan, Rossiya Federatsiyasining yuridik hujjatlari va ilmiy adabiyotlarida xavfsizlik tushunchasi "milliy xavfsizlik" atamasi sifatida ilk bor 1992 yilda o'z aksini topa boshladi. 1992 yil 5 martda qabul qilingan Rossiya

Federatsiyasining "Xavfsizlik to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida "milliy xavfsizlik" tushunchasiga – "shaxs, jamiyat va davlatning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati" [5], deb ta'rif berilgan. "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi asosiy qonunda bu tushunchaning aniq ta'rifi mavjud emas. Ushbu qonunda xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi hokimiyat organ-larining prinsiplari, mazmuni, huquqiy asoslari, vakolatlari va boshqalar ko'rsa-tilgan. Bizning nazarimizda jamoat xavfsizligi deganda inson va fuqaro, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni himoya qilish holati tushuniladi.

Shuningdek, jamoat xavfsizligi jamiyatni jinoiy va boshqa noqonuniy tajovuzlardan, ijtimoiy va millatlararo nizolardan, shuningdek, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish hamdir. Ammo konsepsiya faqat ma'lumot doirasidir. O'z navbatida, milliy xavfsizlik strategiyasi milliy xavfsizlik mamlakat mudofaasi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan xavfsizlikning barcha turlarini - birinchi navbatda, davlat, jamoat, axborot, ekologik, iqtisodiy, transport, energiya xavfsizligi, shaxsiy xavfsizlikni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, huquqiy ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, shuni ta'kidlash kerakki, milliy gvardiyani tashkil etishdan maqsad milliy xavfsizlikni ta'minlashdir. Bu bir qator bahsli masalalarni hal etishga katta yordam beradi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasidagi "jamoat xavfsizligi" misolidan kelib chiqib, davlat xavfsizligi konsepsiyasini qonunchilik darajasida birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yangi institutning jamoat xavfsizligini ta'minlashga bevosita ta'siri, bizningcha, quyidagi holatlar tufayli mumkin:

- Milliy gvardiya O'zbekiston Respublikasi hududida jahon terrorizmi tashkilotlariga qarshi keng ko'lamli aksilterror operatsiyalarini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida harakat qilishi mumkin;
- Milliy gvardiya yoki uning alohida bo'linmalari tashqi operatsiyalarni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin, ammo hozirda bu masala qonuniy tartibga solinmagan;
- urushning gibrid shakllarining tarqalishi sharoitida Milliy gvardiyani O'zbekiston Respublikasi hududida dushmanlik harakatlariga - tartibsizliklarga urinishlarga, qonuniy hokimiyatga qurolli qarshilik ko'rsatishga, keng ko'lamli millatlararo nizolarni qo'zg'atishga qarshi kurashuvchi tuzilma sifatida qarash mumkin.

Bizningcha O'zbekistonning xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq ehtiyojlarini uning obyektiv mavjudligidan kelib chiqib baholash o'rinli bo'ladi. Chunki milliy xavfsizlik ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida hech qanday ichki siyosiy tuzilishdan qat'i nazar, ma'lum chegaralardan tashqariga chiqmasligi kerak. Lekin bu ehtiyojlarning eng oliy mezoni, demokratik jamiyatda milliy manfaatlar har bir insonning muhim ehtiyojlari bo'lishi kerak, chunki ularning kafolatigina davlat va jamiyatda chinakam barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondon Shavkat Mirziyoyev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Bugun terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda sa'y-harakatlarni birlashtirish, tobora avj olayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka tahdid solayotgan xavflarga qarshi birgalikda kurashish muhim ahamiyat kasb etmoqda" [6]. Konstitutsiyaviy tuzum, suverenitet va hududiy yaxlitlikni himoya qilish; siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni o'rnatish, qonunlarga so'zsiz rioya qilish va huquq-tartibotni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, mohiyatiga ko'ra, muayyan shaxs nuqtai nazaridan, davlatning asosiy, hayotiy, muhim manfaatlarini ta'minlash yo'llari milliy xavfsizlikni ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, yangi hokimiyat instituti faoliyatining boshlang'ich bosqichi masalalarini ko'rib chiqib, biz bir qator munozarali jihatlarni ajratib ko'rsatish orqali xulosa qilishimiz mumkin.

1. Balki, Milliy gvardiyaning tashkil etilishi milliy xavfsizlikni ta'minlashga uning kuch-qudrat jihatida ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki mamlakatning ichki va

tashqi faoliyat yo‘nalishidan kelib chiqib jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat xavfsizligini mustahkamlash, Milliy gvardiya imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ichki va tashqi ekstremistik kuchlarga qarshi kurashishning yirik mexanizmining muhim elementiga aylanishi lozim.

2. Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi vazifa va vakolatlariga ko‘ra Milliy gvardiyaning boshqa xavfsizlik institutlari bilan amaliy hamkorligi masalalari milliy qonunchilikda to‘liq ifodalangan emas, bu esa bu kuch tuzilmalari funksiyalaridagi takrorlanishlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu boisdan ham O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatining me’yoriy komponentini yanada rivojlantirish va uni amaliyotga tatbiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

3. Sovet davrida keng qo‘llanilgan, keyinchalik “milliy xavfsizlik” tushunchasi bilan qonunchilikdan chiqarib yuborilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilanmagan “jamoat xavfsizligi” tushunchasiga nisbatan munozarali qarashlar mavjud. Shu boisdan ham bu tushunchalarning mazmunini, chega-ralarini, boshqa xavfsizlik turlari bilan aloqasini aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tashkil etilishi jamoat xavfsizligi sohasida, xususan, maxsus huquqiy rejimlardan foydalanish, terrorizm va ekstremistimizga qarshi harakatlarni o‘tkazishda yangi imkoniyatlar ochib beradi. Ammo bu imkoniyatlarni amalga oshirish mexanizmlari va chega-ralarini faqat uning real faoliyati asosida baholash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев. Хавфсизлик кенгаши мажлисидаги “Қуролли кучларимиз – мамлакатимиз барқарорлиги ва тараққиётининг мустаҳкам кафолатидир” мавзусидаги нутқи. //—Халқ сўзи газетаси. 2018 йил, №3.

2. Саидолимов С.Т. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш муаммолари: Сиёсий фанлар доктори илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация. – Т.: ДЖҚА, 2009. –Б 24.

3. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси.- Т.: ТДЮИ, 2006. – 74-75 бетлар.

4. БМТнинг Устави. // http://www.un.org/ru/documents/charter/chapter1.shtml

5. Закон Российской Федерации «О безопасности» от 05. 03. 1992.. №2446-1. – В ред. от 25.07.2006. –Б.3.

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи // http://uza.uz/oz/politics/uzbekiston-respublikasi-prezidenti-sha-18-10-2016

7. Фукуяма Ф. Конец истории / Вопросы философии. № 3, 1990. С. 84-118.

8. Хантингтон С. «Столкновение цивилизаций?»/ «Полис». №1, 1994. С. 33-48.

9. З.Бжезинский. Великая шахматная доска, (Господство Америки и его геостратегические императивы), «Перевод О. Ю. Уральской», Междунар. отношения, М.: 1998, стр 112, (ISBN 5-7133-0967-3)

10. Hoffmann S. World Disorders: Troubled Peace in the Post-Cold War Era.New York: Rowman and Littlefield Publishers, 1998.

Kadirov M.B., Maqsudov Q.A. Milliy gvardiya tizimida jamoat xavfsizligi taminlashning nazariy metodologik tahlili

Maqolada Milliy gvardiya tizimida jamoat xavfsizligini ta’minlashning nazariy metodologik tahlili, shuningdek xavfsizlik tushunchasi, xavfsizlikning umumiy ilmiy nazariyasi tuzilmalari va uning turlari haqida, jamoat xavfsizligi masalalari dunyoning aksariyat davlatlari tomonidan eng ustuvor masala sifatida va uning zamonaviy ko‘rinishlari,

dunyoda urushning zamonaviy, yangi shakllari axborot, gibrid urushlarning paydo bo'lishi, hamda jamoat xavfsizligining davlat, jamoat, axborot, ekologik, iqtisodiy, transport, energiya xavfsizligi, shaxsiy xavfsizlik tushunchalari haqida va ularni yechish usul va uslublari bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, jamoat xavfsizligi, xavfsizlik, gibrid urushlari, axborot urushlari, jamoat xavfsizligi kombinatsiyalari.

Кадиров М.Б., Максудов К.А. Теоретико-методологический анализ общественной безопасности в системе Национальной гвардии

В статье представлен теоретический и методологический анализ общественной безопасности в Национальной гвардии, а также понятие безопасности, структура общенаучной теории безопасности и ее виды. Возникновение гибридных войн, а также предложения по концепциям. государственной, общественной, информационной, экологической, экономической, транспортной, энергетической безопасности, личной безопасности общественной безопасности и методов и приемов их решения.

Ключевые слова: Национальная гвардия, общественная безопасность, безопасность, гибридные войны, информационные войны, комбинации общественной безопасности.

Kadirov M.B., Maqsudov Q.A. Theoretical and methodological analysis of public safety in the National guard system

The article provides a theoretical and methodological analysis of public security in the National Guard, as well as the concept of security, the structure of the general scientific theory of security and its types. the emergence of hybrid wars, as well as proposals on the concepts of state, public, information, environmental, economic, transport, energy security, personal security of public security and methods and techniques for their solution.

Key words: National Guard, public safety, security, hybrid wars, information wars, public safety combinations.

Tursunov Burxon Saydaxmatovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakulteti boshlig‘ining tarbiyaviy
va mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda Milliy gvardiya deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquq-buzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 10 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan majlisida so‘zlagan nutqida, Milliy gvardiyani tashkil yetilganligi haqida to‘xtalib, shunday degan yedi, “Ma’lumki, bu maxsus bo‘linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlardan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan”.

Darhaqiqat, Prezidentimiz ta’kidlab o‘tgan vazifalardan kelib chiqib, o‘tgan qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya bo‘linmalari jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalarni samarali ado yetib kelmoqda.

Milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilari jangovar xizmat majburiyatlarini bajarishda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish bo‘yicha har bir shahar va viloyatda xavfsiz hudud loyihasida kun-u tun uch smenali patrullik rejimida patrul-post xizmati va yo‘l-patrul xizmati, blok postlarda xizmat majburiyatlarini bajaradilar.

Shuningdek, jangovar xizmat vazifalarning o‘zgarishi, naryadda hamda jangovar postda xizmat o‘tash, dala mashg‘ulotlariga chiqishi, o‘quv-jangovar mashqlarda harbiy xizmatchilarning qatnashishi Milliy gvardiyada harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchilardan tezkorlik bilan qaror qabul qilish, hissiyotlarga berilmaslik hamda kuchli irodali bo‘lish kabi psixologik xususiyatlarni egallashni taqozo etadi. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatga psixologik tayyorlamaslik, o‘z navbatida jangovar xizmat faoliyatda stress, depressiya,ruhiy zo‘riqishlarga olib kelishi mumkin.

Psixolog olim M.M.Kashapovning ta’rificha - “psixologik tayyorlik - bu harakatdagi umumiy tayyorlikning asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u psixologik omillar bilan belgilanadi (shaxsiyat xususiyatlari, temperament turi, xarakter xususiyatlari), bu tegishli sohada bilim, ko‘nikma va malakalarning mavjudligini anglatadi, shuningdek voqealar va ularning oqibatlari to‘g‘risida umumiy xabardorlik, tayyorlik darajasini o‘z ichiga oladi”, - deb ta’kidlaydi. Yuqoridagi mulohazalardan tashqari, zamonaviy harbiy harakatlarning taktikasi, strategiyasining o‘zgarishi ham bevosita harbiy xizmatchilarning psixik jarayonlarining o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda.

Olim M.M.Doshkoning ta'rificha “psixologik tayyorgarlikning asosiy maqsadi - harbiy xizmatchilarda bo‘lajak harakatlarning psixologik qiyofasini shakllantirish, mustahkamlash hamda uning qiyofasini maksimal detallashtirishdir”, - deb ta'kidlab o‘tgan.

Bizning fikrimizcha, psixologik tayyorgarlik bo‘lmagan bo‘linmada harbiy xizmatchilarning jipsligi yo‘qoladi, o‘ziga va jamoaga bo‘lgan ishonchi pasayadi, shuningdek hissiy-irodaviy xususiyatlari shakllanishi susayadi. Bunday salbiy holatlar harbiy xizmatchilarning patrulda, qorovulda, blok-postda, shuningdek jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarini bajarishda

nojo‘ya xatti-harakatlar sodir yetilishiga olib kelishi mumkin.

Psixolog olim Yu.G.Fominaning fikricha “psixologik tayyorgarlikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: harbiy harakatlar to‘g‘risida ilmiy asoslangan bilimlarni, kelajakdagi urush haqidagi g‘oyalarni, jangovar vaziyatda o‘zini tutish ko‘nikmalarini, o‘zini o‘zi boshqarish hamda o‘zaro yordam berish ko‘nikmalarini, dushmanning axborot va psixologik hujumlarga qarshi turish ko‘nikmalarini shakllantirish shuningdek, qahramonlik ko‘rsatishga tayyorlik, dushman ustidan g‘alaba qozonish uchun fidokorona harakatlar qilishga shaylik”, ruhida tarbiyalash kabi muhim bo‘lgan individual-psixologik fazilatlarni shakllantirishni ifodalaydi.

Olimning qarashlari bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida, qo‘mondonlik shtab hamda taktik o‘quvlarda, dala mashg‘ulotlarida, uzoq masofaga yugurish kabi murakkab bo‘lgan mashg‘ulotlarda harbiy xizmatchilarning individual-psixologik xislatlarini shakllantirish hamda malakaga ega bo‘lish bo‘linmaning jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishiga zamin yaratadi.

Harbiy harakatlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilarni harbiy ixtisosga o‘rgatish yetarli yemas deb, ular ma’lum jangovar fazilatlarni: qat’iyatlik, qo‘rqmaslikni, qo‘rquvga qarshi kurashish qobiliyatini va o‘zini saqlash instiktini singdirish kerak deb hisoblashgan. Darhaqiqat, kasbiy faoliyatda biz harbiy xizmatchilarni hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish orqali ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni ortishga hamda har qanday sharoitda psixologik barqarorlikni ta’minlashga erishamiz.

Harbiy psixolog olim A.G.Karayanining fikricha, “shartnoma asosida harbiy xizmat qilayotgan harbiylar va ularning psixologik jihatdan kompleks o‘rganishning uslublari quyidagicha: kuzatish metodi, biografiya metodi (hayot yo‘li), turli hujjatlarni o‘rganish, shaxs so‘rovnomalari, psixologik testlar, yozma va og‘zaki anketalar, individual suhbatlar, natijalarning statistik tahlili kabi uslublar orqali harbiy xizmatchilar bilan psixologik ishlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq”, - deb ta’kidlab o‘tgan.

Yuqoridagi uslublar bugungi kunda ham o‘z qiymatiga ega bo‘lib, harbiy xizmatchilarning individual psixologik xususiyatlarini yaqindan o‘rganishga, harbiy xizmatda yuzaga keladigan psixologik muammolarni yechimini topishga hamda salbiy psixologik vaziyatlarni bartaraf yetishga yaqindan yordam beradi. Bunday o‘rganishlar yordamida harbiy xizmatchilarni organizmidagi har qanday o‘zgarishlarni bilib olishimiz mumkin bo‘ladi.

Yuqorida keltirilganidek, xizmat-jangovar vazifalarni modellashtirilgan sharoitlarda mashq qildirish, mashqni takror bajartirish harbiy xizmatchilarni ruhiyatini barqaror yetadi, shuningdek ularda bilim, ko‘nikma va malaka shakllanadi. Bundan tashqari, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ekstremal sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda ishonch bilan harakat qilishga safarbar yetadi.

Bizning fikrimizcha yuqoridagi tahlillardan hamda tajribalardan kelib chiqib, psixologik tayyorgarlikni takomillashtirishni quyidagicha tashkil yetish maqsadga muvofiq:

jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalarini chuqur o‘rgangan holda psixologik tayyorgarlikni tashkillashtirish;

jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalariga axloqiy-ruhiy holati barqaror harbiy xizmatchilarni saralab, xizmatga jalb yetish;

jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarini xizmat-jangovar vaziyatga yaqinroq sharoitda tashkillashtirish;

qo‘mondonlik shtab, taktik o‘quvlarda psixologiya vaziyatlarni yaratish orqali shaxsiy tarkibda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qildirish;

kundalik faoliyatda psixologik treninglarni muntazam o‘tkazish;

tungi o‘q otish mashg‘ulotlarida taktik vaziyatlar yaratish orqali bilim, ko‘nikma hosil qildirish;

kundalik faoliyatda “psixologik

yo‘lak”da harakatlanish mashqlarini bajarish;

Sud-tibbiy ekspertiza o‘likxona (MORG)larga tashriflar uyushtirish;

ilmiy asoslangan psixologik bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Albatta bunday yondashuvlar, harbiy xizmat davomida harbiy xizmatchilarning jamoat xavfsizligini ta’minlash borasidagi vazifalarini samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, Rossiya Federatsiyasi Qurolli Kuchlari qo‘shin turlaridagi harbiy xizmatchilarning jangovar faoliyatining ruhiy xususiyatlarini ochib bergan V.V So‘soyev, ushbu faoliyatning quyidagi omillarini ajratadi: xavflilik; noaniqlik; to‘satdan harakatlar; vaqt va ma’lumot yetishmasligi (ma’lumotlarning nomuvofiqligi); qaror qabul qilish va uni amalga oshirish uchun javobgarlik; noqulaylik.

Bizning fikrimizcha, harbiy xizmatchilar jangovar-xizmat oldidan, o‘ta mas’uliyatli bo‘lgan vazifalarni bajarish oldidan hissiyotlarida xavfli (trevoga) holatini o‘tkazishi mumkin. Harbiy xizmatchi o‘zini psixologik tayyorlamasligi, o‘ychanligi, qayg‘urishi, qo‘rquvni his qilishi ularning xizmat majburiyatlarini bajarishdan bosh tortishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, psixologik tayyor emasligi quyidagilarda: o‘ziga ishonchsizligida, xizmat - jangovar faoliyat oldidan moslashuvchanlik (adaptatsiya) yo‘qligi, entuizm, qo‘rqish, o‘zining hayoti va taqdiridan xavotir olishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Xitoy harbiy psixologiyasining falsafiy platformasi ming yillar oldin shakllangan va daosizm, Konfutsiylik va buddizmning falsafiy g‘oyalarini ijodiy talqin qilgan. Psixologik urush, xitoylik mutaxassislarning fikriga ko‘ra, dushman qo‘shinlarini va ularni qo‘llab-quvvatlovchi tinch aholini to‘xtatish, qo‘rqitish va ruhiy tushkunlikka tushirish hamda dushmanning yaxshi qarorlar qabul qilish va harbiy operatsiyalarni o‘tkazish qobiliyatiga putur yetkazishga qaratilgan.

Xitoy harbiy psixologlari harbiy xizmatchilarda ruhiy buzilishlarning oldini olish uchun ekstremal tadbirlarda qatnashadigan shaxslarni tizimli ravishda psixologik tekshiruvdan o‘tkazish, ularga ruhiy salomatlikni saqlash tamoyillarini o‘rgatish va psixologik muammolarni hal qilish usullari bo‘yicha maslahat berish kerak degan xulosaga kelishgan. Bundan tashqari, harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni shakllantirishga, psixologik trening, maxsus xizmatlar uchun metodologiya va texnologiyalarni ishlab chiqishga e’tibor qaratgan.

Xulosa qilib aytganda, vujudga kelayotgan, ilgari ko‘rmagan va duch kelmagan harbiy harakatlar hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash vazifalariga yaqinroq sharoitda psixologik vaziyatni taktik modellashtirish uslublari orqali harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorgarligini takomillashtirishga erishamiz. Hech shubhasiz, bu borada harbiy xizmatchilarni jismoniy hamda ruhiy chiniqtirish maqsadida psixologik tayyorlash bo‘yicha vazifalar harbiy qism va bo‘linmalarda turli uslublarda hal qilinishi lozim. Jumladan, taktik o‘quv mashqlariga tayyorgarlik jarayonida, jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlarida, dala o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarlik jarayonida autogen mashqlar, psixologik konsultatsiya, psixologik korreksiya, psixologik treninglarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонуни. 2020 йил 18 ноябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил 10 январь куни Хавфсизлик кенгаши мажлисидаги “Қуролли Кучларимиз-мамлакатимиз барқарорлиги ва тараққиётининг мустаҳкам кафолатидир” мавзусида нутқи. Халқ сўзи. 2018 йил 11 январь.

3. Мамаюсупов С.Д. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардиясида ахлоқий-руҳий таъминотни ташкиллаштириш масалалари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент., 2021, Б-5.

4. Кашапов М.М. Психология конструктивной конфликтности личности на осно-

ве системогенетического подхода [Текст] / М.М. Кашапов // Системогенез учебной и профессиональной деятельности: материалы ВИ Всероссийской научно-практической конференции. -2013. - С. 38-44.

5. Дошко. М.М. Психологической обеспечение подготовки к специальным операциям по разоружению и ликвидации не законных вооруженных формирований. Дессер ...канд... псих..наук. М.: 2006.-С-158.

6. Фомина Ю.Г. Психологическая подготовка как способ повышения психической устойчивости военнослужащих – участников боевых действий. Мир и науки. Педагогика и психология. 2020 № 6 том 8,- С- 4.

7. Саракул А.Г. Психологическая подготовка личного состава подразделений специального назначения путем применения физических упражнений, сочетаемқх с приемами психоэмоционального самоуправления. Автореферат..дис-сер...канд...псих..наук....Санк-Петербург.:2005.,-С-8.

8. Равшанов Л.У. Замонавий ҳарбий хизматчиларнинг психологик жиҳатлари. Диссер...псих. фан. номзоди. Тошкент., 2019.,-Б-21.

9. Дошко М.М. Психологической обеспечение подготовки к специальным операциям по разоружению и ликвидации незаконных вооруженных формирований. Москва: 2006. Дессер ...канд... псих..наук. С -35.

10. Караяни А.Г. История развития и современное состояние современной Китайской военной психологии// Национальный психологический журнал. – 2017. – №4 (28). – С. 83–94.

Tursunov B.S. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda psixologik tayyorgarlikning o'rni va ahamiyati

Ushbu maqolada bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini rivojlantirish borasida hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan harbiy-siyosiy islohotlar, harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligi borasida asosiy maqsad va vazifalar hamda ularning psixologik tayyorgarlik holatlarining ijobiy samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, harbiy xizmatchi, psixologik tayyorgarlik, jangovar holat, charchash, ruhiy zo'riqish, siqilish, bezovtalik, taktik o'quvlar, psixologik treninglar, xizmat-jangovar faoliyat, jamoat xavfsizligini ta'minlash, psixik jarayon.

Турсунов Б.С. Роль и значение психологической подготовки в обеспечении общественной безопасности

В статье описаны военно-политические реформы, проводимые нашим правителством для развития Националной гвардии Республики Узбекистан, основные цели и задачи психологической подготовки военнослужащих, а также повышения эффективности их психологической подготовки.

Ключевые слова: Националная гвардия, военнослужащий, психологическая подготовка, боевая обстановка, переутомление, стресс, депрессия, тревожност, тактическая подготовка, психологическая подготовка, служебно-боевая деятелность, общественная безопасность, психический процесс.

Tursunov B.S. The role and importance of psychological training in providing public safety

This article describes the military-political reforms being carried out by our government to develop the National guard pf the Republic of Uzbekistan, the main goals and objectives of psychological training of servicemen, as well as improving the effectiveness of their psychological training.

Key words: National guard, military, psychological training, combat situation, fatigue, stress, depression, anxiety, tactical training, psychological training, service-combat activity, public safety, mental process.

Atashayxov Abduvohid Abdushukurovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
"Jismoniy tayyorgarlik va sport" kafedrasi
katta o'qituvchisi

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA JISMONIY KUCH ISHLATISH XUSUSIYATLARI

Barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlarning eng muhim belgilaridan biri bu ularga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish maqsadida jismoniy kuch, maxsus vositalar va o'qotar qurollarni qo'llash choralari hisoblanadi. Bunday holatlarni nazariyada bevosita majburlov choralari deb yuritilib, ularni qo'llash bevosita huquqni qo'llash oraliq hujjatlarini tuzmasdan avval amalga oshiriladi. Keskin vaziyatlarda bunday hujjatlarni tuzish uchun vaqt bo'lmaydi.

Maqolada faqat jismoniy kuch ishlatish ya'ni, jismoniy tayyorgarlik bo'yicha qo'l jangi tizimidagi – kurash, sambo, dzyudo, karate va boshqa yakka kurash shuningdek og'ritish, bo'g'ish usullari orqali jismoniy kuch ishlatish majburlov va zaruriy mudofaa choralarini qonunga muvofiq qo'llanilishi ko'rib chiqilgan.

Dolzarbligi. Ma'lumki, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llash O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga bevosita o'z ta'sir etadi.

Hozirgi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari tomonidan majburlov choralarini qo'llash ancha ***dolzarb muammolardan biri*** bo'lib kelmoqda. Jamoat xavfsizligining amaliyotda ishlab kelgan kursant va shu o'quv muassasa sirtqi bo'limida tahsil olayotgan va bir vaqtning o'zida Milliy gvardiya yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda faoliyat yuritib kelayotgan tinglovchilaridan jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llash xususida so'ralganida ularning aksariyati, yuqori turuvchi organlarga fuqarolar tomonidan shikoyat bo'lishidan qo'rqishlarini aytdilar. Bundan tashqari, milliy mentalitetimiz ham bunga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan.

Huquqbuzar yoki gumon qilinuvchiga nisbatan jismoniy kuch ishlatib majburlov choralarini qo'llash orqali zarar yetkazish xodimda noqulaylik, hijolat bo'lish, aybdorlik hissini keltiradi. Xodimlar o'z huquqiy ustunliklarini, qonuniy himoyalanganliklarini ko'p hollarda anglab yetmaydilar. Ularda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xalq bilan muloqotga kirishishda professionallik qobiliyati, ya'ni kasbiy malaka yetishmaydi. Kadrlar qo'nimsizligi ham professionallik darajasining susayishiga olib keladi. Biroq, unutmaslik kerakki, jismoniy kuch ishlatish majburlov choralari normalarini bilib, joyida qo'llash, shubhasiz, kimningdir yoki hamkasbimizning hayotini saqlab qolishda yordam beradi.

Maqsad. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llanishining huquqiy asoslarini hamda jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llash vaqtida yuzaga keladigan muammolarni ko'rib chiqish maqsadida tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot metodlari sifatida normativ huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatishlar olib borish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, matematik statistika usullari qo'llanildi, tadqiqot natijalari tahlil qilindi.

Bu o'rinda, avvalo, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlagan so'zlarini eslatib o'tish joiz deb o'ylaymiz, «Bugungi kunda mamlakatimizda yuritilayotgan davlat siyosatining asl mohiyati va pirovard maqsadi – xalqimizning dard-u tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlaridan doimo xabardor bo'lib, uning moddiy farovonligini oshirish, munosib turmush darajasi va sifatini ta'minlash, tinch hayotini himoya qilishdir». Shunday ekan fuqarolarning huquqlari,

erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari uchun asosiy vazifa sifatida tan olinishi lozim.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish maqsadida Harakatlar strategiyasi jamiyat hayotining barcha sohalaridagi, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimidagi islohotlarning «Yo'l xaritasi»ga aylandi.

«Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining so'zsiz ta'minlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir... Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya hamda qonun talablariga og'ishmay amal qilish ma'naviy saviyamiz, madaniyatimizning asosiy mezoniga aylanishi shart» deb, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganning 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qattiq turib ta'kidlagan edilar. Bundan xulosa shuki, farmon, hukumat buyruq va qarorlarida mustahkamlab qo'yilgan normalar nafaqat mamlakatimiz fuqarolari, balki Ichki ishlar organlari xodimlari uchun ham birdek mezon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti kafedralarida o'qitiladigan barcha fanlar qatori jismoniy tayyorgarlik bo'yicha fan dasturlari, ishchi fan dasturlari davlat ta'lim standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining xizmat, jangovar, jismoniy va axloqiy-psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazish qoidalarini tasdiqlovchi buyruqlar ya'ni "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida jismoniy tayyorgarlik va sportni tashkillashtirish bo'yicha vaqtinchalik qo'llanmani tasdiqlash to'g'risida"gi 2021 yil 29 apreldagi 107-sonli buyruq talablariga muvofiq, kasbiy faoliyatlari yo'nalishi inobatga olinib tayyorlangan.

Shunga qaramay, jismoniy tayyorgarlik fanida o'qitiladigan mavzular kursant va tinglovchilar orasida ayniqsa, amaliyotda ishlab kelgan xodim-tinglovchilarda shubha uyg'otadi. Ular o'rganilayotgan usullarni gumon qilinuvchi shaxsga qo'llab, jismoniy kuch ishlatishsa, javobgar bo'lib qolishdan xavotirlanib, o'zlarining huquqiy vakolatlaridan foydalanmaydilar. Ammo pirovard natijada tajovuz oqibatida qo'riqlanadigan obyektlarga, fuqarolarga yoki o'zlariga zarar yetishi mumkin. Albatta bunday tushunmovchiliklarni xodimning jamoat tartibini buzuvchi shaxslarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish qoidalarini, kimga va qaysi vaziyatda qo'llash mumkinligini, xizmat vaqtidagi o'z huquqlarini to'laligicha to'g'ri anglab yetmaganlaridan deb bilish mumkin. Kursantlarni to'g'ri tushunish mumkin negaki, jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi tomonidan qaysi vaziyatlarda jismoniy kuch ishlatishning qonuniy huquqlari aytilmaydi, Fan bo'yicha dasturda ham ko'rsatilmagan.

Bunday holatning yana bir asosiy sabablardan biri sifatida, hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarini tamomlab, huquqiy va jismoniy tayyorgarlik fanlarini chuqur o'zlashtirmasdan huquqni muhofaza qilish organlariga to'g'ridan-to'g'ri ishga qabul qilingan xodimlarda ko'proq kuzatish mumkin.

Bu holat bo'yicha xodimlar shaxsiy fikrlariga ega bo'lishlari uchun, avvalo, quyidagi xalqaro standartlarni bilishlari tavsiya etiladi:

- 1979 yil BMTning Bosh Assambleyasidagi 34/169 rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Huquq-tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar axloqiy Kodeksi;

- Yevropa Ittifoqining 1979 yilda qabul qilingan 690-son rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Politsiya xizmati etikasi asosiy prinsiplari;

- 1990 yilda BMTning VIII Kongressida qabul qilingan jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarlarga nisbatan munosabat bo'yicha «Huquqiy tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar tomonidan kuch va o'qotar qurol ishlatishning asosiy prinsiplari» to'g'risidagi dasturida hamda har bir davlat-

ning milliy qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar.

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari vaziyatdan kelib chiqib, jinoyat sodir etganlikda gumon qilinuvchi shaxslarga yengil yoki og'ir darajada og'riq berishlari yoki jarohat yetkazishlari mumkin. Masalan, shaxsni qo'lga olish vaqtida unga zarar yetkazish bilan bog'liq qoidalar ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazishiga oid normativ huquqiy hujjat 2016 yil 16 sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunda aniq belgilab berilgan.

Bundan tashqari 2019 yil 12 noyabrda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va 2019 yil 14 dekabrda senat tomonidan ma'qullangan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to'g'risidagi qonunning 5 bob 29-moddasida ham qisqagina ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur hujjatlarda mustahkamlangan qoidalarga ko'ra, jismoniy kuchni quyidagi prinsiplar asosida qo'llash mumkin:

1) qonuniylik prinsipi, ya'ni huquq-tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslar tomonidan mamlakatning ichki qonunchiligiga ko'ra jismoniy kuch ishlatish choralari bo'yicha talablarni to'liq va har tomonlama tartibga solib, boshqarib borilishining shartligi;

2) huquq-tartibotni saqlash bo'yicha mansabdor shaxslarning huquqiy himoyalanganligini ta'minlash;

3) jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini aniq vaziyatdan kelib chiqib, qo'llanilgan boshqa vositalar samarasiz bo'lgan va uning oqibatida kutilgan natijaga erishilmay qolgan taqdirda, urinishlar xodim zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarish imkonini bermaganida oxirgi chora sifatida, va albatta, inson huquqlarini poymol qilmasdan qo'llanilishi;

4) jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llashda bosiqlik, yetkaziladigan jarohatning imkon qadar kamroq bo'lishiga intilish;

5) jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llash natijasida jabrlanganlarga tezkor tibbiy va boshqa zaruriy yordam ko'rsatilishini ta'minlash.

Yuqorida keltirilgan prinsiplar O'zbekiston Respublikasi «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi va "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to'g'risida"gi qonunlarida ham so'zsiz o'z aksini topgan va jismoniy kuch ishlatish xalqaro standartlarga mos keladi.

Shunday ekan, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va organ xodimlari to'liq qonunlarda ko'rsatilgan moddalar asosida vaziyatni inobatga olish bilan, yuqorida tilga olingan prinsiplarga amal qilgan holda jinoyatchilikni oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash maqsadida jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini qo'llash mumkin bo'ladi. Bu holat, MG qonunining Milliy gvardiyaning huquq va majburiyatlari 4 bobining Milliy gvardiyaning huquqlari nomli 26-moddasida aniq qilib ko'rsatib qo'yilgan, ya'ni - «fuqarolardan qonun hujjatlariga rioya etishni, g'ayrihuquqiy harakatlarni to'xtatishni talab qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda esa majburlov choralarini qo'llash» huquqiga ega.

Masalan, IIV Qonuni (MG qonunining 29 moddasi)ning 22-moddasiga muvofiq agar kuch ishlatilmaydigan usullar huquqni muhofaza qiluvchi organi xodimining zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar bajarilishini ta'minlamasa, u quyidagi hollarda shaxsan o'zi yoki bo'linma (guruh) tarkibida jismoniy kuch ishlatish, shu jumladan kurashning jangovar usullarini qo'llash huquqiga ega bo'ladi:

- jinoyatlarga va ma'muriy huquqbuzarliklarga chek qo'yish uchun;

- jinoyatlar yoki ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarni eng yaqin joydagi ichki ishlar organiga yoxud huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organga olib borish va bu shaxslarni ushlab turish uchun;

- Milliy gvardiya harbiy xizmatchisining (xodimining) qonuniy talablariga qarshilik ko'rsatilishini bartaraf etish uchun;

- Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari) ushbu Qonunlarda maxsus vositalar yoki o'qotar qurol qo'llanilishiga ruxsat etilgan hollarda ham jismoniy kuch

ishlatish huquqiga ega.

MG harbiy xizmatchilari huquqni muhofaza qilishda shu normalarga amal qilgan holda harakatni amalga oshirgan taqdirda hech qanday javobgarlik unga tahdid qila olmaydi.

Qanday hollarda gumon qilinuvchi yoki jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan zaruriy mudofaa sifatida zarar yetkazmasdan jismoniy kuch ishlatib yoki tanaga yengil jarohat yetkazilib qo'lga olinadi?

MG harbiy xizmatchi va xodimlari huquqni muhofaza qilishlarida xavfli harakat sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish, ushlanayotgan shaxsning bo'yin tovlash xatti-harakatlariga chek qo'yish va uni zarar yetkazmasdan ushlashning boshqa chorasi bo'lmay qolishi kabi zaruriy vaziyatlarni ko'ra bilishi shart.

Bu muammoni o'rganish, tahlil qilish, takliflar kiritish bo'yicha Z.Q.Jabbarov yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasini himoya qilish materiallarida bir qator fikrlar bildirgan. Uning ta'kidlashicha, xodim ushlanayotgan shaxsni sodir etgan qilmishining ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashi hamda ularga mos tarzda zarar yetkazib ushlash chegaralarini belgilab olishi, qurollangan yoki qurollanmagan shaxslarni ushlash vaqtida zarar yetkazish tartibi va chegaralarini ham oldindan aniq bilishi va tegishli chora ko'rishi talab etiladi.

Barcha holatlarda qurollangan shaxsni qurolsizlantirish va qo'lga olish chorasi, avvalo, qulay vaziyatdan kelib chiqib, fuqarolarning hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining hayoti va sog'lig'iga tahdidlarning oldini olish, shuningdek huquqbuzarning qochib ketishi yoki yashirinishi mumkinligini hisobga olgan holda belgilanadi. Ayrim hollarda ushlanayotgan shaxs tomonidan qurolli qarshilik ko'rsatilishining oldini olish maqsadida unga qo'lga olishning sababi va maqsadini ma'lum qilmagan holda badaniga yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazib qo'lga olish choralari ko'riladi.

Quyidagi hollarda shaxsga qasddan zarar yetkazib qo'lga olish taqiqlanmog'i lozim: xavfli qilmish sodir etgan shaxs uni ushlash choralarini ko'rayotgan shaxsning qonuniy talablariga bo'ysungan, qarshilik ko'rsatmagan, qochish yoki yashirinishga urinmagan bo'lsa; zarar yetkazmasdan ushlashning boshqa choralari mavjud bo'lsa; ayolning homiladorligi, shaxsning nogironligi, voyaga yetmagan shaxsning yoshi aniq bilinib turgan bo'lsa (ular qurolli qarshilik ko'rsatgan, fuqarolarning yoxud huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimining hayoti va sog'lig'i uchun xavfli tarzda hujum qilgan hollar bundan mustasno).

Xavfli qilmish sodir etgan shaxs qonunga zid holda qo'lga olinishidan bo'yin tortib, ushlash choralarini ko'rayotgan xodimning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lsa, qarshilik ko'rsatsa, bo'ysunmasa, qochish yoki yashirinishga uringan holatlarda xavfli harakat sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida zarar yetkazish huquqiy chorasi qo'llaniladi; ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash vaqtida ushlanayotgan shaxs ushlash choralarini ko'rayotgan shaxsni yoki boshqa fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'iga, huquqlariga, davlat yoki jamiyat manfaatlariga ijtimoiy xavfli tajovuz qilganida zaruriy himoya choralari qo'llaniladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi tavsiyalarni taklif etish maqsadga muvofiq:

— Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlari jamoat joylarida, transportda, odamlar ko'p to'planadigan joy (bozorlar, to'y marosimlari, ommaviy bayram tadbirlari va h.k.)larda gumon qilinuvchi yoki jamoat tartibini buzuvchi shaxsga, ma'muriy huquqbuzarlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2021 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida jismoniy tayyorgarlik va sportni tashkillashtirish bo'yicha vaqtinchalik qo'llanmani tasdiqlash to'g'risida"gi 107-sonli buyrug'ining 192-bandidagi qo'l jangi maxsus usullari 32-mashqda ko'rsatilgan «Tik turgan holatda qo'lga olish usullari»dan: oldindan kelganda «siltash», «sho'ng'ish», «qulf» va orqadan kelganda qo'lini orqasiga qayirib qo'lga olishning «turtish» usullarini va shu bilan birga gumon qilinuvchining orqa tomonidan kelib, kaft-bilak bo'g'iniga

«qo'ltiqlab olish», yon tomondan kelib, qo'lni tirsakdan yoki yelkalardan o'tkazib tirsak bo'g'iniga og'riq berish usullarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Xodim Ushbu usullarni qo'llanilganida yon-atrofdagi aholini o'ziga jalb qilish holatlari kamroq yuz beradi;

— xodimga sovuq qurol yoki o'qotar qurollar bilan xavf solinganida 107-sonli buyruqning 192-bandida ko'rsatilgan «qurol bilan qo'l jangi usullari» 31-mashqda ko'rsatilgan qurolsizlantirish usullarini qo'llagan holda, tartibbuzarni unga tan jarohati yetkazmasdan vaziyatdan kelib chiqib, «richag ichkariga», «richag tashqariga» usullarini qo'llab, og'riq ta'sirida qo'lga olish mumkin;

— xodimning qonuniy talablariga bo'ysunmasdan, qarshilik ko'rsatib qo'l-oyoq zarbalari bilan hujumga o'tsa, gumon qilinuvchiga nisbatan MGning 107-sonli buyrug'ining 192-bandida ko'rsatilgan, 30-mashq, qurolsiz qo'l jangi usullari badanga yengil jarohat yetkazib qo'llaniladi;

— yuqorida aytib o'tilgan vaziyatlarda jinoyatchi, huquqbuzar, tartibbuzar shaxslarga nisbatan usullar qo'llash mumkin hollarda MGning 107-sonli buyrug'ining 192-bandida keltirilgan «tik turgan holatda (yiqitish) kurash usullari» qo'llaniladi. Bular — «bo'ksadan oshirib tashlash», «yelkadan oshirib tashlash», «oldindan, orqadan chalib yiqitish» va h.k. usullar. Bunda jinoyatchini tezkor qo'lga olish uchun yerga yiqitib yengil tan jarohati yetkazib qo'lga olinishi maqsadga muvofiq bo'ladi;

— xodimni jamoat tartibini buzuvchi, jinoyatchi oldi, orqa tomonidan quchib olganda, qo'llaridan, sochidan, kiyimidan, oyoqlaridan ushlab olganida MGning 107-sonli buyrug'ining 192-bandidagi 30-mashq – bo'g'ish va ushlashlardan qutulish usullarini qo'llab noqulay vaziyatdan qutulib chiqib qo'lga olishlari mumkin.

MG harbiy xizmatchilari huquqbuzarlarga huquqni muhofaza qiluvchi organi xodimi sifatida berilgan qonuniy talablarini bajarishi uchun qonunda qancha vaqt berilishi belgilanmagan. Vaziyatdan kelib chiqib, bu vaqt oralig'i har xil bo'lishi mumkin: bir soniyadan to bir necha kungacha. Masalan, garovga olinganlarni qutqarish.

Ogohlantirilmaydigan va vaqt berilmaydigan holatlar:

— vaqtni o'tkazish fuqaroning yoki xodimning sog'lig'i va hayotiga bevosita xavf tug'dirsa masalan, baland joylardan tashlab, itarib yuborish, bo'g'ish, cho'ktirish, og'ir buyumlar bilan zarba berish yoki chopish va hokazolar;

— vaqtni kechiktirish yanada og'irroq oqibatga olib keladigan – portlatish, temir yo'lda qasddan sodir etiladigan hodisalar – poyezdni izdan chiqarish, zaharli moddalarni chiqarib yuborish va shu kabilar;

— jinoyatchini qo'lga olish vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi xodimi pistirmadan yashirinib turib tashlanganda.

Rossiya Federatsiyasining "Politsiya haqida"gi qonuni (20 moddasi)da ta'kidlanishicha «politsiya xodimi shaxsan yoxud guruh tarkibida jismoniy kuch ishlatish, shu jumladan kurashning jangovar usullarini, agar kuch ishlatmaslik yo'llari bilan politsiya zimmasiga yuklatilgan majburiyatini bajarish imkoniyati bo'lmasa:

1) jinoiy va ma'muriy huquqbuzarliklarni to'xtatish uchun;

2) jinoiy va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni hududiy organ yoki politsiya bo'linmasi, munitsipal organlar xizmati va boshqa xizmat xonalariga yetkazib kelishda;

3) politsiya xodimining qonuniy talablariga qarshi harakatlar sodir etib bo'ysunmaganida qo'llash huquqiga egadir».

Jismoniy kuchni qo'llash choralari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

1. Kurashning jangovar usullari, qo'l jangining xohlangan tizimiga kiruvchi – boks, dzyudo, sambo, karate va shu kabi yoki umuman boshqa kurash usullaridan olingan, shu jumladan, og'ritish va bo'g'ish usullarini ham qo'llashga ruxsat etiladi. Alohida holatlarda masalan, politsiya xodimi zaruriy mudofaaga majbur vaziyatga tushib qolgan taqdirda o'limga yoki jiddiy jarohatlanishga yo'naltirilgan usul va zarbalar ham qo'llanilishi mumkin.

2. Faqat mushak kuchi bilan ta'sir o'tkazishga mast odamni maxsus avtoulovga chiqarishda, jinoyatchi qochib yashirinishga uringan, avtoulov kalitini olib qo'ygan hollarida kuch ishlatish, jinoyatchini qo'lga olish maqsadida eshikni oyoq, yelka bilan buzib kirish va boshqalar misol bo'la oladi.

Ko‘rinib turibdiki, bunday shakldagi jismoniy kuch ishlatish oddiy fuqarolarga nisbatan ham (masalan, jinoyat sodir etilgan yoki maxsus operatsiya o‘tkazish joylaridan qiziquvchi odamlarni kuzatib olib chiqib ketishda) qo‘llanilishi mumkin.

Politsiya xodimi har qanday holda ham jismoniy kuch ishlatishiga to‘g‘ri keladimi, degan savolga mutaxassislar shunday javob beradilar. Quyidagi hollarda shaxs (yoki fuqaro), politsiya xodimining quyidagi qonuniy talablarini bajarishdan bosh tortsa, huquqbuzarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish choralarini ko‘rishi mumkin:

1) ko‘rsatilgan joyga borishdan, turgan joyida qolishdan bosh tortish yoki qochish;

2) kirish lozim bo‘lgan biror-bir xonaga, hududga, transport vositasiga yoki yana boshqa kerakli obyektlarga kirish yo‘lini to‘sish hollarida;

3) kimligidan qat’iy nazar, kerakli shaxslar oldiga kiritish, buyum yoki hujjatlarni ko‘zdan kechirish imkoniyatini ta’minlashda.

Xulosa qilib aytganda, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, huquqni muhofaza qiluvchi xodimi amalga oshirilgan harakatlarning qonuniyligiga tinch xonalarda turib baho beriladi. Vaholanki, jismoniy kuch ishlatish majburlov choralari odatda murakkab ruhiy zo‘riqish sharoitida, jinoyatchi bilan yuzma-yuz to‘qnashuv vaziyatlarida ro‘y beradi, imkoniyat cheklangan, yuz berayotgan holatni atroflicha baholashga vaqt bo‘lmagan, qo‘rquv ong imkoniyatlarini qisqartirgan, irodani susaytirgan hollarda yuz beradi. Shu bois, MG harbiy xizmatchi va xodimlari huquqni muhofaza qilishda jismoniy kuch bilan majburlov choralarini, avvalo, «O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya to‘g‘risida»gi qonun normalariga, hukumat qarorlariga, idoraviy buyruqlarga asoslangan holda, bosiqlik bilan eng kam (minimum) zarar yetkazgan holda qo‘llashi lozim. Agar harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatiga tegishli qonunlarga amal qilgan holda vakolati doirasida jismoniy kuch ishlatish orqali majburlov choralarini qo‘llasa, uning harakatlari qonuniy hisoblanib, qo‘lga olish chog‘ida yetkazgan zarar qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, u javobgarlikka tortilmaydi.

Jismoniy kuch ishlatish choralarini qo‘llashdan oldin jarayonga aniqlik kiritishga to‘g‘ri keladi: kuch ishlatish choralari yordamida faqat harakat faoliyati bilan amalga oshiriladigan jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklar to‘xtatiladi. Qonunga xilof ravishda yashash joyidan ro‘yxatdan o‘tmagan, davlat tomonidan karantin vaqti e’lon qilinishiga qaramay, niqob taqmagan hollarda, tegishli hujjatlarsiz yurish kabilarda xodimga qarshi harakat faoliyati amalga oshirilmayapti, bunday hollarda jismoniy kuch ishlatish yo‘li bilan majburlov choralari qo‘llanilmaydi.

Homiladorlik belgilari ma’lum bo‘lib qolgan ayollarga, voyaga yetmaganlarga, aqli noraso, nogironlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish majburlov choralarini ayniqsa, qo‘l jangi usullarini qo‘llash ***taqiqlanadi.*** Qurolli qarshilik ko‘rsatilgan, ko‘pchilik bo‘lib yoki shaxsan o‘zi fuqarolar yoxud xodimning sog‘lig‘iga, hayotiga tajovuz qilish hollari bundan mustasno.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш. М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ишончли ҳимоя қилинмоғи зарур//Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент, 2017. – Б.312.

2. Конституция – эркин ва фровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганнинг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. – 2017. - 8 декабрь

3. Жабборов З.Қ. Ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсни ушлаш вақтида зарар етказишга оид жиноят-ҳуқуқий нормаларни қўллаш амалиётини такомиллаштириш (Ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юрид. фан. бўйича фалс. докри. (PhD). дис. автореф. – Т., 2019. – Б.3.

4. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 38-сон, 438-модда; 2017 й., 24-сон, 487-модда, 37-сон, 978-модда

5. Жабборов З.Қ. Ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсни ушлаш вақтида зарар етказишга оид жиноят-ҳуқуқий нормаларни қўллаш амалиётини такомиллаштириш (Ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юрид. фан. бўйича фалс. док-

ри. (PhD). дис. автореф. – Т., 2019. – 52 б.

6. О полиции: Федеральный закон Российской Федерации от 07 февраля 2011 г.

7. Соловей Ю.П., Черников В.В. Комментарий к Закону Российской Федерации «О милиции». – М.: «Проспект», 2000.

8. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ишончли ҳимоя қилинмоғи зарур//Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т., 2017. – Б.312.

9. Жабборов З.Қ. Ижтимоий хавфли қилмиш содир этган шахсни ушлаш вақтида зарар етказишга оид жиноят-ҳуқуқий нормаларни қўллаш амалиётини такомиллаштириш (Ички ишлар органлари фаолияти мисолида): Юрид. фан. бўйича фалс. д-ри. (PhD).дис. автореф. – Т., 2019. – Б.3.

10. О полиции: Федеральный закон Российской Федерации от 07 февраля 2011 г. —URL: ...

11. Соловей Ю.П., Комментарий к Закону Российской Федерации «О милиции»/ Ю.П. Соловей, В.В. Черников. – М.: «Проспект», 2000.

12. https://kun.uz/news/2020/08/07/vazir-ichki-ishlar-xodimlari-tomonidan-kuch-ishlatish-holatlari-boyicha -izoh-berdi

Atashayxov A.A. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarining jamoat xavfsizligini ta'minlashda jismoniy kuch ishlatish xususiyatlari

Maqolada Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari faoliyatida jismoniy kuch ishlatishning xususiyatlari ko'rib chiqilib, huquqbuzarliklarni qo'l jangi usullarini ishlatish orqali qo'lga olishning huquqiy asoslari tahlil qilingan. HMQO kasbiy faoliyatida jismoniy kuchni qonuniy ishlatish borasida O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti "Jismoniy tayyorgarlik va sport" kafedrasining o'quv jarayoni misolida o'rganib chiqilib, samarali ta'lim berish muammolari aniqlangan.

Kalit so'zlar: jismoniy kuch, Milliy gvardiya, harbiy xizmatchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimi, kasbiy faoliyat, o'qitish, huquqbuzar, qo'lga olish, huquqiy asoslar.

Аташайхов А.А. Особенности применения физической силы военнослужащими Национальной гвардии по обеспечению общественной безопасности

В статье рассматриваются особенности применения физической силы в деятельности Национальной гвардии по обеспечению общественной безопасности, проанализированы правовые основы задержания правонарушителей путем применения приемов рукопашного боя. На примере учебной деятельности кафедры физической подготовки и спорта Университета общественной безопасности Республики Узбекистан определены проблемы эффективности обучения сотрудников правоохранительных органов относительно правомерного применения ими физической силы в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: физическая сила, Национальная гвардия, военнослужащий, сотрудник правоохранительных органов, профессиональная деятельность, обучение, правонарушитель, задержание, правовые основы.

Atashayxov A.A. Features of the use of physical force by the servicement of the national guard to ensure public safety

The article examines the features of the use of physical force in the activities of the National Guard to ensure public safety, analyzes the legal basis for the detention of offenders by using hand-to-hand combat techniques. Using the example of the educational activities of the Department of Physical Training and Sports of the University of Public Security of the Republic of Uzbekistan, the problems of the effectiveness of training law enforcement officers regarding the lawful use of physical force in their professional activities are identified.

Key words: Physical force, National guard, soldier, law enforcement officer, professional activity, training, offender, detention, legal framework.

Xalmuxamedov Dilshod Gayratjanovich,
O‘zbekiston Respublikasi Strategik tahlil va istiqbolni belgilash oliy maktabi tinglovchisi

JAMOAT XAVFSIZLIGI TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI

Bugungi kunda mamlakatimizda xavfsizlikning barcha sohalarini, shu jumladan jamoat xavfsizligini ta’minlash dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda.

Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, oxirgi 15-20 yil davomida jamoat tartibi va xavfsizligini saqlash masalalariga noto‘g‘ri yondashuv tufayli bu muhim masala e’tibordan chetda qolganligi, Xavfsizlik kengashi ham bunga yetarlicha e’tibor bermagani hamda bu tizimning aniq egasi bo‘lmaganligi, bu masalalar bilan shug‘ullanadigan bo‘linmalar goh Ichki ishlar vazirligi, goh Mudofaa vazirligi tasarrufida bo‘lib kelgan edi [1].

Darhaqiqat, jamoat xavfsizligini aniq va ehtimolli xavf hamda tahdidlarni inobatga olib tashkil etish shuningdek, mazkur tizimning samarali faoliyatini ta'minlash hamda doimo takomillashtirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda esa birinchi navbatda jamoat xavfsizligini ta’minlashni nazariy va konseptual asoslarga tayangan holda amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, tinchlik va favqulodda vaziyatlar sharoitida jamoat xavfsizligi sohasidagi ilmiy-amaliy masalalarning dolzarbligini quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin, xususan:

– jamoat xavfsizligini ta’minlash sifat jihatidan huquqiy tartibga solishning yangi bosqichiga ko‘tarilib, idoraviy huquqiy tartibga solish bosqichidan chiqib ketganligi;

– davlat boshqaruvi organlarida jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul sub’ektlarning vakolatlaridan samarali foydalanish, belgilangan hududlarda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlarini cheklash kabi maxsus choralardan foydalanish uchun zaruriyat paydo bo‘lganligi;

–jamoat xavfsizligini ta’minlash zarurligini belgilaydigan obyektlar, hududlar, predmetlarning turlari va soni ko‘payib borayotganligi hamda jamoat xavfsizligini yetarli darajada ta’minlashda ularning barqaror faoliyat yuritishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish kerakligi;

– favqulodda vaziyatlarda jamoat xavfsizligini ta’minlovchi organlar tomonidan qo‘llaniladigan choralar davlat tomonidan huquqiy tartibga solishda “maxsus choralar” sifatida ko‘rilishi.

“Jamoat xavfsizligi” tushunchasining tahlil qilar ekanmiz, shuni alohida ta’kidlash zarurki, bugungi kunda ilmiy ishlarda ushbu tushunchaning mohiyatini yoritishda ko‘plab qarashlar shakllanganini ko‘rishimiz mumkin. “Jamoat xavfsizligi” tushunchasi turli ilmiy sohalar hamda huquqni muhofaza qiluvchi va ijro organlari amaliyotida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Biroq, ushbu tushunchaning keng qo‘llanilishiga qaramay hozirgi kunda uning ta’rifiga yagona yondashuv mavjud emas. Shu sababli “jamoat xavfsizligi” tushunchasining mazmun va mohiyatini aniqlash bo‘yicha ilmiy adabiyotlar, amaldagi qonun hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish talab etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yilning 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Farmonida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi”da jamoat xavfsizligi tushunchasiga jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlardan va boshqa tahdidlardan himoyalanganlik holati bo‘lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari qonuniy manfaatlari ro‘yobga chiqarilishini ta’minlaydi” deb ta’rif berilgan. Bundan tashqari, ushbu Konsepsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlash tushunchasining ta’rifi davlat

tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim deb ko‘rsatilgan [2].

Jamoat xavfsizligi konsepsiyasida jamoat xavfsizligi tushunchasiga ta’rif berilgani bilan, ushbu tushunchani nazariy tomondan ilmiy asoslash va zamonaviy bosqichda uning mohiyatini anglash shakllantirish tadqiqot faoliyati uchun ham, huquq va ijro amaliyoti uchun ham katta ahamiyatga ega. Ta’kidlash joizki, mamlakat xavfsizligining prinsipial yangi konsepsiyasiga o‘tishi sharoitida ushbu masalani nazariy tadqiq etish nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Jamoat xavfsizligi tushunchasini aniq belgilashda avvalo, “jamoat tartibi”, “fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi”, “jamoat xavfsizligi” va ular bilan bog‘liq tushunchalarning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri talqin qilish hamda ilmiy asoslangan ta’riflarni shakllantirish uchun “jamoat”, “tartib”, “saqlash”, “xavfsizlik”, “ta’minlash” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolarini bilish talab qilinadi.

Jamoat xavfsizligini tushunchasining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda o‘zbek tilining izohli lug‘atiga asoslanib quyidagi tushunchalarning ta’rifini berish maqsadga muvofiqdir:

“jamoat” arabcha so‘z bo‘lib – birlashma, uyushma, guruh, xalq, xaloyiq, ko‘pchilik, ko‘pchilikka, ommaga qarashli, tegishli kabi ma’nolarni anglatadi [3];

“tartib” arabcha so‘z bo‘lib – tayyorlash, tashkil etish, intizom, moyillik, rag‘bat, reja ma’nosini anglatib, ish-harakat, tadbir-chora va sh.k. ning rioya qilinadigan ma’lum izchillik, reja, qonun-qoida va shu qonun-qoidalarga javob beradigan holatni bildiradi [4];“saqlash” – saqlamoq so‘ziga sinonim bo‘lib, ehtiyot qilmoq, ehtiyotkorlik bilan asramoq, asrab-avaylab ishlatmoq, himoya, muhofaza, g‘amxo‘rlik qilmoq, tashqi ta’sirdan muhofaza qilmoq, rioya qilmoq, muayyan holatga amal qilmoq degan ma’nolarni anglatadi [5];

“xavfsizlik” – bu xavf-xatarning yo‘qligi, xavf bo‘lmagan holatni anglatadi [6];

“ta’minlash” (o‘zagi arabcha “ta’min” – kafolat, ta’minlash, garov, xavfsizlik, “omin” deyish, omonlik berish): ta’min qilmoq ma’nosini anglatib, biror narsaning amalga oshishi, ro‘yobga chiqishi, muhayyo bo‘lishi uchun zarur sharoit yaratmoq degan tarzda talqin qilgan [7].

O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida jamoat xavfsizligi shaxs, jamiyat va davlatning jinoyatchilik, boshqa huquqqa xilof harakatlar, favqulodda holatlar oqibatlari, ijtimoiy nizolar, tabiiy ofatlar, epidemiya, epizootiya, yirik halokatlar, avariyalar va yong‘inlardan himoyalanganlik holatidir deb qayd etilgan [8]. Mazkur ta’rifda jamoat xavfsizligi yuqori xavf manbalari salbiy xususiyat yoki xossalarining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar sifatida ta’riflangan.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlarda jamoat xavfsizligiga - jamiyat hayotining xavfsiz sharoiti, ya’ni shaxslarning daxlsizligi, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘i, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlari, har qanday davlat yoki jamoat birlashmalarining bir me’yorda ish olib borilishi deb ta’rif berilgan [9].

Jamoat tartibini saqlash tushunchasi esa O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, tashkilotlarning normal faoliyat ko‘rsatishi, fuqarolarning mehnat qilishi va dam olishi uchun to‘liq sharoit yaratishga, ularning sha’ni, qadr-qimmatini hamda umumaxloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga yo‘naltirilgan huquqiy va ijtimoiy normalar asosida jamoat joylarida yuzaga keladigan va rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi deb ko‘rsatilgan [10].

Ayrim ilmiy adabiyotlarda jamoat tartibi bu amaldagi huquq va ijtimoiy(axloq) normalariga rioya qilish orqali fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini, ko‘pchilikning, ommaning xavfsizligini ta’minlashga, hududdagi jismoniy va yuridik shaxslarning normal faoliyat ko‘rsatishi, insonlarning mehnat qilishi va dam olishlari uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan, shuningdek ularning sha’ni, insoniy qadr-qimmatini va ijtimoiy axloq nor-

malarini hurmat qilish bo‘yicha asosan jamoat joylarida vujudga keladigan va taraqqiy etib boradigan ijtimoiy munosabatlar tizimi deb ta’riflangan.

Shu bilan bir qatorda, fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi haqida esa bu har bir fuqaroning hayoti, sog‘lig‘i, huquq va erkinliklari, sha’n-shavkati va qadr-qimmati, shaxsiy va turar joy daxlsizligiga qarshi qaratilgan jinoiy va boshqa harakatlardan muhofaza qilinganlik holati deb ta’riflangan. Ularning shaxsiy xavfsizligini ta’minlash haqida gap ketganda, davlat organlarining har bir insonning huquq va erkinliklarini ta’minlashi va himoyalashi tushuniladi [11]..

Ko‘rinib turibdiki, jamoat xavfsizligini ta’minlash – bu bir vaqtning o‘zida fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini va jamoat tartibini saqlash tushunchalarini ham o‘z ichiga qamrab oladi. Lekin “fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi” va “jamoat tartibi” tushunchalari “jamoat xavfsizligi” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, o‘zaro bir-biridan farq qiladi.

Bevosita jamoat xavfsizligi tushunchasi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu tushunchaning mohiyatini ochib berishda tadqiqotchilarning **ikkita asosiy yondashuvlari mavjud**.

Birinchi yondashuv tarafdorlari jamoat xavfsizligi tushunchasini ijtimoiy holat sifatida, ya’ni shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati sifatida ko‘rib chiqadi.

Xususan, jamoat xavfsizligi tushunchasiga D.A.Korotchenkovning fikricha, jamiyat taraqqiyotining ma’lum bir bosqichida jamoat va qonunchilik tomonidan tan olingan shaxsning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganlik holati tushuniladi. Qonunchilikni tartibga solishdagi bo‘shliq va “jamoat xavfsizligi” kategoriyasi mazmuni va uning jamoat tartibi tushunchasi bilan bog‘liqligi bo‘yicha turli xil fikrlarning vujudga kelishini ushbu tadqiqotchi jamoat xavfsizligi ob’ektlari manfaatlarining aniq belgilangan ro‘yxati yo‘qligi sifatida ko‘rib chiqadi [12].

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar jamoat xavfsizligi tushunchasiga ta’rif berganda, u huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan fuqarolik jamiyatining konstitutsiyaviy va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish holatini tushuntiradi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslar manfaatlarining zarar yetkazish ehtimoli bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy yoki texnogen omillar va ushbu omillarning paydo bo‘lishi yoki rivojlanishini belgilaydigan huquqbuzarliklar va huquqiy hodisalardan himoyalanganligini ko‘rsatadi. Ushbu ta’rif orqali tadqiqotchi xavfsizlik obyektlarining manfaatlarining ahamiyatiga emas balki uning asosi hisoblangan fuqarolik jamiyatining manfaatlariga ahamiyat beradi [13].

Ilmiy tadqiqotchilardan S.M.Mikailov ham jamoat xavfsizligi atamasini talqin qilishda turli yondashuvlarni tahlil qilib, uni fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini, jamiyat tinchligi, jamoat va davlat institutlarining normal faoliyatining muhofazasi holati sifatida belgilaydi hamda jamoat xavfsizligi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari, turmush darajasi va sifatini, davlatning barqaror rivojlanishi va xavfsizligini ta’minlash uchun turli xavf va tahdidlarning oldini olish yoki bartaraf etish qobiliyatini ta’minlashga imkon beradi [14].

Bundan tashqari, I.V.Demin ham “jamoat xavfsizligi” tushunchasini jamiyatning turli hayotiy muhim manfaatlari himoya qilingan, ehtimoliy va potensial ichki va tashqi tahdidlar minimum darajagacha pasaytirilgan, shaxs va jamiyatning progressiv rivojlanishi uchun imkoniyatlar ta’minlangan holat sifatida tavsiflashni taklif etgan [15].

Shu bilan bir qatorda, ayrim mutaxassislarning fikricha, jamoat xavfsizligi diniy, milliy va mehnat asosidagi nizolarning yo‘qligi bilan tavsiflangan holat ekanligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, jamoat xavfsizligi deganda, eng muhimi, jamoat osoyishtaligi va fuqarolarning ularni har qanday tahdid va shu kabi xatti-harakatlardan himoya qilishga ishonchi, huquqni muhofaza qilish tizimi, birinchi navbatda, politsiya tizimi tomonidan ta’minlanadigan davlat tushuniladi [16].

Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa, jamoat xavfsizligi tushunchasini shaxs, jamiyat va davlat hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish jarayonida rivojlanadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida tushunadi.

Xususan, professor L.L.Popovning fikricha, jamoat xavfsizligi deganda odamlar va umuman jamiyat uchun ortib borayotgan xavf-xatarni keltirib chiqaradigan ob'ektlar va ob'ektlardan foydalanishda, alohida sharoitlar, tabiiy ofat yoki texnogen xususiyatdagi boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, huquqiy, texnik va boshqa turdagi normalarga muvofiq yuzaga keladigan jamoat munosabatlari tizimi tushuniladi [17].

Jamoat xavfsizligi tushunchasining mazmun-mohiyatini ushbu yondashuv asosida nisbatan aniq va to'g'ri ochib bergan ta'rif A.V. Jaglin tomonidan berilgan: "jamoat xavfsizligi - shaxs, jamiyat va davlatni jamoat tartibiga noqonuniy tajovuzlardan kelib chiquvchi tahdidlardan, shuningdek ijtimoiy, tabiiy va texnogen xususiyatga ega bo'lgan falokatlardan himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimidir" [18].

Shu bilan bir qatorda, rus olimlari "jamoat xavfsizligi" tushunchasini inson hayoti, sog'lig'i, moddiy qadriyatlari va atrof muhitga xavf soladigan tahdidlarni oldini olish va bartaraf etish maqsadida huquqiy va tashkiliy-texnik me'yorlar bilan tartibga solinadigan yuqori darajadagi munosabatlar yig'indisi bilan izohlaydi [19]. L.M. Rozina esa, jamoat xavfsizligi tushunchasini jamiyat uchun xavf solish darajasi yuqori bo'lgan tabiiy va boshqa favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq maxsus sharoitlarni yuzaga keltiruvchi munosabatlar tizimi bilan bog'laydi [20].

Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar jamoat xavfsizligini, mansabdor shaxslar yoki fuqarolarning faoliyati natijasida atrofdagilar uchun xavfi ortishi bilan bog'liq bo'lgan binolar, inshootlarni yo'q qilish yoki shikastlanishini oldini olish oqibatida kelib chiqishi mumkin bo'lgan, boshqa odamlarning hayoti va salomatligini muhofaza qilish maqsadida davlat tomonidan belgilangan maxsus tashkiliy-texnik qoidalarga qat'iy rioya qilish hamda ijro etishga asoslangan munosabatlar tizimi shaklida ifodalaydi [21]. Ushbu yondashuv tarafdorlaridan biri V.A. Osipova jamoat xavfsizligini huquqiy ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlar majmui, deb ta'riflagan [22].

Ilmiy tadqiqotchi V.M.Vasinning pozitsiyasi ham alohida qiziqish uyg'otadi. Olimning fikricha, jamoat xavfsizligini bir vaqtning o'zida bir nechta jihatlariga qarab belgilash maqsadga muvofiqdir, xususan: jamoat xavfsizligi - bu shaxs va jamiyat hayoti davomida vujudga keladigan, davlat organlari, jamoat tashkilotlari va fuqarolarning xavfsiz faoliyat yuritishi, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishi, boshqaruv, ma'muriy-huquqiy va axborot-huquqiy jihatdan aniq belgilangan jamoat munosabatlarining ma'muriy va axborot huquqi normalari bilan himoyalangan holatidir [23].

Jamoat xavfsizligi tushunchasining mohiyatini ochib berish bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan **yondashuvlardan tashqari ayrim mutaxassislar** jamoat xavfsizligi tushunchasini keng va tor ma'noda ko'rib chiqadi. Xususan, jamoat xavfsizligi keng ma'noda davlat, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishini, har bir fuqaro uchun osoyishtalik muhitini ta'minlaydigan huquqiy, jumladan, huquqni muhofaza qilish choralari majmuidir. Tor ma'noda jamoat xavfsizligi - bu odamlar hayoti jarayonida vujudga keladigan mustahkam irodali ijtimoiy munosabatlar, ularning jamoat joylarida sivilizatsiyalashgan jamiyatning huquqiy normalari, qoidalari va urf-odatlarining amaldagi ko'rsatmalariga muvofiq muloqot qilish tartibidir. Shu bilan birga, jamoat xavfsizligi mazmuni tor ma'noda jamoat xavfsizligi bilan bog'liq munosabatlarni va davlat organlarining, shu jumladan huquqni muhofaza qilish organlarining amaliy faoliyatini tartibga solishga qaratilgan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi [24].

Biroq, yuqorida keltirilgan ta'riflarda jamoat xavfsizligini tushunchasining umumiy jihatlari aks ettirilganligi, shuningdek jamoat xavfsizligini ta'minlashning shakli, usuli, sub'ekti, ob'ekti va kuch-vositalar ahamiyati

nazarda tutilmaganligiga ahamiyat berish muhim.

Jamoat xavfsizligini ta'minlash tushunchasiga ilmiy yondashuvlarni tahlil qilganda A.N.Bosxamdjiyevaning fikriga ko'ra, jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat faoliyatining mustaqil va o'ziga xos sohasi hisoblanib, yaqin kelajakda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni sifat jihatidan isloh qilish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlashda davlat boshqaruvining samarali va maxsus tizimini yaratish bilan zamonaviy ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatlarga moslashtirish zarur deb xulosa qiladi [25].

Tadqiqotchilar jamiyatni ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish sifatida jamoat xavfsizligini juda muhim nazariy va amaliy muammo ekanligini ko'rsatadi, uni ta'minlash boshqa ijtimoiy munosabatlar qatori, mamlakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqni muhofaza qilish strategiyasini belgilashga bevosita bog'liqligini ta'kidlaydi [26].

Jamoat xavfsizligining ma'muriy-huquqiy rejimi yuzasidan mutaxassislar ijtimoiy obyektiv va ruxsat beruvchi, nazorat va majburiy usullardan foydalanadigan davlat organlari faoliyatining jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha huquqiy rejimi tushunilishi kerakligini ko'rsatadi. Ushbu rejimni alohida ma'muriy-huquqiy rejimga, shuningdek uning turlariga: ijtimoiy ta'minot, yo'l harakati xavfsizligi, yong'in, sanitariya, texnogen xavfsizlik kabilarga tasniflaydi. Jamoat xavfsizligini ta'minlashning ma'muriy-huquqiy rejimlarining o'ziga xos turlari va ularni amalga oshirish chegaralari ularning maqsadi, mamlakatdagi va muayyan mintaqadagi vaziyatning holatini hisobga olgan holda belgilanadi [27].

Xuddi shunday pozitsiyani turli tadqiqotchilar ham ilgari surgan. Ularning fikricha, jamoat xavfsizligi quyidagi institutlarni o'z ichiga oladi: terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, korrupsiya, jinoiy va boshqa noqonuniy tajovuzlarga qarshi kurash, aholini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish, noqonuniy migratsiyaga qarshi kurash, jamoat xavfsizligining ayrim turlarini (yong'in, kimyoviy, biologik, yadroviy, radiatsiyaviy, gidrometeorologik, sanoat va transport xavfsizligini) ta'minlash, jamoat xavfsizligini ta'minlashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ekologik va axborot xavfsizligi hamda oziq-ovqat xavfsizligi institutlari [28].

"Jamoat xavfsizligi" tushunchasi va uning mohiyatini talqin etish yuzasidan turli yondashuvlar bo'yicha quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin: birinchidan, ta'riflarning aksariyati uning turli tomonlarini va xavfsizlik hamda himoya qilish obyektlarini aks ettiradi; ikkinchidan esa, tadqiqotchilar jamoat xavfsizligining faqat bitta mazmunli jihatiga ya'ni turli tahdidlardan (ijtimoiy, texnogen, tabiiy va boshqalar) himoyalanish darajasiga e'tibor qaratadilar.

Bu esa o'z navbatida ta'riflarda jamoat xavfsizligiga oid hamma xususiyatlar o'z ifodasini topmaganligini ko'rishimiz mumkin. Jamoat xavfsizligi nafaqat shaxs, jamiyatning yoki davlat manfaatlarining muayyan darajada ta'minlanganligi balki o'sha shaxs yoki butun bir jamiyatning barqaror rivojlanishiga xavf tug'diruvchi omillardan qayd darajada (masalan, huquqiy yoki ijtimoiy) himoyalanganlik holatini ham ifodalaydigan fenomendir. Shu xususiyatlar yuqorida tahlil etilgan ta'riflarda yoritilmaganligi sababli jamoat xavfsizligi tahdidlarni ham kengroq yoritish zarur.

Ta'kidlash joizki, jamoat xavfsizligini ta'minlashning maqsadi jamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining ro'yobga chiqarish uchun qulay shart-sharoit yaratishdan iborat. Aholining siyosiy-huquqiy madaniyatini shakllantirish, siyosiy va ijtimoiy faolligini kuchaytirish, jamoatchilik nazoratining samarali mexanizmlarini shakllantirish, jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari faoliyati uchun sharoit yaratish va jamiyatning ma'naviy tiklanishini hamda milliy o'zlikni anglashning rivojlanishini ta'minlash jamiyatning asosiy hayotiy muhim manfaatlari hisoblanadi.

Jamiyatning ushbu hayotiy muhim

manfaatlari ya'ni jamoat xavfsizligiga qaratilgan tahdidlarning asosiy manbalari sifatida esa quyidagilarni keltirib o'tish lozim, xususan:

- davlat va jamiyat tomonidan jinoiy va boshqa noqonuniy tajovuzlarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi va rivojlanishining oldini olish borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlarning talab darajasida emasligi;

- mamlakatda huquqbuzarliklar, jinoiy tahdidlarning yangi turlari paydo bo'lib, kriminogen vaziyatning murakkabligicha qolayotganligi;

- terroristik tahdidlarning mavjudligi;

- fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, yuqori xavf, potensial xavfli infratuzilma va hayotni qo'llab-quvvatlash obyektlari, shuningdek, odamlarning ommaviy yashash joylarini o'z ichiga olgan terroristik hujumlarning potensial maqsadlarini himoya qilish talab etilayotganligi;

- giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning prekursorlarining noqonuniy savdosi mamlakatning yirik shaharlari va chegara hududlarida muammo bo'lib qolayotganligi;

- ichkilikbozlik yoki giyohvand, mastlik holatida jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish, shuningdek, ushbu davlatda transport va yo'l harakati sohasida ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish muammosi mavjudligi;

- mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashishning zamon talablariga mos bo'lgan huquqiy va tashkiliy asoslari shakllanishiga qaramay, bu illatning tarqalishi kamaymayotganligi;

- fuqarolarning ehtiyojlari qondirilmayotganligi, inson qadrini ulug'lash past darajada qolayotganligi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalarimizga tayanib jamoat xavfsizligiga quyidagicha ta'rif berishni lozim topdik, ya'ni ***jamoat xavfsizligi bu*** - *har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishi, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlash, munosib turmush sharoiti tashkil etish, ijtimoiy himoya tizimi va sog'lom ekologik muhit yaratish orqali inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarning himoyalanganlik holati.*

Yuqorida keltirilgan ta'riflar mazmuni quyidagi xulosalarga kelishimiz uchun keraklicha asos bo'lib xizmat qilishi mumkin:

birinchidan, jamoat xavfsizligi milliy xavfsizlikning nisbatan subyektiv/individual va asosan kollektiv elementi sifatida namoyon bo'lib, uni ta'minlash davlatning ustuvor maqsadlaridan biri hisoblanadi;

ikkinchidan, jamoat xavfsizligining ta'minlanganligi bu avvalo har bir fuqaro hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligi va ushbu manfaatlarni ijtimoiy hayotda erkin amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilganlik jarayonidir;

uchinchidan, davlat boshqaruvi, jamoat xavfsizligini ta'minlash mexanizmining asosiy elementidir. Mamlakatni izchil rivojlanishi, davlatning barcha institutlarining samarali o'zaro aloqalari uchun sharoit yaratilishi, fuqarolarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minotining amalga oshirilishi, davlat ishlarini boshqarish masalalarining hal qilinishiga bog'liq;

to'rtinchidan, jamoat xavfsizligini ta'minlashga doir normalarning Konstitutsiya bilan belgilanishi, davlat boshqaruv organlari va fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi vazifalari va majburiyatlarining mustahkamlanishi, kelgusida jamoat xavfsizligini ta'minlash sohasida huquqiy kafolatlarni yaratishga, qonun ustuvorligini ta'minlashga, aholining tinch va osuda hayotini kafolatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Хавфсизлик кенгашининг кенгайтирилган йиғилишидаги нутқи.

Т.- 2018й. 10.01.2018

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириши чора тадбирлари тўғрисида”ги 2021 йил 29 ноябрь кунги ПФ-27-сон Фармони.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т., 2006.

4. Ўзбекистон юридик энциклопедияси. – 2010. – Б. 167.

5. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шарҳлар. – Т: «Илм зиё», 2006. – Б. 682.

6. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш асослари. Ўқув қўлланма.- ЖҲУ. Т.2021. б. 5.

7. Коротченков Д.А. Организация административно-правовой охраны общественного порядка и обеспечения общественной безопасности при проведении массовых мероприятий: дисс. канд. юрид. наук. Хабаровск, 2006. С. 25-26.

8. Стахов А.И. Указ. соч. С. 23.

9. Микаилов С.М. Деятельность вневедомственной охраны полиции в сфере обеспечения общественной безопасности // Закон и право. 2013. № 6. С. 80.

10. Демин, И.В. Сущность и содержание понятий «безопасность», «общественная безопасность» и «национальная безопасность» / И.В. Демин // Вестник Екатерининского института. - 2009. - № 1. – С.12.

11. Бельский К.С. Полицейское право/под ред. А. В. Куракина. М.: Изд-во «Дело и Сервис», 2004. 816 с.

12. Попов Л.Л. Административное право (вопросы административно-юрисдикционной деятельности органов внутренних дел). М.: Академия МВД СССР. 1983. 280 с.

13. Жаглин А.В. Общественная безопасность как социальное явление и элемент системы национальной безопасности // Вестник Воронежского института МВД России. - Воронеж, 2007. № 1. - С. 33.

14. Туманов Г.А., Фризко В.И. Общественная безопасность и ее обеспечение в экстремальных условиях // Советское госу-дарство и право. 1989. № 5. С. 5–23.

15. Розин Л.М. Вопросы юрисдикционной деятельности органов внутренних дел. Административное право / под ред.Л.Л. Попова. М., 1983. 178 с.

16. Шамрай, В.Н. Теоретико-правовое обеспечение общественного порядка и общественной безопасности в современных условиях / В.Н. Шармай // Социология и право. - 2012. - № 1. – С. 22.

17. Осипов В.А. Правовая безопасность в системе национальной безопасности // Российская юстиция. 2008. № 11. С. 37–40.

18. Васин В.Н. Право на общественную безопасность. М.: Изд-во «Щит», 1999. 172 с.

19. Ольховський Є.Б. Адміністративно-правові засоби забезпечення громадської безпеки: дис. канд. юрид. наук. Х., 2003. 191 с.

20. Босхамджиева Н.А. Современные проблемы административно-правового обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации // Юридический мир. 2012. № 11. С. 26.

21. Гирько С.И. Обеспечение общественной безопасности в системе мер защиты личности, общества и государства: состояние, проблемы, перспективы // Административное право и процесс. 2009. № 5. С. 8.

22. Сапожников А.И. Административно-правовой режим общественной безопасности: дис. канд. юрид. наук. М., 2005. 198 с.

23. Босхамджиева Н.А. Административно-правовые основы обеспечения общественной безопасности в Российской Федерации: дис. докт. юрид. наук. М., 2013. 369 с.

Xalmuxamedov D.G. Jamoat xavfsizligi tushunchasi va uning mohiyati

Ushbu maqolada jamoat xavfsizligi tushunchasi va mohiyati, jamoat xavfsizligini ta'minlash va ularga tahdidlar manbalari ilmiy-nazariy tahlil etilgan, amalga oshirilgan izlanishlar natijalaridan kelib chiqqan holda tegishli xulosa shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat xavfsizligini ta'minlash, xavfsizlik, tahdidlar.

Халмухамедов Д.Г. Понятие и сущность общественной безопасности

В данной статье анализируются понятие и сущность общественной безопасности, обеспечение общественной безопасности и источники угроз, по результатам исследования формируются соответствующие выводы.

Ключевые слова: общественная безопасность, общественный порядок, обеспечение общественной безопасности, безопасность, угрозы.

Khalmukhamedov D.G. The concept and its essence of public safety

This article analyzes the concept and essence of public security, ensuring public security and sources of threats, according to the results of the study, appropriate conclusions are formed.

Key words: public safety, public order, ensuring public safety, security, threats.

Elov Ashrafjon Asqarjon o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi

EKSTREMIZM TUSHUNCHASINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI

Bugungi kunda yirik siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yo'qotishlarni keltirib chiqaruvchi, jamoat xavfsizligiga real tahdidlardan biri – ekstremizmdir. So'nggi yillarda ekstremizm muammosi olimlar, siyosatchilar, jamoat arboblari tomonidan, shuningdek siyosatshunoslik, sotsiologiya, falsafa, psixologiya, huquqshunoslik fanlarida keng tadqiq etilganligiga qaramay, ilmiy jamoatchilikda uning tushunchasi va muhim belgilari bo'yicha hanuzgacha bahs-munozaralar davom etib kelmoqda.

Xalqaro ekspertlarning fikriga ko'ra, bir qator davlatlarda "ekstremizm" atamasiga keng qamrovli ta'rif berilganligi natijasida ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha davlat organlariga berilgan keng ko'lamli vakolatlar jinoyat qonunchiligida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Diniy va e'tiqod erkinligi maxsus ma'ruzachisi Axmed Shaxidning fikriga ko'ra, "amaliyotda "ekstremizm" atamasining aniq ta'rifining mavjud emasligi davlatlarga o'ta qattiq, nomutanosib va diskriminatsion choralarni ko'rishga imkon beradi, buni inson huquqlarini monitoring qiluvchi xalqaro tashkilotlarning xulosalari tasdiqlaydi, bu esa shaxslarni ayblash bilan bog'liq muammolar davom etayotganligini ko'rsatadi" [1].

2019 yilda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (keyingi o'rinlarda YeXHT) Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining ekspertlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni bo'yicha tayyorlangan tushuntirish hisobotida "YEXHT va boshqa xalqaro tashkilotlar ushbu qonunda "ekstremizm" va "ekstremistik" atamalarni huquqiy tushuncha sifatida qo'llanilishi, ayniqsa jinoyat huquqi kontekstida noaniqligidan xavotirda ekanligini" qayd etgan [2].

Ta'kidlash lozimki, qonunchilikda ekstremizmga oid ta'riflar yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi, qonunning turlicha talqin qilinishiga va o'zboshimchalik bilan qo'llanilishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, "ekstremizm" tushunchasining paydo bo'lish va rivojlanishi, bu borada xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish, ushbu tushuncha ta'rifini bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda ishlab chiqishni talab etadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekstremizm haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar mamlakat siyosiy hayotidagi inqilobiy harakatlarni ifodalash va muhokama qilish davomida kelib chiqqanligini ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, bugungi kunga kelib esa, ekstremizmning maqsadi, obyekti va qo'llanish usullari kengayib, ekstremizm davlat va jamoat xavfsizligiga bevosita jiddiy xavf sifatida shakllandi. Shu bilan birga, ushbu tushunchaga nisbatan ilmiy tadqiqotlarda turli nuqtai nazardan ta'rif berilishi natijasida, turlicha yondashuvlar kelib chiqdi.

Siyosiy fanlar doktori S.A.Sergeyevning qayd etishicha, "ekstremizm keskin qarashlar va ularni amalga oshirishdagi keskin usullarga sodiqlikdir" [3]. S.A.Sergeyev tomonidan berilgan ta'rifda har qanday keskin qarash va harakatlar ekstremizm deb baholangan.

Rus olimi K.O. Nikonovning ta'rifiga ko'ra, "ekstremizm – ruxsat etilgan chegaradan tashqariga chiqadigan va zo'ravonlik qo'llash yoki uni targ'ib qilish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatdir" [4]. Ushbu ta'rifda ham "ekstremizm" tushunchasiga keng ma'noda ta'rif berilib, o'rnatilgan tartibdan chetga chiqish va zo'ravonlik ko'rinishidagi faol faoliyat nazarda tutiladi.

Rossiyalik N.A. Romanovning fikriga ko'ra, "ekstremizm siyosiy kurash sohasidagi

ijtimoiy hodisa bo‘lib, u siyosiy maqsadlarga erishish uchun jamiyatning axloqiy va huquqiy munosabatlariga zid ravishda tizimli, har tomonlama hamda uyushgan zo‘ravonlikdan foydalanish bilan tavsiflanadi” [5]. Bunda, ekstremizmga ijtimoiy hodisa sifatida ta’rif berilib, faqat siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo‘ravonlikda foydalanish deb tavsiflangan. Shu sababli, fikrimizcha ushbu ta’rif ekstremizmning barcha jihatlarini o‘zida to‘liq tavsiflamagan. Masalan, diniy ekstremizm xususiyatlari ushbu ta’rifda nazarda tutilmagan.

Qayd etish lozimki, ko‘pchilik olimlar o‘z ishlarida ekstremizm tushunchasini “tajovuzkor harakat” yoki “kuch ishlatishga moyilligi” sifatida baholab, shaxs yoki bir guruh odamlarning tajovuzkor xatti-harakati, ularni odatdagi tartib qoidalardan tashqariga chiqishi, muammoni hal qilishda kuch ishlatish shakllarini qabul qilishga moyilligi, shaxs huquqi va boshqa shaxsning fikriga nisbatan murosasizligi va boshqa radikal xatti-harakatlarni kiritganlar.

Shuningdek, rus, ingliz, fransuz tilidagi lug‘atlarda ekstremizm tushunchasi asosan siyosiy barqarorlikka tahdid soluvchi qarashlar va xulq-atvor, jamiyat o‘rnatilgan tartib qoidalardan chetga chiqish yoki holati, ushbu harakatlarni targ‘ib qilish deb ta’riflangan.

Masalan, ushbu tushuncha Kembrij lug‘atida “ko‘pchilik odamlar qabul qilmaydigan va asoslanmagan e’tiqodlar”, Kollinzning inglizcha lug‘atida “haddan tashqari chetga chiqish sifati yoki holati”, – deb ta’rif berilgan [6, 7].

A.K. Ruzavinaning fikriga ko‘ra, “ekstremizm - buzg‘unchi fikrdagi harakatlar, guruhlar, birlashmalar, tashkilotlar va partiyalarning jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yoki ma’naviy sohalarini (yoki ularning alohida tarkibiy qismlarini) isloh qilish maqsadida, zamonaviy tashviqot usullarini qo‘llash, tajovuzkorlikdan foydalanishni nazarda tutuvchi noqonuniy faoliyat, davlat va jamiyat uchun xavfli bo‘lgan tahdidlar va sabablarga ko‘ra zo‘ravonlik”da ifodalanadi [8]. Ushbu ta’rifda ekstremizm nafaqat mafkura yoki e’tiqod, balki uning har qanday ko‘rinishlarini ta’kidlaydigan va uni boshqa faoliyat turlaridan ajratib ko‘rsatish imkonini beradigan noqonuniy faoliyatdir. Ushbu faoliyatning maqsadi, jamiyatning turli sohasini isloh qilish sifatida ko‘rsatilgan.

I.N. Seninning ta’kidlashicha, “ekstremizm – zo‘ravonlik yoki uning tahdidi, aqidaparastlik bilan tavsiflangan ekstremal g‘oyalar va xatti-harakatlarga amal qilish asosida mavjud voqelikning ayrim hodisalarini beqarorlashtirish va yo‘q qilish maqsadida, individual yoki guruhli nigilistik inkor etish shakllaridan biridir, shuningdek, toqat qila olmaslik”da ifodalanadi [9]. Ushbu ta’rifdan shuni ajratish mumkinki, ekstremizm zo‘ravonlikka tayangan holda keskin g‘oyalar va harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim voqelik va hodisalarni inkor etilishidir.

Rossiyalik olim V.V. Revina fikriga ko‘ra, “ekstremizm – opponentlarga nisbatan murosasizlik va ularga nisbatan zo‘ravonliklarni oqlashga asoslangan keskin mafkura” [10]. Mazkur ta’rifda ekstremizm murosasizlik va zo‘ravonlikka asoslangan keskin mafkuradir. Biroq, ushbu ta’rifda ekstremistik xatti-harakatlar inobatga olinmagan.

Ko‘pgina rus olimlari yondashuvlarida ekstremizm nafaqat mafkura sifatida, balki harakatlar, e’tiqodlar yoki xatti-harakatlar majmui sifatida ta’riflanadi.

Nemis olimlari A.Pfal-Traugber va Ye. Jessi “ekstremizmni konstitutsiyaviy davlatda demokratiyaning asosiy tamoyillarini yo‘q qilishga qaratilgan hodisa”, – deb ta’riflagan [11]. Ammo, “ekstremizm” tushunchasi nafaqat siyosatga tegishli bo‘lishi mumkin, balki ta’rif hodisaning umumiy ma’nosini faqat qisman aks ettiradi.

Kolumbiya universitetining Hamkorlik va nizolarni hal qilish xalqaro markazi xodim Piter Koulman va Jorj Meyson universitetining Tahlil va mojarolarni hal qilish instituti mutaxassisi Andrea Bartoli “ekstremizm – umumiy qabul qilingan qoidalardan farq qiluvchi barcha faoliyat (qarashlar, munosabatlar, his-tuyg‘ular, harakatlar, strategiyalar)”, – deb ta’riflaydilar [12]. Mazkur ta’rifda ham ekstremizm tushun-

chasiga keng ta'rif berilib, nafaqat qarashlar balki qabul qilingan qoidalardan farq qiluvchi hatti-harakatlar ham kiritilgan.

Rus olimlari L.M. Drobijeva va Ye.A. Pain tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, "ekstremizm muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun zo'ravonlik usullari va majburlash vositalaridan tizimli ravishda foydalanish, shuningdek, siyosiy organlarga, fuqarolarga, jamoat arboblariga yoki tashkilotlarga nisbatan zo'ravonlik qo'llash va ularni bu zo'ravonlikni minimallashtirish uchun harakat qilishga majburlash", – deb ta'riflanadi [13]. Ushbu ta'rifda "ekstremizm" va "terrorizm" tushunchalari xususiyatlari birlashtirilib, siyosiy maqsadga erishish uchun siyosiy institutlarning barchasiga zo'ravonlikni qo'llash nazarda tutilgan.

Biroq, E.V. Ulezkoning fikriga ko'ra, "ekstremizm – tahdid yoki mafkuraviy xarakterga ega bo'lgan zo'ravonlikka chaqiruvdir. Amaliyotda bu harakatlar zo'ravonlikka olib kelishi mumkin. Ammo, ekstremizmning terrorizmdan ajratuvchi chegarasi bu – inson hayotidir" [14]. Bunda, ekstremizm zo'ravonlikni targ'ib qilish sifatida baholanib, ekstremizm tushunchasi terrorizmga qaraganda kengroq hodisa sifatida qaralgan hamda terrorizm ekstremizmning alohida holati yoki yuqori darajasi sifatida bayon etilgan.

Yuqoridagi berilgan ta'riflarda ekstremizm tushunchasi mazmunan terrorizmga juda yaqin ekanligini ko'rish mumkin, chunki terroristik harakatlar yordamida raqiblarga nisbatan qotillik, qo'rqitish, odamlarni dahshatga soladigan harakatlar sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 30 iyuldagi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga asosan, "ekstremizm – ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi". Mazkur ta'rifda ekstremizm siyosat va hokimiyat bilan bog'lanib, hokimiyatga nisbatan zo'rlik ishlatish yoki egallash, adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatning ashaddiy shakllari sifatida baholangan. Biroq, "harakatlarning ashaddiy shakllari" qanday namoyon bo'lishi aniq bayon etilmagan.

Shanxay Hamkorlik Tashkilotining 2001 yil 15 iyundagi "Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida"gi konvensiyasida "ekstremizm"ga quyidagicha ya'ni "hokimiyatni zo'rlik bilan egallash yoki ushlab turish, davlatning konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirish, shuningdek jamoat xavfsizligiga zo'rlik bilan tajovuz qilish, jumladan noqonuniy qurolli tuzilmalar tuzish maqsadida yuqorida ko'rsatilgan tashkilot yoki ularda ishtirok etish hamda tomonlar milliy qonunchiligiga muvofiq jinoiy tartibda taqib qilinadigan biror bir qilmish", – deb ta'riflangan. Mazkur ta'rifga ko'ra, xalqaro miqyosda ekstremizm hokimiyatni zo'ravonlik bilan egallab olish, hokimiyatni zo'ravonlik bilan ushlab turish, konstitutsiyaviy tuzumini o'zgartirishdir.

Yuqoridagi tahlil qilingan materiallarga asoslanib, biz quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

– ekstremizmga qarshi kurashish sohada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, "ekstremizm" tushunchasi siyosatda, fanda va qonunchilikda turlicha xarakterga ega. Shuningdek, yuridik adabiyotlarda ekstremizmning mohiyatini, uning sub'ekti, maqsadi va motivlarini tushunishda olimlar o'rtasida yagona fikr mavjud emas;

– ilmiy jamoatchilik ekstremizmni keng va tor ma'noda ko'rib chiqib, keng ma'noda ekstremizm "muayyan maqsadlarga erishish uchun keskin qarashlarga asoslanish", tor ma'noda – "muxoliflarni mag'lub etish va ularni yo'q qilishga qaratilgan faoliyat" sifatida ta'riflanadi;

– tahlillar asosida ekstremizmning quyidagi belgilarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin: murosasiz keskin qarashlarga asoslanish va uni jamiyatda tarqatish; mafkuraviy, diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishishni ko'zlash; zo'ravonlikni qo'llab-quvvatlash yoki undan foydalanish; belgilangan huquqiy norma va jamiyatda qabul qilingan axloq normalarni qabul qilmaslik

yoki ulardan chetga chiqish; ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shakldagi adovatni qo‘zg‘atish; milliy xavfsizlikka tahdidlarni keltirib chiqarish;

– “ekstremizm” tushunchasi “terrorizm” tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib, ushbu tushunchalar o‘rtasidagi “chegara” shaxs, guruh va tashkilotning faol xatti-harakatlaridagi zo‘ravonlikni qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi;

– ekstremizm o‘z mazmun - mohiyatiga ko‘ra, har qanday ko‘rinishda: u “keskin qarash” yoki “faol harakat” shaklida bo‘lsin, u milliy xavfsizlikka bevosita tahdidni keltirib chiqaradi.

Kelgusida ekstremizm tushunchasini turli xil talqin qilinishini oldini olish maqsadida, unga “mafkuraviy, diniy, siyosiy maqsadlarga erishish uchun murosasiz keskin qarashlarga asoslangan harakatlarni yoki zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlash, ushbu harakatlarni targ‘ib qilish hamda jamiyatda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shakldagi adovatlarni keltirib chiqarish hamda qonunchilikka muvofiq jinoiy tartibda taqib qilinadigan qilmish”, – deb ta’rif berish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Доклад Специального докладчика ООН по вопросу о свободе религии или убеждений, «О миссии в Узбекистан» за 2018 г., A/HRC/37/49/Add.2, 22 февраля 2018 г., – P. 7-8.

2. ОБСЕ. Комментарии к Закону Республики Узбекистан «О противодействии «экстремизму»» // Варшава. 2019. – С.8

3. Сергеев С.А. Исследования экстремизма и радикализма в зарубежных и отечественных социальных науках. http://kpfu.ru/docs/ F110664239/Statya.Ekstremizm.radikalizm.sokr.bibliograf.pdf.

4. Никонов К.О. Проблемы определения экстремизма // Юридический мир. 2011. № 7. – С. 42.

5. Романов Н. А. Политический экстремизм как угроза безопасности страны : диссертация ... доктора социологических наук. Москва, 1997. -С 390.

6. The dictionary of Cambridge // http://dictionary.cambridge.org/ dictionary/ english/extremism.

7. The Collins dictionary // https://www.collinsdictionary.com/dictionary /english/extremism.

8. Рузавина А.К. Определение экстремизма в современном научном дискурсе // 2021. Т. 35. С. 9–15 // http://izvestiapolit.isu.ru/ru.

9. Сенин И.Н. Экстремизм: понятие и виды // Инновационное образование и экономика. 2008. № 2. – С. 81.

10. Ревина В.В. Экстремизм в российском уголовном праве: дис. ... канд. юрид. наук. М., 2010. – С. 19.

11. Armin Pfahl-Traughber. Jahrbuch für Extremismus- und Terrorismus forschung 2009/2010 // https://www.hsbund.de/SharedDocs/ Downloads/ 2_Zentralbereich/20_Referat_W/Publikationen/20_Schriften_Extremismus_Terrorismusforschung/band_03.pdf?__blob=publicationFile&v=3.

12. Coleman P.T., Bartoli A. Addressing Extremism // http://www.tc.columbia.edu/i/a/document\9386_White Paper _2_ Extremism_030809.pdf.

13. Дробижева Л.М. и Паин Э.А. Терроризм в современном мире: истоки, сущность, направления и угрозу, Москов, 2003, – С. 41-74.

14. Улезко Э.В. Экстремизм и терроризм: понятийно-категориальный аппарат исследования явления. https://cyberleninka.ru/article/n/ekstremizm-i-terrorizm-ponyatiyno-kategorialnyy-apparat-issledovaniya-yavleniya.

Elov A.A. Ekstremizm tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili

Maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda ekstremizm tushunchasi ilmiy-nazariy tahlil qilinib, bu borada xalqaro ekspertlarning fikrlari yoritildi.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, siyosat, ekstremizm, zo'ravon ekstremizm, ekstremist, terrorizm, huquqbuzarlik, jinoyat, kuch ishlatish, din, radikalizm, tahdid.

Элов А.А. Научный-теоретический анализ понятия экстремизм

В статье описан научно-теоретический анализ понятия экстремизма в обеспечении общественной безопасности, а также мнения международных экспертов по этому поводу.

Ключевые слова: общественная безопасность, политика, экстремизм, насильственный экстремизм, экстремизм, терроризм, правонарушения, преступность, применение силы, религия, радикализм, угроза.

Elov A.A. Scientific and theoretical analysis of the concept of extremism

The article describes a scientific and theoretical analysis of the concept of extremism in ensuring public security, as well as the opinions of international experts on this matter.

Key words: public safety, politics, extremism, violent extremism, extremism, terrorism, offenses, crime, use of force, religion, radicalism, threat.

Mitanov Zafar Ne'matullayevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Magistratura fakulteti tinglovchisi

MILLIY GVARDIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA VAKOLATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida jamiyatimizda barqarorlik va jamoat xavfsizligini ta'minlash amalga oshirilayotgan tub islohotlarning eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligi va barqarorlikni ta'minlashda Ichki ishlar vazirligi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Milliy gvardiyaning faoliyati haqida to'xtalib, "...bu maxsus harbiy bo'linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan", deya ta'kidlagan edi [1, 155-156].

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, aholini turli xil terrorchilik tahdidlaridan, jinoiy va boshqa g'ayriqonuniy harakatlardan himoya qilish, o'ta muhim toifalangan davlat va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo'riqlashni amalga oshirish asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Zero, mamlakatimizning barcha hududlarida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash faoliyati bo'yicha chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi, aholi va jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik va muloqot o'rnatilishi orqali belgilangan vazifalarning ijro etilishiga erishish mumkin.

Ma'lumki, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash davlatning asosiy funksiyalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur funksiyani amalga oshirish maqsadida turli tashkiliy va huquqiy mexanizmlar ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy etiladi. Shu sababdan, yangi islohotlarni amalga oshirish jarayonida Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha vakolatlarini belgilab beruvchi huquqiy asoslarni yaratishga alohida e'tibor qaratilib, ularning asosiy mazmuni quyidagi vazifalarni hal etishga qaratildi:

Birinchidan, Milliy gvardiya faoliyatini tartibga soluvchi asosiy huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Milliy gvardiyasi to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, unda ushbu organning vazifalari belgilab berildi [2].

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 9 yanvardagi 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi"ga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining tegishli boshqaruv organlari, qo'shinlari, harbiy tuzilmalari va muassasalari - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiritildi. Shuningdek, ushbu doktrinaning 18-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining "Tinchlik", "Tahdid bo'layotgan" va "Urush" davridagi asosiy vazifalari belgilab berildi [3].

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 fevraldagi O'RQ-522-son "Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba'zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, 16 ta qonunga, shu jumladan Jinoyat–protsessual kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, Soliq kodeksiga, Bojxona kodeksiga, Havo kodeksiga hamda "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi, "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi, "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi, "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi qonunlariga O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi faoliyatiga oid o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi [4].

To'rtinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan O'zbekiston

Respublikasi Milliy gvardiyasi tizimida tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni amalga oshiradigan bo'linmalar tashkil etilib, Milliy gvardiya bo'linmalarining huquqni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuniga muvofiq, Milliy gvardiyaning tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni amalga oshirish sohasidagi vakolatlari belgilandi. Unga ko'ra, Jinoyat-protsessual Kodeksining 381^2-moddasi 1-qismiga qo'shimcha kiritilib, Milliy gvardiya va uning joylardagi bo'linmalari Jinoyat Kodeksining 250^1-moddasining (Pirotexnika buyumlarining qonunga xilof muomalasi) birinchi qismida (bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari) va 259^1-moddasida (O'ta muhim va toifalangan obyektlarning qo'riqlanishini ta'minlashga doir majburiyatlarni bajarmaslik) nazarda tutilgan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruvni va surishtiruvni amalga oshiradi [5]. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga yangi 248^1-modda kiritilib, unga binoan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61, 185^1 (bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklardan tashqari), 194^1, 195^1, 196 (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlariga tegishli qismi bo'yicha) va 210^1-moddalarida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlarining mansabdor shaxslari ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida bayonnoma tuzishi belgilandi [5]. Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, shu jumladan ularni aniqlash va sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va sharoitlarni aniqlash kabi yangi vazifalar yuklandi. Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida 2020 yil 18 mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalardan kelib chiqqan holda, kriminogen vaziyati og'ir bo'lgan mahallalarda profilaktika (katta) inspektorlari, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlari, mahalla raislari, profilaktika (katta) inspektorlarining yordamchilari va "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari a'zolarining jinoyatlarni jilovlash bo'yicha faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek xiyobonlar, maydonlar, madaniyat va istirohat bog'lari, savdo-ko'ngilochar majmualar va markazlar, gipermarketlar, supermarketlar, tijorat bozorlarida mustaqil patrullikni amalga oshirish bo'yicha choralar ko'rildi. Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida Milliy gvardiya organlari tomonidan Ichki ishlar, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda kompleks tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Xavfsiz shahar" Konsepsiyasi doirasida Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlari, shuningdek Respublikaning yirik shaharlarida sutka davomida uzluksiz uch smenali patrullik xizmati yo'lga qo'yilmoqda. Xususan, Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan xiyobonlar, maydonlar, madaniyat va istirohat bog'lari, savdo-ko'ngilochar majmualar, gipermarketlar, supermarketlar, tijorat bozorlari hamda boshqa fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda Milliy gvardiyaning mustaqil patrul naryadlari tashkil etilib, asosiy maqsad ushbu hududlarda jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilmoqda. Bugungi kunda Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari bo'linmalari tomonidan Respublika hududida 1195 ta (615 ta mustaqil va 580 ta hamkorlikdagi yo'nalishlar) patrul yo'nalishlari (632 ta piyoda, 533 ta avtomobil, 30 tadan otliq va motoskuterli) tashkil etilib, ularga 3881 nafar shaxsiy tarkib, 2371 nafar harbiy xizmatchilar va 1510 nafar Qo'riqlash xizmati xodimlari jalb qilingan [6].

Shuni aytish kerakki, Milliy gvardiya tashkil etilganligiga qisqa vaqt o'tgan bo'lsada, uning vakolatlarini takomillashtirish va faoliyatini huquqiy tartibga solish bilan bog'liq bir qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, yangi qonunlar qabul qilindi. Ammo, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashning mustahkam, zamon talablariga mos samarali mexanizmini

yaratish o‘z navbatida Milliy gvardiyaning ham jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Shuning uchun, birinchidan, rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatining jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashdagi samaradorligini inobatga olgan holda ularning vakolatlarini kengaytirish, ya’ni Milliy gvardiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga jinoyat ishlari bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni o‘tkazish bilan bir qatorda “tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish” bo‘yicha ham vakolatlar taqdim etish, shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining 2012 yil 25 dekabrdagi “Tezkor-qidiruv faoliyati to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasiga tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tizimiga O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini subyekt sifatida belgilash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz [7];

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 391-moddasini Qo‘riqlash bosh boshqarmasi va Toshkent shahar va viloyatlar qo‘riqlash boshqarmalari xavfsizlik xizmati xodimlari tomonidan tergovga-qadar tekshiruvni amalga oshirish vakolatini berish to‘g‘risidagi qoida bilan to‘ldirish lozim;

Uchinchidan, Milliy gvardiya organlari tizimini takomillashtirish ham bugungi kunda kun tartibidagi masalalardan biridir. Xususan, Milliy gvardiyaning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar boshqarmalaridan tashqari quyi bo‘g‘in sifatida tuman (shahar) bo‘limlarini tashkil etish hamda Milliy gvardiyaning yuqori, o‘rta va quyi bo‘g‘in negizida “surishtiruv” bo‘limlari bilan bir qatorda “tezkor-qidiruv” bo‘limlarini ham tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday tizim Milliy gvardiya faoliyatining asosiy yo‘nalishlarida nazarda tutilgan vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi, deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytilganlardan tashqari, yana bir qator tashkiliy masalalarni hal etish Milliy gvardiya organlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ular sirasiga, birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmoni asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi” Konsepsiyasida Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahka-masi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari belgilangan [8]. Lekin, ushbu subyektlarning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi birgalikdagi vazifalari belgilab berilmagan (masalan, Oloy dehqon bozoriga chet el delegatsiyasi tashrif buyurdi, qaysi organ qanday vazifani bajarishi birgalikdagi vazifalar sirasiga tegishliligi noaniqligicha qolmoqda); ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarni planshet, elektroshoker va bodikameralar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish; uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardi-yasining jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, harbiy xizmatchi va xodimlarni malakasini oshirish bo‘yicha yo‘nalishlarini raqamlashtirish; to‘rtinchidan, joylarda Milliy gvardiyaning harbiy xizmat-chilari va xodimlari tomonidan fuqarolarni vaqtincha ushlab turish hibsxonalarini tashkil qilish; beshinchidan, jamoat tartibini saqlashga jalb etilayotgan Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini tashkiliy-shtat lavo-zimlarini ko‘rib chiqish va takomillashtirish kabilar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, Milliy gvardiyaning jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta’minlash faoliyatini takomillashtirish yuzasidan yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalar, o‘ylaymizki, kelgusida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шавкат Мирзиёев. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. –Т.:Ўзбекистон, 2018, 456 б.;

2. Ўзбекистон Республикасининг “Миллий гвардияси тўғрисида”ги Қонуни //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.11.2020 й., 03/20/647/1569-сон;
3. Ўзбекистон Республикасининг “Мудофаа доктринаси тўғрисида”ги қонуни //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 10.01.2018 й., 03/18/458/0537-сон;
4. Ўзбекистон Республикасининг “Хавфсизлик ва мудофаа соҳасидаги баъзи давлат органлари фаолияти такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги қонуни //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.07.2021 й., 03/21/703/0723-сон);
5. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 21 апрелдаги 683-сонли “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартишлар киритиш тўғрисида”ги қонуни, //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон);
6. Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва қўшинлар хизматини ташкил этиш бошқармасининг 2021 йил якунлари натижалари бўйича ҳисоботи, 2021 йил;
7. Ўзбекистон Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонуни //Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон; 29.06.2021 й., 03/21/697/0607-сон;
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-27-сон “Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони //lex.uz/uz/pdfs/5749291.

Mitanov Z.N. Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha vakolatlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish

Mazkur maqolada Milliy gvardiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va huquqiy asoslarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Milliy gvardiya harbiy xizmatchi va xodimlarining jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi vakolatlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, davlat, vakolat, huquqbuzarlik, qonun, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruv, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz hudud”, “Xavfsiz mahalla”.

Митанов З.Н. Развитие правового регулирования полномочий Национальной гвардии по обеспечению общественной безопасности

В данной статье описаны проводимые реформы в системе Национальной гвардии, основные направления обеспечения общественного порядка и безопасности подразделениями Национальной гвардии, правовые основы и вопросы совершенствования. Также, разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию полномочий военнослужащих и сотрудников Национальной гвардии в сфере охраны общественного порядка и общественной безопасности.

Ключевые слова: общественная безопасность, общественный порядок, государство, полномочия, правонарушение, право, до следственная проверка и дознание, «Безопасный город», «Безопасный регион», «Безопасная махалля».

Mitanov Z.N. Development of legal regulation of the powers of the National guard to ensure public safety

This article describes the ongoing reforms in the National Guard system, the main directions for ensuring public order and security by the National Guard units, the legal basis and issues of improvement. Also, proposals and recommendations have been developed to improve the powers of military personnel and employees of the National Guard in the field of public order and public safety.

Key words: public safety, public order, state, authority, offense, law, pre-investigation and investigation inquiry, safe city”, “safe zone”, “safe maxalla”.

Xolboyev Sherzod Raxmonqulovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent viloyati boshqarmasi shaxsiy tarkib bo‘yicha inspeksiya boshlig‘i, mustaqil izlanuvchi;
Alimov Muhammadjon Islomiddin o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra dotsenti

HARBIY XIZMATCHILARGA QARSHI QARATILGAN JINOYATNI MALAKALASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqida “Bugungi globallashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shunday g‘oyat mas’uliyatli vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishda Qurolli Kuchlarimiz, xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligini” ta’kidlagan holda ularning professional tayyorgarligi va ularning ijtimoiy himoyasiga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlab o‘tdi [1].

Harbiy xizmatchilarning hayoti va sog‘ligining kafolati sifatida 2021 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-sonli Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi Konsepsiyasining 2-bob 16-bandida “Jamoat xavfsizligini bevosita ta’minlovchi subyektlarni moddiy-texnik ta’minlash, ularning xodimlarini ijtimoiy himoya qilish darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish” lozimligi ko‘rsatilgan [2].

Yaqin vaqtlar ichida qo‘shni mamlakat Qozog‘istonda sodir etilayotgan ommaviy tartibsizliklar va namoyishlar jarayonida harbiy xizmatchilar va ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan sodir etilayotgan bir qator jinoyatlar va ularning huquqiy oqibatlari og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bunga misol tariqasida fuqarolar tomonidan harbiy texnikalar, qurollar va boshqa turdagi maxsus himoya vositalarini noqonuniy egallanishi, harbiy xizmatchilarni harbiy harakatlarda ishtirok etishini oldini olish maqsadida ularning yaqin qarindoshlari va oila a’zolariga nisbatan o‘tkazilgan tazyiqlar, ayniqsa ijtimoiy toifa obyektlariga va alohida toifalangan obyektlarga bo‘lgan qurolli hujumlar va boshqa holatlar harbiy xizmatchining jinoyat huquqida alohida subyekt bo‘la turib jabrlanuvchi sifatida ishtirokchilikda agressiyaga uchrayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan mazkur tahdidlar qo‘shni mamlakatda sodir etilganligi xavfi bizning mamlakatimizni chetlab o‘tadimi? Mazkur turdagi jinoyatlar uchun mamlakatimiz qonunchiligida qanday turdagi javobgarlik turlari belgilangan? Amaldagi jinoyat qonuni normalari hozirgi zamonaviy tahdidlarga qay darajada javob bera oladi va shu kabi bir qator savollar o‘z-o‘zidan ilmiy tadqiqotlarning obyektiga aylanishi tabiiy.

Yuqorida keltirilgan savollarning amaliy yechimlarini amaldagi jinoyat qonunchiligimizda belgilangan javobgarlik turlari, jinoyat subyektlarining huquqiy maqomi, jinoyatlarda ishtirokchilik kabi masalalar ilmiy tahlillar asosida o‘rganilganida bir qator muammolar mavjud ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatda harbiy xavf yoki favqulodda holat e’lon qilinganligi holatida davlat organlarining mansabdor shaxslariga

qaratilgan ruhiy yoki jismoniy tazyiqlar birinchi navbatda harbiy xizmatchilar va ularning yaqin qarindoshlariga qaratilganligi, shuningdek harbiy xizmatchilarning sog'ligi va hayotiga qarshi qaratilgan jinoyatlar qonun bilan harbiy xizmatchining jinoyat huquqining alohida subyekti sifatida inobatga olingan holda muhofaza qilinmagan. Shuningdek mazkur turdagi jinoyatlar umumiy asosda shaxsning sog'ligiga va hayotiga qarshi jinoyat turlari bilan tartibga solingan.

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq, hokimiyat vakillari u yoki bu davlat funksiyalarining amalga oshirilishiga javobgar shaxslar hisoblanadi. Huquqbuzarliklarga qarshi kurashish va ommaviy tartibsizliklar chog'ida huquqni muhofaza qilish organi xodimlari va harbiy xizmatchilarning hayoti va sog'lig'i doimo xavf ostida bo'ladi. Hokimiyat vakillari o'z qonuniy faoliyatini to'la to'kis amalga oshirishi uchun huquqiy kafolat muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda shu darajaga borib yetdiki ayrim fuqarolar hokimiyat vakillarining qonuniy harakatlariga ochiqdan ochiq to'sqinlik qilish va zo'rlik ishlatish holatlarini sodir etmoqda.

Hokimiyat vakiliga nisbatan zo'ravonlik qo'llash nafaqat ularning hayoti va sog'lig'iga, balki hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga ham putur yetkazadi. Bu esa davlat hokimiyatining va mamlakatdagi huquq-tartibotning zaiflashishiga olib keladi.

Xususan, Jinoyat kodeksining 104, 105-moddalarida o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga og'ir yoki o'rtacha og'ir shikast yetkazganlik uchun javobgarlik mavjud. Lekin, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1999 yil 30 apreldagi "O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilik va bosqinchilik bilan talon-toroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" gi 30-sonli Qarorida "Hayoti yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik deganda, yengil tan jarohati yetkazishni tushunish lozim. Bunday zo'rlik jabrlanuvchiga jismoniy azob beruvchi yoki uning erkinligini cheklab qo'yuvchi harakatlarda ifodalanishi mumkin"ligi ko'rsatilgan [3].

Shu sababli, amaldagi Jinoyat Kodeksining 104, 105 moddalarida xizmat vazifasini bajarayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organning xodimi yoki harbiy xizmatchilariga hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatilishi bilan tugallangan jinoyat deb topilishi, ya'ni oqibatda tan jarohati kelib chiqish yoki chiqmasligidan qat'i nazar jinoyat deb topilishi tartibga solinmagan (Mazkur moddalarda mazmunan tartibga solishning imkoni ham mavjud emas, sababi mazkur moddalar faqatgina tan-jarohati bilan bog'liq bo'lgan jinoiy hodisalarni tartibga soladi).

Jinoyat kodeksi 112-moddasida ham o'z xizmat yoki fuqarolik burchini bajarishi munosabati bilan shaxsga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan o'ldirish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish sodir etilgan bo'lsa og'irlashtiruvchi holat sifatida javobgarlikka tortilishi belgilangan. Biroq, mazkur normada tartibga solingan ijtimoiy xavfli qilmishda ob'ektiv tomondan zo'rlik ishlatishga harakat belgilari mavjud emas.

Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlarning xalqaro tajribasi[4] ni o'rganish shuni ko'rsatadiki, davlat organlari xodimlari va ularning qarindoshlariga xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan zo'ravonlik qo'llaganlik uchun jinoiy javobgarlik mavjud.

Qonuniy faoliyatni ta'minlash va hokimiyat vakillarining faoliyatiga aralashishning oldini olish uchun nafaqat o'zini, balki yaqinlarini ham himoya qilishni ta'minlash maqsadga muvofiq. Shundagina hokimiyat vakillari, xususan, Ichki Ishlar organlari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari (xodimlari) va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari va harbiy xizmatchilari o'zlarini va yaqinlarini hayoti va sog'lig'iga tajovuzlardan qonun himoyasida ekanini his etsagina, astoydil, fidokorona mehnat qiladilar. Shunday ekan, amaldagi JKga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritgan holda "Hokimiyat vakiliga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan xizmat vazifasini bajarishi, xuddi shuningdek xizmat vazifala-

rini bajarganligi munosabati bilan o'ch olish maqsadida hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan (bo'lgan) zo'rlik ishlatganligi uchun javobgarlik belgilagan holda amaldagi JKga yangi "Hokimiyat vakiliga nisbatan zo'rlik ishlatish" jinoyat turini kiritgan holda quyidagicha:

219^1-modda. Hokimiyat vakiliga nisbatan zo'rlik ishlatish

Hokimiyat vakiliga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan xizmat vazifasini bajarishi, xuddi shuningdek xizmat vazifalarini bajarganligi munosabati bilan o'ch olish maqsadida hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish?

bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to'rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan besh yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Hokimiyat vakiliga yoki uning yaqin qarindoshlariga nisbatan xizmat vazifasini bajarishi, xuddi shuningdek xizmat vazifalarini bajarganligi munosabati bilan o'ch olish maqsadida hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish?

uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Ushbu moddaning birinchi yoki ikkinchi qismida nazarda tutilgan harakatlar:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) voyaga yetmagan shaxsga nisbatan;

g) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;

d) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;

ye) bir guruh shaxslar yoki uyushgan guruh tomonidan yohud uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab;

j) boshqa biror jinoyatni yashirish yoki uning sodir etilishini osonlashtirish maqsadida jinoyat sodir etilgan bo'lsa –

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishini belgilash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, bugungi kunda ayrim shaxslar tomonidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlariga turli tahdidlar amalga oshirilish ko'payib ketayotganligini inobatga olib, alohida normada huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va harbiy xizmatchilarining hayotiga qilingan tajovuz uchun jinoiy javobgarlikni qo'llash maqsadga muvofiq.

Mazkur turdagi javobgarlik bir qator Yevropa (Belgiya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Norvegiya va Daniya) davlatlari va AQShlarining bir qator shtatlarida mavjud[5].

Shu sababli amaldagi JKga o'zgartirish va qo'shimcha kiritgan holda:

219^2-modda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari yoki harbiy xizmatchilarni o'ldirish

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari yoki harbiy xiz-matchilarni o'z xizmat vazifalarini bajarishi munosabati bilan qasddan o'ldirish, ?

yigirma yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanishini belgilash maqsadga muvofiq.

Shuningdek, Ommaviy tartibsizliklar davomida tartibbuzarlikda ishtirok etayotgan fuqarolar tomonidan jamoat tartibini saqlash uchun xizmatga jalb qilingan harbiy xizmatchi (xodim)ga biriktirilgan jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini egallashga bo'lgan intilish oshib boradi. Bunga misol tariqasida qo'shni Qozog'iston Respublikasidagi ommaviy tartibsizliklar vaqtida harbiy transport vositalarini egallashga bo'lgan urinishlar va egallash hollarini keltirish mumkin.

Aynan shu boshqa holatlarni oldini olish, shuningdek davlat boshqaruv organlarining o'z funksional vazifalarini turg'un bajarishi hamda ushbu harakatlarning ijtimoiy xavfliligi nuqtai nazaridan, bu kabi harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilash maqsadga muvofiq.

Amaldagi JKning 267-moddasida Transport vositasini olib qochish jinoyati tartibga solingan bo'lib, mazkur moddaning

dispozitsiyasida transport vositasi deganda umumiy shaxslar foydalaniladigan barcha turdagi transport vositalari tushuniladi. Shu nuqtai nazardan hozirgi kunda amaldagi qonunchilikka muvofiq harbiy yoki harakat qilish vositalarini (ya'ni harbiy qism hisobida turgan lekin harbiy texnikaga kirmaydigan transport vositalari (avtomobi, daryo transporti va v.k.[6])transport vositalarini olib qochganlik uchun JKning 267-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinmoqda.

Lekin, harbiy transport vositalari tarkibiy qismiga harbiy qurol-aslaha va o'qotar qurollar biriktirilganligini, shuningdek harbiy transport va harakat qilish vositalariga qo'shinlarning jangovar harakatga kelish va jangovar vazifalarni bajarish bilan bog'liq vazifalari mavjudligini, hamda mazkur texnikalarni olib qochilishi natijasida qo'shinlar o'z jangovar vazifalarini o'z vaqtida yoki umuman bajara olmaslik kabi og'ir oqibatlar kelib chiqishini inobatga olgan holda mazkur yangi tartibdagi moddani JKga kiritish maqsadga muvofiq. (Mazkur shu turdagi jinoyatlar qo'shni Afg'oniston harbiy xizmatchilari tomonidan 2021 yilda tolibonlarni mamlakatni egallashga qaratilgan qurolli harakatlari davrida shuningdek, Qozog'istonda sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar jarayonida sodir etilgan).

Shu sababli amaldagi JKga "Ommaviy tartibsizliklar vaqtida jamoat tartibini saqlash uchun xizmatga jalb qilingan harbiy xizmatchi (xodim)ga biriktirilgan jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini egallash" jinoyatini kiritgan holda:

Ommaviy tartibsizliklar vaqtida jamoat tartibini saqlash uchun xizmatga jalb qilingan harbiy xizmatchi (xodim)ga biriktirilgan jangovar, maxsus yoki transport mashinalarini bosqinchilik, talonchilik yoki hayot uchun xavfli bo'lgan boshqacha usulda egallash, –

besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakat:

a) o'ta xavfli retsidivist tomonidan;

b) uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bo'lsa, —

o'n besh yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishini belgilash maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rni shuni ta'kidlash lozimki mazkur yuqorida keltirilgan takliflar birinchidan, harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini hayoti va sog'ligini jinoyat huquqi nuqtai nazaridan muhofaza qilgan holda ularning oila a'zolarini ham xavfsizligini ta'minlashga;

ikkinchidan, Tinchlik va jangovar harakatlar chog'ida harbiy xizmatchilarning hayotini muhofaza etgan holda ularning jinoyat va jinoyat protsessining alohida subyekti sifatida kiritilishiga;

uchinchidan, harbiy mulk va harbiy texnikaning harbiy harakatlar olib borish bilan bog'liq vaziyatda ularni egallanishini huquqiy jihatdan oldini olishga va mazkur holatda jinoiy oqibat keltirib chiqarish tahdidi ostida himoya qilishga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қуролли Кучлари ташкил этилганининг 30 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табригидаги нутқи., https://president.uz/uz/lists/view/4916

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги "Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-27-сонли Фармони., www.lex.uz

3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 1999 йил 30 апрелдаги "Ўзгалар мулкини ўғрилик, талончилик ва босқинчилик билан талон-торож қилиш

жиноят ишлари бўйича суд амалиёти тўғрисида" ги №30-сонли қарори., www.lex.uz/

4. Россия Ферацияси, Озарбайжон, Қозоғистон Республикаси, Тожикистон Республикаси Жиноят кодекслари., www.norma.uz/

5. А.А.Трефилов., "Уголовный права зарубежных стран"., Том-2., Москва -2018 г., ст – 68-94.

6. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодексига шархлар/М. Рустамбаев. – Тошкент: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. – 705 б.

Xolboyev Sh.R., Alimov M.I. Harbiy xizmatchilarga qarshi qaratilgan jinoyatni malakalashdagi muammo va yechimlar

Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarga nisbatan sodir etilgan jinoyatlarining jinoiy huquqiy va protsessual tahlili yoritilgan bo'lib, sohani va amaldagi qonunchilikni rivojlantirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, harbiy texnika, ommaviy tartibsizliklar, jinoiy javobgarlik, xavfsizlik.

Холбоев Ш.Р., Алимов М.И. Проблемы и пути их решения при квалификации преступления, направленного против военнослужащих

В данной статье рассматривается уголовно-правовой и процессуальный анализ преступлений, совершенных в отношении военнослужащих, а также разрабатываются научно обоснованные предложения и рекомендации по развитию сферы и действующего законодательства.

Ключевые слова: военнослужащий, военная техника, массовые беспорядки, уголовная ответственность, безопасность.

Xolboyev Sh.R., Alimov M.I. Problems and ways to solve them in the qualification of a crime directed against military personnel

In this article examines the criminal law and procedural analysis of crimes committed against military personnel, as well as develops scientifically sound proposals and recommendations for the development of the sphere and current legislation..

Key words: military personnel, military equipment, mass riots, criminal liability, security.

Akramov Jo'rabek Mamasoliyevich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Bakalavriyat fakulteti batalyon komandiri

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI HARBIY XIZMATCHILARI VA XODIMLARINING JISMONIY TAYYORGARLIGINI REJALASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kirish

Mamlakatimizda va xorijda kechayotgan murakkab siyosiy va iqtisodiy jarayonlar kuch tuzilmalari, jumladan, Milliy gvardiya qo'shinlarining xizmat va jangovar faoliyatiga alohida ahamiyat bermoqda. Qo'shni davlatlarda va O'zbekiston Respublikasi chegaralari yaqinida sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlar tobora kuchayib borayotgani shaxsiy tarkib va harbiy xizmatchilardan mamlakat ichki xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rishga yuqori darajada tayyor bo'lishni talab qilmoqda. Qo'shinlar faoliyatining ustuvor yo'nalishlari sezilarli darajada o'zgarib, jinoyatchilik, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish, barcha turdagi qurolli to'qnashuvlarga barham berish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda holat tartibini saqlash, shuningdek, muhim davlat va toifalangan obyektlarni qo'riqlashda ularning roli tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda qo'shinlar oldida turgan davlatning ichki xavfsizligini ta'minlash, noqonuniy qurolli tuzilmalarni yo'q qilish, mamlakatimiz hududida huquq-tartibotni zarur darajasini o'rnatish, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, amaliyotda yordamga muhtoj fuqarolarga yordam ko'rsatishni amalga oshirish hamda huquqiy tartibga solish uchun tegishli talablarni shakllantirish borasidagi vazifalarning ko'lami va murakkabligi sezilarli darajada oshmoqda.

Oliy Bosh Qo'mondon – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning farmoniga muvofiq Milliy gvardiya qo'shinlari tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga THMB, Qo'riqlash xizmati va boshqa qism, muassasalar kiritildi. Milliy gvardiya jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, aholini turli ichki tahdidlardan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish, shuningdek Milliy gvardiyaning vakolatiga kiritilgan davlat ahamiyatidagi maxsus vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan.

Milliy gvardiyada o'z faoliyatini maxsus vositalar, shakllar va uslublar bilan amalga oshiradigan, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi, huquqni muhofaza qilish funksiyasiga ega bo'lgan maxsus vakolatli davlat organidir [1]. Milliy gvardiya to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bo'ysunadi, bu esa yaratilgan kuch tuzilmasiga alohida maqom beradi hamda Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlarining kasbiy tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yadi.

Asosiy qism

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va bo'linmalari xodimlarining xizmat va jangovar faoliyati har qanday vaqtda ushbu bo'linma xodimning tanasi va ruhiyatiga ta'sir qilish sohasidagi muhim ish bo'lib, har qanday jangovar xizmat vazifalarni, shu jumladan to'satdan keluvchilarni bajarishga tayyor turish qobiliyatini talab qiladi. Harbiy xizmatchilar va xodimlar o'zlarining jismoniy ko'rsatkichlarini, tayyorgarligini nazorat qilishlari va ular uchun shaxsan javobgar bo'lishlari shart, shuningdek, o'zlarini muntazam ravishda belgilangan jismoniy faoliyatga, ya'ni muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish talab etiladi.

Jismoniy tayyorgarlik O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bosh boshqarmasi, boshqarmasi, harbiy qism, bo'linma, o'quv muassasa va muassasalarida (keyingi o'rinlarda boshqarmalar, bo'linmalar va muassasalar deb yuritiladi) olib boriladigan jangovar tayyorgarlikning asosiy fanlaridan biri bo'lib, harbiy o'qish va tarbiya jarayonining muhim va ajralmas

qismi sanaladi [2].

Milliy gvardiyada tizimli jismoniy tayyorgarlikdan ko'zlangan asosiy maqsad – harbiy xizmatchi, xodim, kursant va tinglovchilarining (keyingi o'rinlarda harbiy xizmatchi (xodim) deb yuritiladi) jangovar va maxsus vazifalarni hal etish uchun zarur bo'ladigan jismoniy sifatlarini talab darajasida saqlab turish, yanada rivojlantirish va yuksak ma'naviy-ruhiy sifatlarini tarbiyalashdan iboratdir. [2]

Milliy gvardiya qo'shinlarining harbiy xizmatchilari va xodimlari maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek davriy tekshiruvdan o'tishlari, ularning tayyorlik darajasini, shu jumladan turli sharoitlarda kasbiy yaroqliligini, shuningdek qurollardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muayyan harakatlarga tayyorligini tasdiqlashlari shart va majburiydir.

Milliy gvardiya qo'shinlarining faoliyati va maqsadlari, mo'ljallanishi va vazifalariga ko'ra, ushbu bo'linmaning har qanday harbiy xizmatchisi va xodimi o'z hisobida o'zining kasbiy faoliyatiga muvofiq zarur xizmat (amaliy) va harbiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Buning asosi — Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi va xodimining to'g'ri va yuqori tayyorgarligi, ya'ni jismoniy tayyorgarligi va asosiy jismoniy fazilatlari – chidamlilik, kuch-quvvat, tezkorlik va epchillik, jangovar usul va texnikalarlarni ishonchli egallash darajasi kiradi. Muayyan kuch tuzilmasi, mutaxassisligi bo'yicha faoliyat turidan qat'i nazar, boshqarmaning barcha harbiy xizmatchilari va xodimlari belgilangan vazifalarni bajarish, xizmat-jangovar vazifalarini bajarish uchun doimiy jismoniy tayyor bo'lishi kerak. Shuningdek, ular yuqori darajada o'z-o'zini nazorat qilish, amaliyotda qo'llash, jangovar usullarni professional, samarali va ishonchli ishlatish, har qanday raqibga, shu jumladan qurolli yoki ustun bo'lgan raqibga qarshi turish, huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarning harakatlarini oldini oladigan jismoniy kuch ishlatish, foydalanish va jangovar texnikalarni qo'llash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Milliy gvardiya qo'shinlari shaxsiy tarkibining jismoniy tayyorgarligiga qo'yiladigan yangi, kuchaytirilgan talablar asosida, ichki qo'shinlar harbiy xizmatchilari va bo'linmalari xodimlarining ma'lum jismoniy fazilatlari va amaliy harakat ko'nikmalarini amalda va jangovar vaziyatda qo'llash tajribasidan kelib chiqqan holda, shuningdek asosiy va maxsus jismoniy fazilatlarni va amaliy vosita ko'nikmalarini va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan usullar va vositalarning samaradorligi to'g'risida tashkilot tizimini muntazam ravishda tahlil qilish kerak.

Shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiyani tashkil etishning eng muhim elementlaridan biri bu rejalashtirish.

Maqsadli malakali rejalashtirish jismoniy tarbiyaning barcha tizimlarining yuqori samarada ishlashiga yordam beradi va kerakli maqsad va vazifalarga erishishga imkon yaratadi.

Shu bilan birga, maxsus vazifalarni bajaruvchi harbiy qismlarda va hududiy organlarning bo'linmalarida jismoniy tayyorgarlikni tashkil etishda jismoniy tayyorgarlikning turli shakllarini tashkil etish va qo'llashda farqlar va ancha jiddiy holatlar mavjud.

Jismoniy tayyorgarlik tadbirlarini rejalashtirish o'quv va jangovar (maxsus) vazifalar bajarilishi inobatga olingan holda jismoniy tayyorgarlik rejasini o'zlashtirilishini hamda mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar miqdori to'la-to'kis o'tkazilishini ta'minlanishi shart [2].

Harbiy xizmatchilar xizmat qilayotgan harbiy qism, muassasa va bo'linmalarda jismoniy tayyorgarlikning barcha shakllari qo'llaniladi: o'quv mashg'ulotlari, ertalabki badantarbiya, ommaviy sport ishlari, xizmat va jangovar faoliyat jarayonida jismoniy tayyorgarlik va mustaqil jismoniy tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlikning yuqoridagi shakllaridan samarali foydalanish shaxsiy tarkibning jismoniy tayyorgarligini muntazam va doimiy ravishda yuqori darajada ushlab turish imkonini beradi va zarur jangovar shaylikni ta'minlaydi.

Jismoniy tayyorgarlikka oid

o‘tkaziladagan asosiy tadbirlar Milliy gvardiya boshqaruv organlari va qo‘shinlarini tayyorlash rejasi hamda boshqarma, bo‘linma va muassasalarning o‘quv yili uchun ishlab chiqilgan jangovar, maxsus va kasbiy tayyorgarlik rejalarida aks ettiriladi. Unda asosan o‘quv yili davomida o‘tkaziladigan asosiy sport tadbirlarining taqvimiy rejasi (jadvali) ko‘rsatib o‘tiladi [2].

Jismoniy tayyorgarlikka oid o‘quv mashg‘ulotlari quyidagicha rejalashtiriladi:

jangovar bo‘linmalar harbiy xizmatchilari, kursantlar va tinglovchilar uchun haftasiga kamida 4 soat;

qolgan barcha harbiy xizmatchi (xodim)lar uchun haftasiga kamida 3 soat.

Jismoniy tayyorgarlik tadbirlari quyidagicha rejalashtiriladi:

boshqarmalarda – jismoniy tayyorgarlikka shtat bo‘yicha tayinlangan mansabdor shaxs yoki komandir (boshliq)ning buyrug‘i bilan shtatdan tashqari jismoniy tayyorgarlikga tayinlangan ma’sul shaxs tomonidan;

bo‘linmalarda – shtab boshlig‘i, komandirning jangovar va maxsus tayyorgarlik bo‘yicha o‘rinbosari,jismoniy tayyorgarlikga shtat bo‘yicha tayinlangan mansabdor shaxs yoki komandir(boshliq)ning buyrug‘i bilan shtatdan tashqari jismoniy tayyorgarlikga tayinlangan ma’sul shaxs tomonidan;

muassasalarda – shtab boshlig‘i, jismoniy tayyorgarlik kafedrasi (sikli) boshlig‘i yoki boshliqning buyrug‘i bilan shtatdan tashqari jismoniy tayyorgarlikga tayinlangan ma’sul shaxs tomonidan;

vzvod (otryad)larda – vzvod (otryad) komandirlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qo‘riqlash xizmatida ishlaydigan xodimlar jismoniy tayyorgarligining asosiy maqsadi va maxsus vazifalari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

cheklangan maydonda, son jihatdan ustun bo‘lgan dushman bilan ham individual, ham bo‘linma (guruh) tarkibida qurolli va qurolsiz dushmanga qarshi jangovar usullarni qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni muntazam rivojlantirish;

epchillik, tezlik hamda kuchni takomillashtirish;

shahar sharoitida to‘siqlarini yengib o‘tishda amaliy-xizmat ko‘nikmalarni shakllantirish;

zarur irodaviy-ruhiy va psixologik fazilatlarni, shu jumladan jismoniy zo‘riqish va ruhiy-psixik bosim ostida xizmat va jangovar topshiriqlarni maqsadga muvofiq bajarishga yaqin sharoitlarda tarbiyalash;

to‘satdan yuzaga keladigan, shu jumladan favqulodda vaziyatlarda harakat qilishda matonat, jasorat va qat'iyatlilikni tarbiyalash.

Yiliga kamida 100 soatlik o‘quv guruhlari tarkibida 12 va 24 soatlik jadval bo‘yicha smenali xizmat rejimini amalga oshiruvchi qo‘riqlash xizmati bo‘linmalari xodimlari uchun jismoniy tarbiya soatlarining taxminiy hisobini kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilikni rivojlantirish uchun umumiy jismoniy mashqlar bo‘yicha jangovar usullarni ishlab chiqish (oyiga kamida bitta nazorat darsi) va xizmatdan tashqari mustaqil jismoniy tayyorgarlik guruhlarini tuzish maqsadga muvofiq. Dasturni ishlab chiqish uchun haftasiga kamida 2 dars shtatdagi (shtatdan tashqari) instruktorlarni (jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari) jalb qilgan holda va oyiga kamida bitta nazorat darsini, shuningdek jismoniy tayyorgarlikning bunday shaklini yo‘riqnoma mashg‘uloti sifatida o‘tkazish rejalashtirilishi zarur. Jismoniy tayyorgarlik bo‘limlarini (shu jumladan jangovar usullarni) takrorlash bilan yo‘riqnoma mashg‘ulotlarini smena boshlanishidan oldin o‘tkazilishi maqsadga muvofiq.

Xodimlarning jismoniy tayyorgarligini rejalashtirish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- 2-4 soat davom etadigan o‘quv mashg‘ulotlari, shuningdek, ichki kun tartibiga, shuningdek mashg‘ulotlar jadvaliga kiritilgan haftada kamida bitta dars;

- xizmat faoliyati bilan birga olib boriladigan jismoniy tarbiya;

- bir oylik sport-ommaviy ishlar rejasiga muvofiq musobaqalar, sport tadbirlari vaqtida amalga oshiriladigan sport-ommaviy ishlar (sport musobaqalari, musobaqalarga, sport bayramlariga tayyorgarlik ko‘rish davridagi va vaqtidagi mashg‘ulot tadbirlari);

- ertalabki jismoniy mashqlar (mashg'ulot va lager yig'inlari, dala mashg'ulotlari paytida);

- jismoniy tarbiya bo'limlarini majburiy o'qitish bilan yo'riqnoma mashg'ulotlari;

- individual rejalar bo'yicha ishdan tashqari amalga oshiriladigan mustaqil jismoniy tarbiya.

Chekka hududlarda xizmat vazifalarini bajaruvchi xodimlar uchun mashg'ulotlarni bajarish, mustaqil jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish, asosiy jismoniy va maxsus fazilatlarni rivojlantirish, jismoniy tayyorgarligini tekshirishga qo'yiladigan talablarni yetkazish, shuningdek ularning jismoniy tayyorgarligini tekshirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlari zamonaviy video aloqa texnik vositalardan foydalangan holda o'tkazilishi mumkin.

Yo'riqnoma mashg'uloti jarayonida harbiy xizmatchilar, xodimlar oldin o'rganilgan jangovar usullarni xizmat va jangovar topshiriqlarga muvofiq o'z majburiyatlaridan kelib chiqib ko'plab marotaba bajaradilar.

Shtab va muassasalarning harbiy xizmatchilari (xodimlari) uchun kundalik rejimda sport anjomlari bilan jihozlangan maxsus jihozlangan xonalarda yoki ish joylarida har 2-3 soatda amalga oshiriladigan 5-10 daqiqa davom etadigan jismoniy tarbiya pauzalari (ofislarda).

Jismoniy tayyorgarlikning mustaqil tayyorgarlik kabi turi bilan harbiy xizmatchilar va xodimlar ishdan tashqari, ya'ni xizmatdan tashqari vaqtlarda shug'ullanadi. Mashg'ulotlarning individual rejasi (dasturi) jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari bilan hamkorlikda tuziladi. Mashg'ulotning mazmuni gimnastika snaryadlari va trenajorlarida turli jismoniy mashqlar, espander, gantellarda shug'ullanish, uzoq masofaga yugurish va yurish, suzish, sport va ochiq o'yinlardan iborat .

Mustaqil jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari soni individual ravishda belgilanadi. Harbiy xizmatchilar va xodimlarning mustaqil jismoniy tayyorgarligini tashkil etish quyidagilarga asoslanadi:

jismoniy sifatlar va malakalarni rivojlantirish xususiyatlariga oid masalalar bo'yicha uslubiy tavsiyalarni o'rganish;

muayyan davr (oy, chorak, yarim yil, yil) uchun individual rejalar (topshiriqlar) tuzish;

jismoniy tayyorgarlik darajasining mustaqil nazorat tekshiruvlarini o'tkazish.

Jismoniy tayyorgarlik bilan mustaqil shug'ullanadigan harbiy xizmatchilar va xodimlar o'z-o'zini nazorat qilish usullarini yaxshi bilishlari va ularni mustaqil tayyorgarlik jarayonida qo'llashlari kerak.

O'z-o'zini nazorat qilish evaziga shug'ullanuvchi mashg'ulot jarayonining borishini shaxsan nazorat qilish, qo'llani-ladigan mashg'ulot metodologiyasini tahlil qilish imkoniyatiga ega.

Mustaqil jismoniy tayyorgarlik bilan yoshi, sog'lig'i holati, asosiy jismoniy fazilatlarning rivojlanish darajasi, harbiy xizmatchi, xodimning kasbiy faoliyatining xarakterini hisobga olgan holda optimal miqdorda shug'ullanishi eng samarali bo'ladi.

Jismoniy tayyorgarlik va sport mutaxassislari, tibbiy xizmat mutaxassislari mustaqil jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish metodikasi, o'z-o'zini nazorat qilish, mazmuni bo'yicha instruktor-uslubiy mash-g'ulotlar va yo'riqnomalarni muntazam ravishda o'tkazishlari shart.

Harbiy xizmatchilar, xodimlarning jismoniy tayyorgarligi darajasini nazorat qilish har oy rejalashtirilgan nazorat-sinov mashg'ulotlarida, shuningdek, mustaqil jismoniy tayyorgarlik jarayonida amalga oshiriladi.

Nazorat ma'lumotlari bo'yicha baholash jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislar tomonidan, shuningdek, o'zlarining tayyorgarlik darajasini mustaqil ravishda baholay oladigan shug'ullanuvchilarning o'zlari tomonidan amalga oshiriladi.

Xulosa

Natija sifatida, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlarining jismoniy tayyorgarligining zarur darajasini belgilovchi vazifalar va jismoniy tayyorgarlik dasturlari har tomonlama ko'rib chiqilishi hamda harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) xizmat

va jangovar faoliyatning turli sharoitlariga moslashgan holda ularning kasbiy fazilatlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shu bilan birga, jismoniy tayyorgarlik dasturlari o'z mazmunidagi jismoniy takomillashtirish jarayonining davomi sifatida o'z maqsadiga muvofiq aniq maxsus yo'nalishga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati, terrorizmga qarshi kurashish va boshqalar uchun mas'ul bo'lgan kuch tuzilmalarida jismoniy tayyorgarlik har doim harbiy xizmatchilar va xodimlarning o'quv-jangovar va xizmat vazifalarini bajarishga jangovar shayligining hal qiluvchi, asosiy elementi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi yoki qisqacha aytganda Milliy gvardiya qo'shinlarini shakllantirish va takomillashtirish, mazkur tuzilma oldida turgan maqsad va vazifalar ko'lamini oshirish va murakkablashtirish, ushbu tuzilmaning harbiy xizmatchilari va xodimlarining sifatli jismoniy tayyorgarligiga erishish vazifasi muhim maqsad va dolzarb masala maqomiga ega bo'lmoqda.

Buning uchun "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'shinlarida jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mashqlar va me'yorlar to'plami"da tegishli yosh toifasi uchun ko'rsatilgan mashqlardan foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 18-dekabrdagi "Milliy gvardiya to'g'risida"gi 647-sonli Qonuni // https//www.lex.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining 2021 yil 29 apreldagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida jismoniy tayyorgarlik va sportni tashkillashtirish bo'yicha vaqtinchalik qo'llanma

3. Пашута В.Л., Модель физической подготовки специальных подразделений для эффективного выполнения боевых задач / В. Л. Пашута, О. А. Федоренко //Ученые записки университета им. П. Ф. Лесгафта. -2012- №2 (84).-С. 115-119.

4. Миронов, В. В. Физическая подготовка в структуре боевой подготовки военнослужащих подразделений специального назначения / В. В. Миронов, В. Л. Пашута, А. А. Тараненко // Актуальные проблемы физической и специальной подготовки силовых структур. - 2009. - № 3. - С. 170-175.

5. Зыков А. В. Характеристика и боевые возможности личного состава Вооруженных сил Саудовской Аравии / А. В. Зыков, О. С. Боцман, В. А. Щеголев // Актуальные проблемы физической и специальной подготовки силовых структур. - 2020. - № 3. - С. 32-36.

6. Зыков А. В. Система профессионального обучения различных категорий личного состава вооруженных сил Норвегии / А. В. Зыков, С. А. Трапезников, В. А. Щеголев, В.Л. Пашута // Актуальные проблемы физической и специальной подготовки силовых структур. - 2020. - № 4. - С.43-47.

7. Сущенко В.П. Факторы, определяющие отношение призывной студенческой молодежи к выполнению норм и требований Физкультурно-спортивного комплекса ГТО / В. П. Сущенко, Г. Г. Дмитриев, В. А. Щеголев, И. В. Корчагин // Здоровье - основа человеческого потенциала: проблемы и пути их решения. - 2018. - Т. 13. - № 2. - С.704-710.

8. Щеголев В.А. Профессиональная и физическая подготовка подразделений сил специального назначения ведущих стран НАТО: монография / В. А. Щеголев, Г. Г. Дмитриев, В. П. Сущенко. - СПб.: ВИФК, 2019,- 141 с.

9. Щеголев В.А. Профессиональная и физическая подготовка военнослужащих

США: учеб. пособие / В. А. Щеголев, В. П. Сущенко. - СПб. : Изд-во Политехи, ун-та, 2017. - 113 с.

Akramov J.M. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari va xodimlarini jismoniy tayyorligini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari

Maqolada harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslar va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo'shinlari xodimlarini o'qitish va takomillashtirish bosqichida jismoniy tayyorgarlikning ahamiyati, ushbu tuzilmaga yuklangan vazifalarni oshirish va murakkablashtirish to'g'risida ochib berilgan. Jismoniy tayyorgarlikning jihatlari, uni tegishli vazifalarga muvofiq rejalashtirish, Milliy gvardiya tarkibida harbiylardan tashqari, tegishli xodimlar tomonidan xizmat jarayonini amalga oshiradigan tuzilmalar tashkil etilishi hisobga olinib, bu tashkilotga boshqa talablarni qo'llashni nazarda tutilishi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Milliy gvardiya, kasbiy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, xizmatga oid (amaliy) ko'nikmalar, rahbariy hujjatlar, rejalashtirish, alohida yo'naltirilganlik.

Акрамов Ж.М. Особенности планирования физической подготовки военнослужащих и сотрудников в Национальной гвардии Республики Узбекистан

В статье раскрывается значение физической подготовки для лиц, проходящих военную службу, и сотрудников войск национальной гвардии Республики Узбекистан (Нацгвардии) на стадии образования и совершенствования, увеличения и усложнения поставленных задач перед данной структурой. Рассматриваются аспекты физической подготовки, ее планирование согласно соответствующим задачам, принимая во внимание создание в Нацгвардии, помимо воинских, структур, в которых осуществляют процесс службы граждане, которые обладают соответствующими полицейскими званиями (имеющие специальные звания сотрудников полиции), что влечет за собой применение иных требований к организации

Ключевые слова: Нацгвардия, профессиональная подготовленность, физическая подготовка, служебно-прикладные (прикладные) навыки, руководящие документы, планирование, специальная направленность.

Akramov J.M. Features of planning the physical training of military personnel and employees in the national guard troops Republic of Uzbekistan

The article reveals the importance of physical training for persons undergoing military service and employees of the National Guard of the Republic of Uzbekistan at the stage of education and improvement, increasing and complicating the tasks assigned to this structure. The article considers aspects of physical training, its planning according to the relevant tasks, taking into account the creation of structures in the National Guard, in addition to military ones, in which citizens who have the appropriate police ranks (having special ranks of police officers) carry out the service process, which entails the application of other requirements for the organization of physical training.

Key words: National Guard, professional readiness, physical training, service and applied (applied) skills, management documents, planning, special orientation.